

KITOBNI KECHIKTIRMASDAN QAYTARING!

Quyida ko'rsatilgan muddatgacha

15. 27/09/00
24/08/2005

728
~ 47
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

M. ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

MUHSIN XIDIROV

ARXITEKTURA TARIXI

*O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni
qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha
Respublika muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2004

85.11
X 47

Taqrizchi – X.Po'latov, arxitektura fanlari nomzodi, dotsent

IXIRAT ARXITEKTURA

UZBEKISTON MAMALIGA
TANQDISHUV CHARTER
MAMALIGA TANQDISHUV CHARTER
TANQDISHUV CHARTER

X 4902010000-38 qat'iy buyurtma, 2004
M352(04)-2004

ISBN 5-635-02243-X


© M.Xidirov, G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004-y.

KIRISH

Qadim zamonlardan boshlab dunyo madaniyati tarixi arxitektura taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Insoniyat arxitekturaviy faoliyati dunyo taraqqiyotining ibtidoiy jamoa davridan boshlab to hozirgi davrgacha muttasil rivojlanishdan iborat.

Arxitektura fakultetlarida "Arxitektura va shaharsozlik tarixi" fani o'rganiladi. Ammo bugungi kungacha bu fan bo'yicha o'zbek tilida nashr etilgan darsliklar yetarli emas. Ayniqsa, Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi bo'yicha bironta ham darslikni ko'rsatib bo'lmaydi. Bu davrlar arxitekturasi tarixi asosan rus tilida nashr etilgan 12 jiddlik umumaxitektura tarixi kitoblarini o'qish va o'rganish orqali amalga oshiriladi. Bu kitoblar ensiklopedik xarakterga ega bo'lib, darslik sifatida xizmat qila olmaydi. Shuning uchun arxitektura va shaharsozlik tarixi fani bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish hozirgi davr dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, bu fan bo'yicha o'zbek tilida darsliklarning yo'qligi masalani yanada mushkullashtiradi. Oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar o'ta tez sur'atlar bilan mazkur soha uchun o'quv qo'llanmalari yaratishni taqozo etadi. Biz ayni shu maqsad yo'lida ushbu o'quv qo'llanmasini yaratmoq vazifasini bajarishga harakat qildik.

O'quv qo'llanmasida eng qadim zamonlarda arxitekturaning kelib chiqishidan boshlab to zamonaviy arxitektura shakllanishigacha bo'lgan davr arxitekturasi taraqqiyoti qisqacha bayon qilingan. Mazkur qo'llanma ushbu sohadagi dastlabki ishlardan bo'lib, ayrim kamchilik va nuqsonlardan xoli bo'lmasligi tabiiydir. Shuning uchun biz barcha o'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini bildirishlarini iltimos qilamiz.



ARXITEKTURA TARIXI FANI PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. ARXITEKTURANING VUJUDGA KELISHI

MA'RUZA REJASI:

- 1. Arxitektura tarixi fani predmeti, fani, maqsadi va vazifalari.*
- 2. Arxitekturaning rivojlanish bosqichlari.*
- 3. Har bir davr arxitekturaviy uslubining xususiyatlari.*
- 4. Tektonik va fazoviy tushunchalarining shakllanishi.*

TAYANCH IBORALAR:

Arxitektura va shaharsozlik. Arxitekturaviy uslub. Ijodiy professional mahorat. Evolyutsion rivojlanish. Funksiya. Konstruksiya. Kam xarajatlik. Estetika va badiiylik. Umumiy va xususiy arxitekturaviy shakllar.

MA'RUZA MATNI

Oliy arxitektura maktablarida “Arxitektura tarixi” fanini o’tishdan asosiy maqsad tarixiy davrlarda arxitekturada yuzaga kelgan ijodiy professional uslubni daliliy misollarda ochib berib, har xil davrlardagi arxitekturaviy professional uslubning o’ziga xos xususiyatlarini xarakterli misollar orqali ko’rsatib berishdir.

Arxitektura – bu uzlusiz dialektik rivojlanish jarayoni bo’lib, ibtidoiy jamoa davridan boshlab to hozirgi kungacha bo’lgan evolyutsion, davriy va davrma-davr asta-sekin rivojlangan jarayondir.

Arxitektura har bir davrda ijtimoiy tuzum, davlat siyosati va iqtisodiyoti, har bir joyning tabiiy-iqlim sharoiti va xalqning urf-odatlari bilan chambarchas bog’liqdir.

Insoniyat arxitekturaviy-qurilish faoliyatining asosiy maqsadi – hayotiy jarayonlar uchun fazoviy muhitni tashkil qilish. Hayotiy jarayonlar ishlab chiqarish, maishiy faoliyat bilan bog’liqdir. Arxitektura moddiy talablar bilan bir qatorda ma’naviy talablarni ham qondirishi shardir. Shuning uchun tarixiy rivojlanish jarayonida arxitekturaning g’oyaviy va ijtimoiy funksiyalari turli qurilish konstruksiylariga estetik va me’moriy-badiiy obrazlarni uyg’unlashtirish orqali amalga oshirilgan.

Bino va inshootlar shaklining mutanosibligi, konstruktiv qismlarning hajm-fazoviy va plastik yechimi arxitekturaviy tektonikani tashkil qiladi. Tarixiy rivojlanish jarayonida tektonika professional ijodiy uslubni xarakterlaydigan asosiy ko’rsatkichlardan biridir.

Har bir tarixiy davr ijodiy uslubi arxitekturaviy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar asosan to'rt xil sifatlardan tashkil topadi:

- funksional jihatdan jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan kerakli va foydali bo'lishi;
- konstruktiv jihatdan mustahkam va chidamlı bo'lishi;
- iqtisodiy jihatdan kam xarajatli va arzon bo'lishi;
- estetik va badiiy jihatdan mutanosib shaklga va chiroyli ko'rinishga ega bo'lishi.

Yuqorida keltirilgan sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan faoliyat natijasidagina tarixiy davrlarda arxitekturaviy professional ijodiy uslub rivojlangan va ma'lum jihatdan yetuk bino va inshootlarni yaratishga xizmat qilgan.

Arxitektura rivojlanishi bilan bino va inshootlarning funksional, ikonstruktiv va badiiy yechimlari ham taraqqiy topgan, o'zgargan va ihar bir davrga xos ijodiy uslub yaratilgan.

Arxitekturaviy uslub – bu har bir davr va har bir xalq arxitekturasiga xos bo'lgan funksional, konstruktiv va badiiy xususiyatlar to'plami. Uslub tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, ma'lum davrga xos bino va inshootlar tarixiy va hajmiy kompozitsiyalari, ishlatalgan qurilish materiallari va konstruksiyalari hamda badiiy ifodalanish vositalari shakl va ko'rinishlari bilan aniqlanadi.

Arxitekturaviy uslub ma'lum tarixiy davrda yaratilgan, rivojlangan va tanazzulga yo'l tutganligi oqibatida boshqa uslub bilan almashtagan. Demak, ma'lum tarixiy davrga xos bo'lgan uslub sun'iy ravishda tiklanishi mumkin emas.

Arxitektura bu bir vaqtning o'zida ham texnika, ham san'atdir. Bino va inshootlarni loyihalash va qurish jarayoni muhandislik bilimlariga asoslangan. Shu bilan birga, arxitektura san'atdir, chunki arxitektor ibadiiy obrazlarga ega imoratlarni yaratadi. Bu obrazlar asosan geometrik shakllar orqali namoyon bo'ladi. Arxitekturada obraz tushunchasi birinchi navbatda bino va inshootlarning funksional vazifalari bilan bog'liqdir. Arxitekturaviy obraz imoratlari badiiy va kompozitsion vositalari bilan ihmam chambarchas bog'liqdir. Bu vositalar birinchi navbatda turli shakldagi ihmamlarning o'zaro joylashuv tartibi va mutanosibligi bilan aniqlanadi. Badiiy va kompozitsion ifodalanish vositalari ritmik tuzilishi, soni va o'lchamlari, rangi va fakturasi bilan aniqlanadi. Shuningdek, imoratlari simmetrik yoki assimetrik tuzilishi, asosiy qismining bo'rttirib ko'rsatilishi va boshqa bir qancha ifodalanish vositalari orqali ma'lum obrazlarga ega bo'ladi.

Obraz tushunchasi imoratlarning funksional va konstruktiv tuzilishiga mos bo'lgan shaklga ega bo'lishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bino

va inshootlar konstruksiyalari badiiy ifodalanish vositalari sifatida xizmat qilib, imoratlar tashqi va ichki ko'rinishlarida ma'lum emotsiyonal hissiyot uyg'otishi ham mumkin. Masalan, ulkan gumbaz bilan yopilgan imorat tashqi ko'rinishi mahobatli bo'lishi bilan bir qatorda, gumbaz osti ko'rinishi cheksiz osmon shaklini eslatadi.

Arxitekturada san'atlarni uyg'unlashtirish yoki san'atlar sintezi ham imoratlar obrazini shakllantiradigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Bino va inshootlar tuzilishida rangtasvir va haykaltaroshlik asarlaridan foydalanishning asosiy maqsadi – bu tasviriy vositalar orqali imoratlarning g'oyaviy mazmuni va obrazini ko'rsatishdir. Bundan tashqari, rangtasvir va haykaltaroshlik asarlari imoratlar badiiy va plastik xususiyatlarini ko'rsatadi.

Davr o'tishi bilan bir madaniyat o'rnini boshqasi egallaydi, insoniyat sivilizatsiyalaridan esa faqatgina moddiy yodgorliklar – tasviriy san'at asarlari, kitoblar, ishlab chiqarish va maishiy ro'zg'or asbob-ashyolari saqlanib qoladi. Ammo moddiy yodgorliklar ichida eng kattasi va yaqqol ko'zga tashlanadigan narsa albatta arxitekturaviy yodgorliklardir. Arxitekturaviy yodgorliklar hozirgacha shaharlarda saqlanib qolib, shaharlar qiyofasini shakllantirishda qatnashib kelmoqda.

Arxitekturaviy bino va inshootlar badiiy qiymati ularning ichki va tashqi ko'rinishi yechimi bilan bog'liqidir. Bino va inshootlar badiiy ko'rinishi ikki asosiy narsa bilan aniqlanadi: birinchidan, bu umumiyy arxitekturaviy-kompozitsion shakllar bo'lib, ikkinchidan, xususiy shakl va qismlardan tashkil topadi.

Umumiyy arxitekturaviy shakllar bino va inshootlar hajm-fazoviy yechimi va ularning qismlarining mutanosibligi bilan aniqlanadi.

Xususiy arxitekturaviy shakllar bino va inshootlarning alohida qismlari – karnizlar, balkonlar va boshqa shunga o'xshagan detallardan tashkil topgan.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Arxitektura tarixi fani nimani o'rgatadi?
2. Arxitektura qanday rivojlangan?
3. Arxitekturaviy uslub nima?
4. Arxitekturaning to'rt xil sifatlari nima?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T. I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M. 1966 – 77 g.
3. Abdullayev N. San'at tarixi. 1,2-j. Toshkent, 1979.
4. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

IBTIDOIY JAMOA ARXITEKTURASI

MA'RUZA REJASI:

1. Neolit va bronza davri arxitekturasi.
2. Yevropa hududida qoziqsimon uylar.
3. Megalitik qurilmalar.
4. Siklopic qal'alar.

TAYANCH IBORALAR:

Ibtidoiy jamiyat. Paleolit davri. G'orlar. Yerto'la. Chayla. Marosimlar maydoni. Neolit davri. Bronza davri. Tosh qurollar. Metall qurollar. Megalitik qurilma. Dolmen. Mengir. Kromlex. Siklopic qal'a.

MA'RUZA MATNI

Insoniyat arxitekturaviy-qurilish faoliyatining boshlanishi paleolit davriga to'g'ri keladi va u eng oddiy tosh qurollari yordamida odamlarning o'ziga uy-joy qurishi bilan bog'liq. Yog'ochga boy joylarda konus-shakl va ikki tomonga og'ma tomli shoxlardan yasalgan chaylalar keng tarqaladi.

Arxitekturaning paydo bo'lishi so'nggi paleolit davriga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib qurilish jarayoni faqatgina texnik faoliyat bo'lmasdan, balki odamlarning ma'naviy talablarini ham qondirishga xizmat qiladi. Oddiy konstruksiyalarga estetik tomondan ishlov berish va qurish jarayoniga badiiy-texnik talablarning kiritilishi qurilish faoliyatiga ma'lum darajada g'oyaviy-obraz tushunchasini olib kiradi.

Neolit davrida tosh qurollari takomillashtirilishi bilan insoniyat moddiy imkoniyatlari kengayadi. Bu davrga kelib yog'ochdan yasalgan uy-joylar to'g'ri burchakli shaklni qabul qilib, devorlari ustunlar va ularga biriktirilgan shox-shabbalar o'rimidan iborat edi. Xuddi shunday imoratlar Dnepr daryosi bo'yidagi Kolomyshina – I degan joyda topilgan. Bu imoratlar eramizdan oldingi III – I ming yillikda qurilgan. Bu joyda imoratlar 2 ta konsetrik davra shaklida joylashtirilgan: diametri 170 m aylana bo'yicha katta uylar joylashtirilgan bo'lib, aylana ichida esa kichik uylar joylashtirilgan. Bu turarjoy maskani eng qadimgi muntazam shakldagi turarjoy bo'lib, ibtidoiy jamoa xususiyatlari va mudofaa vazifalarini bajarishga moslashtirilgan bo'lgan.

Yangi tosh davri – neolit davrida (eramizdan oldingi VI – II ming yillik) mehnat qurollari keng rivojlanishi bilan ibtidoiy jamoa a'zolari dehqonchilik va chorvadorlik bilan shug'ullana boshlashadi.

Bu davrda daryolar va ko'lllar ustida qoziq qoqilib qurilgan binolar turi keng tarqalgan. Bunday turdag'i imoratlarning qurilishi baliqchilik bilan shug'ullanish uchun yaxshi sharoit yaratgan.

Neolit davrining so'nggi pallasida, ya'ni bronza asrida metalldan tayyorlangan har xil ish qurollari paydo bo'ldi. Xuddi shu davrda megalitik qurilmalar ham keng tarqaladi. Megalitik qurilmalar juda katta tosh bo'laklaridan qurilgan bo'lib, ular har xil diniy udumlar bilan bog'liq bo'lgan. Megalitik qurilmalar asosan uch turga bo'linadi: mengirlar, dolmenlar va kromlexlar.

Mengirlar – bu vertikal shaklda o'rnatilgan balandligi 20 metrli katta tosh bo'laklaridir. Eng katta mengirlarning og'irligi qariyb 300 tonnagacha bo'lgan. Mengirlar biron-bir tarixiy hodisa sharafiga o'rnatilgan.

Dolmenlar – bu bir necha vertikal o'rnatilgan tosh va ularning usti gorizontal tosh plitasi bilan yopilgan qurilma bo'lib, asosan, qabila boshqaruvchisi uchun qurilgan. Qabila boshlig'i o'limidan keyin shu yerda dafn etilib, dolmen maqbara vazifasini o'tagan.

Kromlexlar – megalitik qurilmalar ichida eng murakkab va kompozitsion jihatdan uyg'unlashgan inshootdir. Angliyaning Stounxendj degan joyidagi kromlex diametri 30 metr bo'lgan aylana bo'yicha qo'yib chiqilgan toshlar va uchi bir-biri bilan toshlar vositasida bog'langan inshootdir. Ichki aylanada yana uch juft vertikal toshlar joylashtirilgan bo'lib, ularning usti ham o'zaro balka orqali bog'langan. Aylananing geometrik markazida eng katta vertikal tosh joylashtirilgan. Kromlexlar qadimgi ibridoiy jamoa uchun ibodatxona vazifasini o'tagan.

Kromlexlarning aylana shakli ularning quyosh ibodatxonalarini vazifasini o'taganligi ifodasidir.

Ibtidoiy jamoa rivojlanishining so'nggi davrlarida mudofaa uchun mo'ljallangan qal'asimon inshootlar va ibodatxona vazifasini bajaradigan qurilmalar keng tarqaladi.

Siklopic qal'alar deb nomlanuvchi qurilmalar devorlari katta o'lchamdag'i vertikal toshlardan qurilgan. Yog'ochga boy joylarda esa qal'a devorlari odatda daraxtlar tanasidan yasalgan. Odatda qal'alar ikki yoki uch qator devorlar bilan o'rab olingan.

Hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralishi, xususiy mulkning paydo bo'lishi ibridoiy jamoa tuzumi inqiroziga olib keldi. Bu inqiroz natijasida ibridoiy jamoa tuzumi tanazzulga yuz tutadi va quldorchilik jamiyatini yuzaga keladi.

Neolit davrida O'ita Osiyoda ham chayлага o'xshash katta qabila uylari qurilganligi ma'lum. Jumladan, eramizdan oldingi IV – III ming yilliklarga taalluqli Qadimgi Xorazmda ochilgan "Jonboz – 4" deb nomlanuvchi

ovchilarning chaylasimon turarjoyi bunga misol bo'la oladi. Bu imorat qum barxani ustida qurilgan bo'lib, o'lchamlari 290x17 metrni tashkil qilgan. Imorat markazida diametri 1,2 metr bo'lgan bosh o'choq va imorat chekkalarida 100 tadan ortiq ro'zg'or o'choqlari joylashgan. Chaylaning tomi va ustunlari teraklardan tayyorlangan. Bu joydan ko'plab tosh qurollari, sopol idish bo'laklari va boshqa ashylolar ham topilgan.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Arxitektura qanday vujudga kelgan?
2. Yovvoyilik davri turarjoylari qanday shakllangan?
3. Megalitik qurilmalar nima?
4. Mehnat qurollari qurilish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatgan?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T. I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M. 1966 – 77 g.
3. Abdullayev N. San'at tarixi. 1, 2-j. Toshkent. 1979.
4. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

QADIMGI MISR ARXITEKTURASI TARIXI

MA'RUDA REJASI:

1. *Qadimgi Sharq mustabid davlatlari shakllanishi.*
2. *Qadimgi Misr quldarlik davlatining rivojlanish bosqichlari.*
3. *Qadimgi podsholik davri arxitekturasi.*
4. *Mastaba va ehromlar shakllanishi.*
5. *Gizadagi ehromlar kompleksi.*
6. *O'rta podsholik davri arxitekturasi.*
7. *Yangi podsholik davri arxitekturasi.*
8. *Ibodatxonalar arxitekturasi shakllanishi.*

TAYANCH IBORALAR:

Quldarlik arxitekturasi. Mustabid davlatlar. Arxaika davri. Qadimgi podsholik davri. O'rta podsholik davri. Yangi podsholik davri. Mastaba. Ehrom. Sfinks haykali. Beni-Hasan maqbaralari. Protodorik ustun. Fiva arxitekturasi. Dayr el-Baxri qasri. Ibodatxona bo'yylama kompozitsiyasi. Sfinkslar xiyoboni. Pilon. Peristil zali. Gipostil zali.

MA'RUZA MATNI

Ibtidoiy jamoa inqirozga uchrab, antagonistik qarama-qarshiliklarga asoslangan quldorlik jamiyati vujudga keladi.

Eng qadimgi quldorlik davlatlari Misr va Yaqin Sharqda vujudga keldi. Bu joylarda quldorlik davlatlari paydo bo'lishi uchun hosildor erlarda sun'iy sug'orish yo'li bilan dehqonchilik rivojlanganligi sabab bo'ldi. Sun'iy sug'orish tizimi asosan podsholar qo'lida bo'lib, shu orqali ular butun hosildor yerlarga ega edilar.

Misr quldorlik davlati asosan 4 davrdan iborat rivojlanish bosqichini bosib o'tgan:

1. Arxaika davri (eramizdan avvalgi 3200 – 2780-yillar).
2. Qadimgi podsholik davri (eramizdan avvalgi 2780 – 2100-yillar).
3. O'rta podsholik davri (eramizdan avvalgi 2100 – 1700-yillar).
4. Yangi podsholik davri (eramizdan avvalgi 1700 – 712-yillar).

Qadimgi Misrda quldorlik davlatini Fir'avn boshqargan. Fir'avn lavozimi podsholar sulolasiga ahliga meros bo'lib o'tib kelgan.

Fir'avn bo'lish uchun taxtga da'vogar o'zidan oldin o'tgan fir'avnning beva qolgan xotiniga yoki uning qizlaridan biriga uylanishi shart bo'lgan.

Eng birinchi sulola fir'avnlari "mastaba" deb ataluvchi qabrlarga dafn etilganlar. Atrofi toshlar bilan to'silgan mastabalar xom g'ishtdan to'g'ri burchak shaklida qurilgan bo'lib, juda ko'p xonalardan tashkil topgan. Vafot etgan fir'avnning barcha buyumlari shu xonalarda saqlangan. Mastabaning yer osti qismi piramida shaklida bo'lgan, yer osti qismida esa go'rxona va boshqa xonalar joylashgan.

Qadimgi misrliklarda Osiris va Isidalarga sajda qilish va ayniqsa, quyosh xudosi Amon Rega sajda qilishga o'xshagan diniy qarashlar mavjud bo'lgan. Shu bois arxitektura yodgorliklarining talaygina qismini diniy inshootlar – maqbaralar va ibodatxonalar tashkil etgan.

Qadimgi misrliklar inson hayotini va tabiatdagi takroriy o'zgarishlarni xudolar boshqaradi, deb ishonganlar. Misrliklar xudolarni hayvon boshli odam qiyofasida tasavvur etganlar. Xudolarning podshosi lochin boshli quyosh xudosi Amon Re hisoblangan. Fir'avn esa quyosh xudosining yerdagи farzandi deb hisoblangan. Osiris yer osti dunyo xudosi, Isida esa yer osti dunyo xudosi deb hisoblangan.

Mastabalar shakli o'zgarishi bilan zinali piramidalar – ehromlar paydo bo'ldi. Sakkaraxdagi Joser piramidi eramizdan oldingi 2780-yilda qurilgan bo'lib, uning balandligi 60 m, asoslari esa 109,2x121 m.

Qadimgi podsholik davrining eng yirik yodgorligi – Gizadagi ehromlar kompleksi Xeops, Xefren va Mikerin ehromlaridan tashkil topgan va eramizdan oldingi 2900 – 2700-yillarda qurilgan. Ehromlar

ichida eng kattasi Xeops ehromi bo'lib, uning balandligi 147 metr, kvadrat asosining bir tomoni uzunligi 230 metrni tashkil qiladi. Xeops piramidasi dunyodagi yetti mo'jizadan biri deb tan olingen. Darhaqiqat, u yaxlit va yetarli darajada mustahkam inshoot bo'lib, 2.300.000 ta tosh bloklaridan ishlangan. Har bir blok o'rtacha 2,5 tonna og'irlikda bo'lgan. Piramidaning ichida bir nechta bir-biri bilan chalkash yo'llar bor bo'lib, ulardan biri shohning jasadi qo'yilgan xonaga olib boradi. Piramida o'lchovlarining katta bo'lishiga qaramasdan, ulkan inshoot shimol, janub, sharq va g'arb tomonlarga aniq yo'naltirilgan.

Xefren ehromining balandligi Xeopsga nisbatan 8 metr pastroq, ya'ni 139 metr bo'lib, Mikerin ehromining balandligi esa Xeopsga nisbatan qariyb 2 marta pastroqdir. Piramidalar kompleksi yaqinida toshdan o'yilgan sfinks — tanasi odamning shakli, kallasi esa arslon shaklida ishlangan, balandligi 20 metrni tashkil qiluvchi haykal joylashgan.

O'rta podsholik davriga kelib, ulkan piramidalar qurilishi to'xtaydi. Buning asosiy sabablaridan biri fir'avnlar siyosiy boshqaruvinining sustlashishi edi. Bu davrga kelib ibodatxonalar qurilishi keng tarqaladi.

Eramizdan avvalgi 2400-yilning bosqlarida Misr davlati inqirozga yuz tutadi. Oqibatda mamlakat bir necha yarim mustaqil viloyatlarga bo'linadi.

Monumental arxitekturada piramidalar qurilishi o'rta podsholik davrida ham davom ettiriladi. Ammo shakl jihatidan ham, masshtabi jihatidan ham Qadimgi podsholik davridagi piramidalardan ancha kichik va kam dabdabali bo'lgan.

Piramidalar balandligi 65 metrdan oshmagan. Ularning o'lchamlari haddan tashqari kichik bo'lsa-da, ichki bo'linishlari ancha keng bo'lib, odatda go'rxona va ziyoratxona kabi qavatlarga bo'lingan.

O'rta podsholik davrida dafn etish uchun qoyalarda maqbara yasash keng tarqalgan. Bu o'rinda o'zining orderli ustunlari bilan mashhur bo'lgan Beni-Hasandagi maqbaralar juda xarakterli. Maqbaraga kiraverishda o'rnatilgan ikki ustun yunonlarning ustunlarini eslatadi. Shu boisdan bu ustunlar — "protodorik", ya'ni doriy uslubidagi ustunlar deb nomlanadi.

O'rta podsholik davrida Misr arxitekturasida bir necha shakllar kashf etildi, lekin u Qadimgi podsholik davriga nisbatan yuqori bosqichga ko'tarila olmadi. O'rta podsholik eramizdan avvalgi 1700-yilga kelib tamom bo'ldi.

Yangi podsholik davriga asos solgan fivalik hokimlar o'z poytaxtlarini Fiva shahrida (Yuqori Misr) tashkil etdilar. 500 yil mobaynida bu shahar dunyoning eng ulug' va muqaddas markaziga aylandi. Fivaning xudosi Amon Re alohida va muhim rol o'ynay boshlaydi va u Misrning asosiy xudosi deb tan olindi. Endi u boshiga quyosh toji kiygan, tuyaqushning ikki dona pati bilan ulug'langan chavandoz sifatida tasvirlandi.

Fiva shahrida ulkan qurilishlar boshlandi. Fir'avnarning dabdabali saroylari va oqsuyaklarning serhasham qasrlari qad ko'tardi. Shunday qasrlardan biri Dayr el-Baxri degan joyda Malika Xashtepsut tomonidan qurdirilgan. Xashtepsut ibodatxonasi ham shu davrning hashamatli imoratlaridan bo'lgan. Bu bino qoyalar yaqinida, uch tepalikda joylashtirilgan. Bu bino arxitekturasining yaxlitligi atrofdagi sarbaland tog'lar orqali seziladi. Ibodatxonaga uzun yo'l orqali boriladi. Yo'Ining ikki tomonida ham balandligi 10 metr bo'lgan sfinkslar o'rnatilgan.

Karnak shahrida ham ulkan qurilishlar olib boriladi. Jumladan, Quyosh xudosi Amon Re ibodatxonasi shu davrning eng mashhur yodgorliklaridan biri.

Eramizdan oldingi 1700-yildan boshlab Yangi podsholik davri boshlanadi. Bu davrda arxitekturaning rivojlanishi Karnak shahrida olib borilgan qurilishlar bilan bog'liq. Karnakdag'i Amon Re xudosiga bag'ishlangan ibodatxona ulug'likda yagona edi. Ibodatxona uzunligi 103 metr, eni 52 metrdan iborat bo'lib, uning umumiyligi maydoni 5000 kv metrni tashkil etgan. Ibodatxona tomini har bir qatorda 10 tadan 16 qator ustun ushlab turadi. Gipostil xonanining markaziy qismi 6 tadan 2 qator ustunlar bilan alohida ajratilgan. Bu ustunlar diametri 3,4 metr, balandligi esa 20,4 metrga teng. Bu ustunlarning ulkanligi shu darajadaki, ularning qarshisida inson nihoyatda kichik ko'rindi. Markazdag'i ustunlarning kapitellari papirusning ochilgan gullari ko'rinishida bo'lib, yon tomondagilarning kapitellari esa hali ochilishga ulgurmagan g'unchani eslatadi. Yon qatordag'i barcha ustunlarning balandligi 16 metrga teng.

Ibodatxona bo'ylama o'q bo'yicha rivojlanuvchi kompozitsiya asosida qurilgan. Kompozitsiyaning asosiy elementlari esa bosridan-oxirigacha, ya'ni ibodatxonaga olib boruvchi sfinkslar xiyoboni, kirish peshayvoni – Pilon, Peristil shaklidagi ichki ochiq hovli, usti yopiq Gipostil xonasi va yarim qorong'i sig'inish xonasi simmetrik tuzilishga ega. Binoning o'ng tomonidagi qismlari uning chap tomonidagi qismlariga tamomila mos bo'lib, hammasi asosiy bo'ylama harakat o'qiga bo'ysundirilgan. Ibodatxona arxitekturasida yorug'lik katta rol o'ynagan. Quyosh nuri bilan yoritilgan ochiq hovlidan yarim gipostil xona orqali o'tib, muqaddas sanalgan qorong'iroq xonaga va nihoyat, xudoning haykali turgan butunlay qorong'i sig'inish xonasiga o'tiladi. Xuddi shu tartibda ibodatxonaning balandligi ham sig'inish joyi tomon pasayib boradi.

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T. I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Abdullayev N. San'at tarixi. 1,2- j. Toshkent, 1979.
4. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

QADIMGI MESOPOTAMIYA VA ERON ARXITEKTURASI

MA'RUZA REJASI:

1. *Iikki daryo oralig'i va Mesopotamiya arxitekturasining vujudga kelishi.*
2. *Assiriya arxitekturasi xususiyatlari.*
3. *Bobil podsholigi arxitekturasi va shaharsozligi.*
4. *Zikkuratlar arxitekturasi shakllanishi.*
5. *Eron arxitekturasi rivojlanish bosqichlari.*
6. *Persepol va Suza shahri arxitekturasi.*
7. *Firuzobod va Ktesifon arxitektura yodgorliklari.*
8. *Ko'p ustunli zal – "apadana" shakllanishi.*

TAYANCH IBORALAR:

Shumer va Akkad madaniyati. Bobil minorasi. Assiriya madaniyati. Urartu va Mittani madaniyati. Zikkuratlar. Polixromiya. Dur-Sharukkin qasri. Sosoniylar davri. Ahamoniylar davri. Persepol qasri. Apadana zali. Firuzobod qasri. Gumbaz va ravoqlar.

MA'RUZA MATNI

Yaqin Sharq Qadimgi dunyo madaniyati rivojlangan markazlardan biridir. Eramizdan oldingi V – I ming yilliklarda bir tomonidan O'rta Yer dengizi, ikkinchi tomonidan Fors qo'ltig'i, uchinchi tomonidan Kavkaz tog'lari va to'rtinchi tomonidan Eron tog'lari bilan chegaralangan hududlarda bir necha quzdorlik davlatlari rivojlandi. Iikki daryo oralig'i – Tigr va Yevfrat daryolari oralig'i o'zining tabiatini va iqlim sharoiti bo'yicha madaniy rivojlanish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega edi. Xuddi shu hududlarda eramizdan avvalgi V – III ming yilliklarda Shumer va Akkad xalqlari yashagan. III ming yillik oxirlarida bu joyda Bobil (Vavilon) davlati vujudga keladi.

II ming yillikda Vavilondan shimolroqda Assiriya davlati vujudga keldi. Assiriyanadan shimolroqda esa Urartu va Mittani davlatlari vujudga keldi.

Bu joyda quldorlik davlatlari vujudga kelishi va rivojlanishi serhosil yerlar, yerlarni sug'orish sistemasi rivojlanganligi va dehqonchilikning unumli bo'lishi bilan bog'liq edi.

Yaqin Sharq quldorlik davlatlari ko'p sonli ma'muriy tuzilmalarga asoslangan mustabid tuzumdan iborat edi. Davlat hokimiyati va diniy boshqaruv bir-biridan ajralmas tuzilmaga aylanganligi sababli mahobatli inshootlar tarkibi va topinish qurilmalaridan iborat edi.

Bunday diniy-ma'muriy inshootlar baland devorlar bilan o'ralgan bo'lib, shaharlar hududlari ham qal'a devorlari va mudofaa minoralari bilan mustahkamlangan. Mudofaaviy qurilma va inshootlar Yaqin Sharq arxitekturasi asosini tashkil qiladi.

Qadimgi Mesopotamiyadagi Ur shahri Shumer va Akkad davlatlari poytaxti sifatida eramizdan oldingi III ming yilliklarda shakllangan. Shahar markazida baland devorlar bilan o'ralgan diniy-ma'muriy majmua barpo etiladi va ulkan zikkurat quriladi. Bu zikkurat zinasimon piramida shaklida bo'lib, umumiy balandligi 58 metr, asos tomonlari uzunligi 60 metr edi.

Yog'och ashyolari kamchilligi Qadimgi Mesopotamiya va Eronda ravoqli va gumbazli qurilmalar keng tarqalishining asosiy sabablaridan hisoblanadi.

Sosoniylar davrida gumbazli inshootlar Eron hududida keng tarqaladi. Gumbaz va ravoqlar o'lchamlari misli ko'rilmagan darajada kattalashadi va xilma-xil shakllarda bajariladi. III asrdan boshlab tarh tuzilishida kvadrat shakl binolarni gumbaz bilan yopish texnikasi rivojlanadi. Binolar kvadrat asosidan aylana gumbazosti shakliga o'tishi uchun burchak ravoqlaridan foydalaniladi.

Qadimgi Eron arxitekturasi yutuqlari, shuningdek, ustunli qurilmalar keng ishlatilishi bilan ham bog'liq edi. Ayniqsa, "apadana" turidagi binolarda yagona yirik yopiq fazo hosil qilish uchun baland ustunlardan foydalanilgan. Ustunlar baza va kapitellar bilan bezatilgan bo'lib, asosan marmar toshlardan tayyorlangan.

Yaqin Sharq arxitekturasi Qadimgi Misr arxitekturasidan keskin farq qiladi, chunki bu yerlarda mavjud qurilish xom ashyolari Misrda mavjud xom ashyolarga o'xshamas edi. Yaqin Sharq madaniy o'chog'i bo'lmish Mesopotamiyada asosiy xom ashyo sifatida loydan tayyorlangan xom g'ishtdan foydalanilgan. Bu joylarda tabiiy tosh manbalari bo'lmagan. Binolar usti asosan yog'och konstruksiyalari yordamida yopilgan.

Yaqin Sharq davlatlari arxitekturasidagi asosiy xususiyat – bu mudofaaga mo'ljallangan bino va inshootlar qurilishi hamda saroy va ibodatxonalar qurilishining kompozitsion jihatdan bir-biriga o'xshaganligidir. Har bir bino va inshoot, eng avvalo, yaxshi mudofaaviy

xususiyatlarga asoslangan holda qurilgan. Saroylar ham, ibodatxonalar ham, turarjoy binolari ham kvadrat shakliga yaqin kompakt usulda, bir yoki bir necha ichki hovlili qilib qurilgan. Binolar tashqi devorlarida deraza va boshqa teshiklar qoldirilmagan. Mahobatli binolar baland qo'rg'onlar ustida qurilib, shahar atroflari baland devorlar bilan o'rabi olingen.

Bobil yoki Assiriya shaharlari qiyofalari Mesopotamiya arxitekturasi to'g'risida to'liq tasavvur beradi. Bu shaharlar ikki qator mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, shahar ichkarisida "zikkurat"lar yuqoriga qarab bo'y cho'zishgan. "Zikkurat" – diniy inshoot bo'lib, o'z tuzilishi bilan Misrdagi zinali piramidalarga o'xshaydi. Ammo piramidalardan farqi shundaki, "zikkurat" ichida go'rxona va ziyyaratxonalar qurilmagan.

Bobil va Assiriya shaharlari qiyofalarida ibodatxonalar alohida ajralib turadi. Assiriyadagi eng katta va mahobatli bino Anu va Adad xudolari ibodatxonasıdır.

Ibodatxona asosan ikki baland zikkuratlardan hamda Anu va Adad xudolari sajdagohidan iborat. Zikkuratlar poydevori va tashqi qismi esa xom g'isht va tuproq bilan to'ldirilgan. Ibodatxona xonalari ham odatda xom g'ishtdan qurilib, tom yopilmasi ravoq va gumbazlardan bajarilgan, chunki yog'och bu yerlarda kamchil bo'lgan.

Zikkuratlar va boshqa binolar ustki maydonchalari soqchilar tomonidan atrofni kuzatish uchun foydalanilgan. Shahar devorlari ustki qismida ham kuzatish maydonchalari bo'lib, soqchilar uchun qulay qilib yasalgan edi.

Assiriya shohi Sargon II ning eramizdan avvalgi VIII asrda Dur-Sharrukinda qurilgan qasri o'sha davrning eng muhtasham binolaridan biri edi. Tuproqdan ko'tarilgan qo'rg'on ustida qurilgan saroy bitta katta va ikkita kichikroq hovlidan tashkil topib, hovlilar atrofi paxsadan qurilgan imoratlar bilan o'ralgan.

Qasrga kirish joyi ravoqli peshtoq bilan bezatilgan va qanotli sfinkslar-lamassalar haykali burchaklarda o'rnatilgan. Kirish peshtoqi moviyrang sopol koshinlari bilan ishlov berilgan. Umuman olganda, turli rangli koshinlar Yaqin Sharq mamlakatlarida qadim zamonlardan boshlab keng ishlataligan.

Bobil shahri Yevfrat daryosining ikki qirg'og'ida joylashgan bo'lib, shahar ikki qator baland devorlar bilan o'ralgan edi. Shaharning assosiy qismi daryoning chap sohilida joylashgan bo'lib, Ishtar nomli darvoza orqali shaharga kirilardi. Ishtar darvozasidan boshlanadigan ko'cha to'g'ri shaharning markaziga – Etemenanka zikkuratiga olib borgan. Etemenanka zikkurati tarixda Bobil minorasi nomi bilan mashhur bo'lib, uning balandligi 90 m, yerdagi asos o'lchamlari ham 91,5x91,5 m bo'lgan.

Qadimgi Eron arxitekturasi Mesopotamiya arxitekturasi an'analari asosida rivojlandi. Eron arxitekturasida, ayniqsa, ahamoniylar davri (e.a.VI – IV asrlar) va sosoniylar davri (e.a. I – eramizning V asrlari) katta ahamiyatga ega.

Arxitektura tarixida dunyoda birinchilar qatorida ravoqli va gumbazli konstruksiyalar sosoniylar davrida qurila boshlandi.

Ahamoniylar davridagi eng yirik imorat – bu Persepol shahridagi shoh qasri edi. Eramizdan oldingi 520 – 460-yillarda qurilgan bu qasr tog‘ yonbag‘rida joylashgan bo‘lib, 450x300 metr hududni egallagan. Qasrning asosiy qismi ko‘p ustunli zal – “apadana”dan iborat.

Balandligi 20 metrli ustunlar marmar toshlardan o‘yib tayyorlangan. Ustunlar baza va kapitelga ega bo‘lib, kapitellar yarim ochilgan gullar shaklida bo‘lgan va yuqori qismi volyuta shaklida ishlangan. Apadana zalini bezatishda turli rangli koshinlardan foydalanilgan.

Qadimgi Eron arxitekturasining yana bir rivojlanishi sosoniylar davriga to‘g‘ri keladi. Eramizning 223-yili Firuzobod shahrida qurilgan qasr bunga misol bo‘la oladi. Qasrning o‘lchamlari 55,5 x103,5 m bo‘lib, ichki hovli atrofida qurilgan shohning taxti o‘rnatilgan zal va shoh yashaydigan ichki xonalardan tashkil topgan.

Ktesifon shahrida qurilgan qasr o‘zining gumbaz va ravoqlari bilan ajralib turadi. Eramizning V asrida qurilgan qasr ayvonlari balandligi 37 metr kengligi esa 25,63 metrni tashkil qilgan. Eron arxitekturasida ravoqli va gumbazli konstruksiyalar ishlatilishi misli ko‘rilmagan darajada rivojlandi. Kvadrat asosli xonalarni gumbaz yordamida yopish juda keng tarqaladi va keyinchalik bunday usul Kavkazorti va ayniqsa, O‘rta Osiyo arxitekturasida ham qo‘llana boshlaydi.

O‘tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ikki daryo oralig‘i arxitekturasining shakllanish xususiyatlari nimadan iborat?
2. Zikkuratlar qanday inshoot?
3. Bobil shaharozligi xususiyatlari nimadan iborat?
4. Qadimgi Eron arxitekturasi qanday shakllangan?
5. Apadana zalining shakllanish xususiyatlari nimadan iborat?
6. Gumbaz va ravoqlar arxitekturasi qanday shakllangan?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.I – II (pod obshey redaksiyey B.P.Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya arxitektura v 12 tomakh. M., 1966 – 77 g.
3. Blavatskiy V. “Arxitektura Drevnego mira”. M., 1938 g.

4. Abdullayev N. San'at tarixi. 1, 2- j. Toshkent. 1979-y.
5. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni.
SamDAQI. 2000-y.

ANTIK ARXITEKTURA. QADIMGI YUNON ARXITEKTURASI

MA'RUZA REJASI:

1. Antik davr arxitekturasining shakllanishi.
2. Qadimgi Yunon arxitekturasi davrlari.
3. Yunon tosh ustuni – "order"larining kelib chiqishi.
4. Qadimgi Yunonda binolar turlari.
5. Afinadagi Akropol ansamblining shakllanishi.
6. Qadimgi Yunon arxitekturasida ellinizm davri.
7. Ellinizm davri shaharsozligi.
8. Turarjoy binolari kompozitsiyasi.
9. Jamoat binolari turlari.
10. Qadimgi yunon arxitekturasi ahamiyati.

TAYANCH IBORALAR:

Antik arxitektura. Yunon polislari. Ustunli konstruksiya. Order. Doriy, ioniy, toskan va korinf orderlari. Baza. Antablament. Modul o'lchovi. Ant. Sella. Portik. Prostil. Amfiprostil. Peripter. Parfenon. Erechteyon. Niki Apteros. Propilej. Akropol. Gippodam sistemasi. Agora. Pritaney. Bulevteriy. Stadion. Gimnasiy. Teatron. Orkestra. Peristil va pastada turarjоylari.

MA'RUZA MATNI


Qadimgi Yunon va Rim sivilizatsiyalari antik dunyo deb tan olinib, eramizdan avvalgi XII – VIII asrlardan eramizning IV – V asrlarigacha mavjud bo'lgan.

Qadimgi Yunon Bolqon yarim orolining janubiy qismida joylashgan bo'lib, alohida va mustaqil shaharlardan tashkil topgan edi. Yunon polislari dunyo tarixida birinchi demokratik respublikalar edi, chunki barcha fuqarolar bir xil huquqqa ega edi.

Qadimgi Yunon arxitekturasi uch davrdan iborat:

1. Arxaika davri (eramizdan avvalgi VIII – V asrlar).
2. Klassika davri (eramizdan avvalgi 480 – 320- yillar)
3. Ellinizm davri (eramizdan avvalgi 320-yil – eramizning I asrigacha).

Qadimgi Yunoniston geometriya, mexanika, statika kabi fanlarning vatani bo'lib, bu fanlar asosida injenerlik, mnyiqsal qurilish injenerligi



rivojlanadi. Qurilish injenerligi yutuqlari shaharlar, ko‘priklar, to‘g‘onlar va boshqa inshootlar qurilishida keng qo‘llaniladi. Qurilishda asosan xom va pishiq g‘isht, tabiiy tosh qo‘llanilgan. Bino va inshootlar yopilmasi asosan yog‘ochdan bajarilgan. Qadimgi Yunon arxitekturasida ustunli konstruksiyalardan foydalanilgan.

Yunon ustunli konstruksiyalari asosida yangi tektonik tizim yaratilib, bu tizim badiiy jihatdan yetuk kompozitsiya va konstruktiv jihatdan mustahkam tashkil qilingan. Order (*yunonchasiga* – “*tartib*”) deb nom olgan bu tizim oldin yog‘ochdan, keyinchalik esa tabiiy toshlardan yasalgan konstruksiyada o‘z ifodasini topgan. Yunon arxitekturasidagi klassik order binolarning yuk ko‘taruvchi va ustki yopilmalari orasidagi bog‘lanish va tartibini belgilaydi. Qadimgi Yunon arxitekturasida bunday tizim alohida turuvchi ustunlar va ular ustiga qo‘yiladigan yopilma – “antablament” dan iborat. Ustunlar o‘z navbatida poydevor “baza”ga ega. Klassik order tektonik tiziminining ikki qismi – badiiy va konstruktiv qismi o‘zaro uyg‘unlashtirilib, mutanosib shakllarga keltirilgan. Mutanosiblikning asosiy elementi modul o‘lchov birligi yaratilgan.

Uyg‘unlashtirish natijasida ikki order – “ioniy” va “doriy” turdag‘i ustunlar tizimi yaratilgan. Doriy orderi asosan Yunonistonning g‘arbiy qismida, ioniy orderi esa asosan sharqiy hududlarda rivojlangan. Doriy orderi o‘z tizimi bilan oddiy va mahobatli shaklga ega. Iony orderi yengil va nafis shaklga ega.

Order sistemasi eramizdan avval V asrda to‘liq shakllandi va bu sistema asosan ibodatxona va yirik jamoat inshootlari qurilishida qo‘llanildi. Masalan, order sistemasi Selinuntdag‘i ibodatxona, Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi va boshqa binolarda ishlatilgan.

Qadimgi Yunonistonda binolarning loyihibiy yechimi ham order sistemasi bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagicha rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan: “Ant” turi to‘g‘ri burchakli xona “sella” va uning oldida to‘rt ustunli “portik”lar yasalishi natijasida, “amfioprostil” turi esa “sella” ning ikki tomonidan “portik” joylashtirilishi va “peripter” turi “sella” atrofida to‘rt tomonidan ustunlar qo‘yilishi bilan hosil qilingan.

Arxaika va klassika davrlarida peripter turidagi binolar qurilishi Qadimgi Yunon arxitekturasidagi yutuqlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beradi. Afina shahridagi Akropol ansamblining qurilishi shu davrning eng yuksak yodgorligidir. Afina Akropoli asosan Parfenon, Erexteyon, Niki Apteros ibodatxonalarini va kirish qismi – Propileydan tashkil topgan.

Niki Apteros ibodatxonasi arxitektor Kallikrat loyihasi asosida eramizdan avvalgi 449-yilda qurilgan. Bu ibodatxona qurilishi afinaliklarning fors qo‘smini ustidan qozonilgan g‘alabasiga bag‘ishlangan. Amfi prostil tipidagi bu bino o‘lchamlari plan bo‘yicha $5,4 \times 8,14\text{ m}$ bo‘lib, ustunlarining balandligi $4,04\text{ m}$. O‘lchamlari katta bo‘lmagan bu bino

o'zining uyg'unlashgan ioniy order sistemasining har bir elementigacha aniq va mutanosib qilib ishlanishi bilan ajralib turadi. Baland poydevor ustiga qurilgan bu bino Akropolga yaqinlashish paytida mahobatli bo'lib ko'rindi. Afina xudosiga bag'ishlanib eramizdan avvalgi 447 – 438-yillarda Parfenon ibodatxonasi qurilgan. Akropoldagi eng katta bo'lган bu bino arxitektorlar Iktin va Kallikrat loyihasi asosida qurilib, peripter shakliga ega. Plandagi o'lchamlari 30,86x69,51 metr bo'lган ibodatxona Akropolning eng baland maydonchasida qurilgan va atrof muhitda eng katta bino bo'lган. Ibodatxona sella atrofini 46 ustun bilan o'ragan bo'lib, ustunlarning balandligi 10,43 metr va diametri 1,905 metrni tashkil qildi. Sella ichki tuzilishi ikkita katta zal – to'g'ri burchakli va kvadrat shaklidagi xonalardan iborat. "Parfenon" degani yunonchasiga "Qizlar xonasi" ma'nosini belgilaydi. Parfenonda Afinaning eng go'zal va mohir qizlari, "peplos" (yunoncha gilam) to'qib, bu gilam har yili panafineya bayrami payti Afina xudosiga taqdim qilingan. To'g'ri burchakli zal ichida Afina xodosi haykali o'rnatilgan edi. Ibodatxona tashqi ayvonlari doriy ustunlari bilan bezatilgan. Ustunlar o'zining mahobatli va chirolyi shakllari bilan stilobat va antablamentga uyg'unlashtirilgan. Qadimgi Yunon arxitekturasi durdonasi sanalgan Parfenon o'zining mahobatli shakllari, alohida qismlarining nafis qilib ishlanishi, order sistemasining badiiy-kompozitsion sifatlarining yuksak darajada ustalik bilan ifodalanishi bilan ajralib turadi.

Erextyon ibodatxonasi Akropolda qurilgan eng so'nggi bino bo'lib, eramizdan avvalgi 421 – 408-yillarda qurilgan va plandagi o'lchamlari 11,63x23,5 metrni tashkil qildi. Bu ibodatxona ikki sathda joylashgan bo'lib, bir qismi Afina xudosiga, ikkinchi qismi esa Poseydon xudosiga bag'ishlangan. Asosiy kirish ayvonlari – portiklar ioniy orderlari bilan bezatilgan. Parfenonga qaratilgan tomonda ham portik qurilgan bo'lib, undagi ustunlarga qizlar shakli berilgan. Erextyon ibodatxonasi o'zining assimetrik kompozitsiyasi, kirish ayvonlari yechimi, ioniy orderlarining yengil va nafis shakli bilan xarakterlanadi.

Akropolga kirish qismi – Proniloyey eramizdan avvalgi 437 – 432-yillari arxitektor Mnesikl loyihasi asosida qurilib, ikki ayvon – doriy orderli g'arbiy va sharqiy portik va ular o'rtasidagi ikki qator ioniy ustunlariga ega kirish xonasidan tashkil topgan.

Propiley to'g'risiga Afina xudosining haykali o'rnatilib, Akropol ansamblining vertikal kompozitsion markazi sifatida haykaltarosh Fidiy tomonidan ishlangan.

Arxaik va klassik davrlarda Afina Akropolidan tashqari yana bir qancha yirik ansamblar yaratilgan. Masalan, Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi, Delfadagi Appolon ibodatxonasi, Selinunt va Poseydondagi ibodatxonalar komplekslari shular jumlasidan. Ammo eramizdan avvalgi

IV asrdan boshlab ibodatxonalar qurilishi kamayadi va jamoat binolari – agora (savdo markazi), teatron va shahar tarkibida katta ahamiyatga ega boshqa bino va inshootlar qurilishi keng tarqaladi.

QADIMGI YUNON ARXITEKTURASI. ELLINIZM DAVRI VA SHAHARSOZLIKNING RIVOJLANISHI

Qadimgi Yunon shaharsozligi jamiyat sotsial tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy va xususiy funksiyalar uchun mo‘ljallangan aniq tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Shahar ijtimoiy markazi – “agora” deb nomlanib, katta maydon va bir necha jamoat binolaridan tashkil topgan va jamoat marosimlari o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ular orasida shahar hokimiyyati binosi – “pritaney” va jamoat yig‘inlari zali – “bulevteriy” o‘zining mahobatli shakli va o‘lchamlari bilan ajralib turadi. Shaharlarda, shuningdek, jismoniy mashqlar va musobaqalar o‘tkazish uchun gimnasiy va stadionlar qurilgan. Masalan, Afina, Olimpiya va Epidavrdagi stadionlar. Qadimgi Yunonistonda Olimpiya o‘yinlariga asos solingan. Stadionlar asosan tabiiy chuqurlikdan foydalanilgan holda yasalgan. Qadimgi Yunoniston shaharlarida turli tomoshalar uchun ochiq teatr inshootlari qurilgan. Teatr inshooti uchun odatda tog‘oldi qoyalaridan foydalanib, o‘rindiqlar yarim ayiana shaklida toshlardan tayyorlanib, sahna vazifasini bajaruvchi aylana maydoncha – “orxestra” balandroq qilib joylashtirilgan. Epidavrdagi eramizdan avvalgi IV asrda qurilgan teatr diametri 115 metrni tashkil qiladi. Priyenadagi e.a. III asrda qurilgan va Pergam shahridagi eramizdan avvalgi II asrda qurilgan teatr inshootlari hozirgacha saqlanib kelgan.

Jamoat binolari kompozitsion jihatdan ochiq turda qurilishiga qarama-qarshi xususiy turarjoy binolari yopiq kompozitsion xususiyatga ega. Turarjoy binolari asosan ichki hovli atrofida joylashtirilib, bino oldida ayvonlar qurilgan. Shuning uchun bu turdagи turarjoy “peristik” xilidagi imorat nomini olgan. Peristik turi asosan ellinizm davrida rivojlangan. Undan oldin esa “pastada” turidagi turarjoy imorati ham ichki hovli atrofida qurilib, faqat shimal tomonidan ustunli ayvonga ega. Odatda turarjoy imoratlari guruhshtirilib, kvartallarga birlashgan.

Arxaik va klassik davrda shaharsozlikda erkin joylashtirish keng tarqalgan bo‘lib, bunga Afina shahri joylashuvi misol bo‘la oladi. Ellinizm davrida esa shaharsozlikda to‘g‘ri burchakli bo‘linishga asoslangan “Gippodam” sistemasi keng tarqaladi. Bu sistema bo‘yicha ko‘chalar geometrik shakli to‘g‘ri qilib olinadi, bir yoki ikki ko‘cha o‘zining kengligi va ahamiyati asosida asosiy qilib tanlanib, jamoat markazlari shu ko‘chalarda

joylashtiriladi. Shahar atroflari baland qal'a devorlari bilan o'ralib, darvozalar mustahkamlanadi. Bu davrda shaharlar sopol quvurlar orqali suv bilan ta'minlanadi va yerosti kanalizatsiya ariqlari ishlataligan suvni shahardan tashqariga olib chiqadi. Bu ishlar natijasida shaharlar obodonchiligi yuqori darajaga yetkaziladi. Aleksandriya, Priyena, Milet, Olinf, Pergam shaharlari aholisi qariyb 500 ming kishini tashkil qilgan.

Shaharsozlik rivojlanishi, asosan, Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurish va g'alabalari natijasida Yunonistonga katta boylik keltirilishi bilan bog'liq edi. Buning natijasida esa shaharda joylashgan bino va inshootlar turlarida ham katta o'zgarishlar amalga oshiriladi. Savdo markazlari – "agora" atrofi ustunli ayvonlar bilan o'raladi, shahar markazida jamoat binolari – yig'inlar o'tkaziladigan zal – "bulevteriy", mahalliy hokimiyat binosi – "bulevteriy", mакtablar, kutubxona binolari mahobatli qilib quriladi. Bino va inshootlar shakli va kompozitsion tuzilishi boshqa (zabt etilgan xalqlar) arxitekturasi yutuqlari bilan qo'shib, yangicha ko'rinish hosil qiladi. Klassik order sistemasida ham o'zgarishlar amalga oshiriladi. Doriy order sistemasi o'rnini ioniy order sistemasi va korinf order sistemasi egallaydi. Order sistemalarida sharq arxitekturasi uslublari qo'llaniladi.

Ellinizm davrida binoning badiiy xususiyatlari ko'proq erkin kompozitsiya, antiqa g'oyalar va turli haykallar bilan bezatilishi sababli xarakterlanadi. Masalan, Pergam shahridagi Zevs ibodatxonasi. Bu bino eramizdan avvalgi 180-yilda qurilgan bo'lib, binoning pastki devor qismi to'liq haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan.

Afinadagi Shamol minorasi, Bassadagi Appolon ibodatxonasi va boshqa binolarda order sistemasi ishlatalishida bir qancha yangiliklar kiritiladi. Ustunlar kapiteliga akant o'simligi shakli berilgan bo'lib, natijada korinf order sistemasi yaratilgan.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Antik davr madaniyati, san'ati va arxitekturasi xususiyatlari nimadan iborat?
2. Qadimgi Yunon arxitekturasining rivojlanish davrlari asosiy tavsifi.
3. Qadimgi Yunon falsafasi va fani rivojlanishi.
4. Order sistemasining konstruktiv va badiiy xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Ikki asosiy order turlari tavsifi.
6. Yunon arxitekturasida ansambl va komplekslar shakllanishi.
7. Gippodam sistemasi nimadan iborat?
8. Turarjoy uylari xususiyatlari nimadan iborat?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.1. – II (pod obshey redaksiyey B.P.Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomox. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M., "Izobrazitelnoye iskusstvo", 1980 g.
4. Blavatskiy V. "Arxitektura Drevnego mira". M., 1938 g.
5. Bunin A.V., Savarenskaya G.F. "Istoriya gradostroitelnogo iskusstva". M., 1979 g.
6. Abdullayev N. San'at tarixi. 1, 2- j. Toshkent. 1979.
7. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

QADIMGI RIM ARXITEKTURASI

MA'RUZA REJASI:

1. *Qadimgi Rim arxitekturasining rivojlanish davrlari.*
2. *Qadimgi Rim arxitekturasining nazariy asoslari.*
3. *Qadimgi Rim arxitekturasiga yunon arxitekturasi ta'siri.*
4. *Qadimgi Rim arxitekturasida gumbaz va ravoqlar.*
5. *Qadimgi Rim qurilish ashyolari va texnikasi.*
6. *Rim arxitekturasida order sistemalari.*
7. *Orderli arkada tektonik strukturasi.*
8. *Rim arxitekturasida binolar va arxitekturaviy ansamblar.*
9. *Qadimgi Rim shaharsozligi.*
10. *Qadimgi Rim arxitekturasining ahamiyati.*

TAYANCH IBORALAR:

Respublika davri. Imperiya davri. Kanselyariya binosi. Bazilika. Amfiteatr. Terma. Arka. Kolonna. Forum. Ravoqli va gumbazli konstruksiyalar. Beton konstruksiyasi. Suvoglash. Akveduk. Kompozit orderi. Orderli arkada. Romanium forumi. Troyan forumi. Troyan kolonnasi. Tit va Konstantin arkasi. Palatin qasri. Kolizey amfiteatri. Karakalla va Diokletian termalari. Panteon ibodatxonasi. Konstantin bazilikasi.

MA'RUZA MATNI

Qadimgi Rim arxitekturasi Qadimgi Yunon arxitekturasi an'analari asosida rivojlanib, asosan 2 davrdan iborat. Respublika davri – eramizdan avvalgi IV asrdan eramizdan avvalgi 30-yillargacha, imperatorlik davri – eramizdan avvalgi 30-yillardan eramizning V asrigacha.

Eramizdan avvalgi IV asrdan boshlab Rim respublikasi kichik bir shahardan katta quldorchilik davlatiga aylandi. Rim shahrining o'zida esa qariyb 1 million aholi yig'ilib, bu shaharda butun dunyo iqtisodiy va siyosiy hayoti taqdiri hal qilinadi. Rim respublikasi atrofidagi xalqlarni o'ziga bo'ysundirish natijasida yirik davlat hosil bo'lib, bu davlatni boshqarish va himoya qilish uchun ma'muriy va harbiy tizimlarning murakkab tuzilishi yaratildi. Buning uchun yangi shaharlarga asos solindi, harbiy ehtiyojlar uchun qal'a va ko'priklar, yo'l va istehkomlar qurildi. Savdo aloqalarini rivojlantirish natijasida kemasozlik ravnaq topib, dengiz bandargohlari va omborxonalar qurilishi rivojlandi. Shaharlarda ko'p miqdorda jamoat binolari – kanselyariy, arxiv, bazilika, teatr va amfiteatr, sirk va terma binolari, maqbaraviy inshootlar – arka, kolonna va boshqa binolar qurilib, shahar maydonlari – forumlar shakllandi. Respublika davrida Rim arxitekturasining assosiy xususiyatlari shakllanib, imperatorlik davrida mahobatli qasrlar, yirik jamoat binolari qurilishi rivojlandi.

Rim arxitekturasi nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo'lib, Vitruviyning "Arxitektura haqida 10 kitob" asari unga misol bo'la oladi. Vitruviyning bu asari eramizdan avvalgi I asrdan yozilgan bo'lib, bizgacha yetib kelgan me'morchilik to'g'risidagi ilk kitoblardan. Bu asar arxitektura va qurilish sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan holda XX asr boshlarigacha keng ishlataligan nazariy va amaliy qismlardan iboratdir. Vitruviyning asari quyidagi kitoblardan iborat.

- 1-kitob – Shaharsozlik va inshootlar turlari;
- 2-kitob – Qurilish ashyolari;
- 3-4 kitob – Order sistemalari va ibodatxonalar qurilishi;
- 5-kitob – Jamoat binolari qurilishi;
- 6-kitob – Turarjoy uylari qurilishi;
- 7-kitob – Suvoq va bezak ishlari;
- 8-kitob – Akveduklar va suv ta'minoti;
- 9-kitob – Quyosh va suv energiyasidan foydalanish;
- 10-kitob – Qurilish mexanikasi va uskunlari.

O'zining bu asarida Vitruviy Qadimgi Yunon arxitekturasi an'analari va o'zidan oldin o'tgan mualliflar asarlaridan keng foydalangan. Masalan, Rimda yashagan Varron ismli olim "To'qqiz fan haqida" degan asarining 1-kitobini arxitekturaga bag'ishlagan.

Vitruviy arxitektura nazariyasi haqida o'z fikrini bayon qilib, arxitektura asosan uch qirrali faoliyatni, ya'ni mustahkamlik, foydalik va go'zallik kabi xislatlarni o'z ichiga qamrab olishini yozgan.

Qadimgi Rim arxitekturasida devorli va ustunli konstruksiyalar ishlatalishi bilan bir qatorda, ravoqli va gumbazli konstruksiyalar ham keng ishlatala boshlandi. Rim arxitekturasida ravoqli va gumbazli

konstruksiyalar tarqalishi etrussklar arxitekturasida eramizdan avvalgi VIII – V asrlarda ishlatilgan. Rim shahriga ham etrussklar tomonidan eramizdan avvalgi VIII asrda asos solingan. Shahar, asosan, uch tepalik – Kapitoliy, Palatin va Kvirinal oraliq‘ida joylashgan.

Rim arxitekturasida asosan pishiq g‘isht va tabiiy tosh bloklari ishlatilgan. Eramizdan avvalgi II asrdan boshlab Rim arxitekturasida beton tayyorlash va undan foydalanish keng tarqaldi. Betondan foydalanish arxitektor va quruvchilar imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Beton devorlarni ko‘tarishda, ravoq va gumbazlarni qurishda qo‘llaniladigan asosiy materialga aylandi. Gumbazli konstruksiyalardan asosan silindrik va yarim sfera shaklidagi gumbazlar keng tarqaldi. Bu turdag‘i gumbazlar qurilishi uchun pishiq g‘ishtdan gumbaz qovurg‘alari terilib, ular orasi esa beton qorishmasi bilan to‘ldirilgan.

Binolar ustki yopilmasi uchun Rim arxitekturasida yog‘ochli konstruksiyalardan ham keng foydalanilgan. O‘lchamlari katta binolarning yopilmasi yog‘och fermalari yordamida yopilgan. Yog‘och konstruksiyalari, shuningdek, ko‘prik qurilishida ham keng qo‘llanilgan. Masalan, Dunay daryosi ustida qurilgan Troyan ko‘prigi yog‘och fermalaridan yasalgan.

Rim arxitekturasida binolar devorlarini suvoqlash va turli ranglarga bo‘yash keng qo‘llanilgan.

Rim arxitekturasida order sistemalari asosiy badiiy ifodalanish vositasi sifatida ishlatilgan. Qadimgi Yunoniston an‘analari asosida Rim arxitekturasida orderlarning besh turi ishlatilgan: toskan, doriy, ioniy, korinf va kompozit turlari.

Toskan orderi o‘zining tuzilishi bilan oddiy va shakli bo‘yicha og‘ir nisbatlarga ega.

Rim doriy orderi yunon doriy orderiga nisbatan nafisroq qilib ishlangan va chiroyli baza ustiga qo‘yilgan.

Rim ioniy orderi shakli va nisbatlari bo‘yicha yunon an‘analariga to‘liq amal qilgan holda ishlatilgan.

Korinf orderi Rim arxitekturasida eng ko‘p tarqalgan order turiga aylandi. Bu order nafis nisbatlari va chiroyli kapiteli bilan ajralib turadi.

Kompozit orderi Rim arxitekturasida ishlab chiqildi va o‘zida ioniy va korinf orderlari xususiyatlarini birlashtirdi.

Rim arxitektorlari binoning kichik yoki kattaligiga qarab hamda bino obrazini badiiy ifodalash vazifalariga qarab tantanali va ulug‘vor yoki unga teskari oddiy va mahobatli qilib ko‘rsatish uchun orderlarning turli xilidan foydalanishgan. Masalan, toskan va doriy orderlari asosan kichik va ahamiyatga ega bo‘lmagan binolarda ishlatilgan, ammo korinf va kompozit orderlari esa tantanali va dabdabali jamoat binolari qurilishida ishlatilgan.

Rim arxitekturasida “orderli arkada” nomli yangi tektonik tarkib keng tarqaladi. Bu sistemada ustunlar yuk ko‘taruvchi konstruksiya sifatida emas, faqatgina bezatuvchi element sifatida xizmat qiladi. Ko‘p qavatli binolarda orderli arkadaning birinchi qavati toskan yoki doriy orderlaridan, yuqori qavatlari esa ioniy va korinf orderlaridan bajarilgan.

Rim arxitekturasida ustunli-ravoqli arkada yangi tektonik va konstruktiv sistema sifatida keng tarqaladi. Bu konstruktiv sistema tarqalishi, asosan, Sharq mamlakatlari arxitekturasi ta’siri ostida amalga oshadi. Bu turdag'i konstruksiya Splitdagi Diokletian qasri va Efesdagi Adrian ibodatxonasida birinchi marta ishlatilgan.

RIM ARXITEKTURASIDA BINOLAR VA ARXITEKTURAVIY ANSAMBLLAR

Rim arxitekturasida shaharning asosiy maydonlari – forumlar shakllanishi alohida ahamiyatga ega. Forum – bu savdo markazi va xalq yig‘inlari o‘tkaziladigan maydon. Forum bo‘ylama o‘q bo‘yicha rivojlanuvchi kompozitsiyaga ega bo‘lib, bo‘ylama o‘q bo‘yicha ibodatxona qurilgan. To‘g‘ri burchakli planga ega ibodatxona forum kompozitsiyasida asosiy element bo‘lib xizmat qiladi. Ibodatxonaning kirish qismi odatda ayvonga ega bo‘lib, bu ayvon kolonnalari ioniy, korinf va kompozit orderlarida bajarilgan. Rimdag'i imperator Troyan forumi arxitektor Apollodor Damsskiy loyihasi asosida eramizning 112–117-yillarida qurilgan. Troyan forumida ibodatxonadan tashqari yana katta zal – o‘lchamlari $55 \times 159\text{ m}$ bo‘lgan bazilika va maydonning ikki tomonidan simmetrik tarzda kutubxona binolari qurilgan. Maydon markazida Troyan kolonnsasi qurilib, uning balandligi 38 m . Kolonnaning marmar yuzasi imperator Troyanning harbiy yutuqlarini tasvirlovchi va 2500 figuradan tashkil topgan barelyef bilan qoplangan. Forumga kirish joyi tantanali Arka inshooti bilan bezatilgan. Tantanali Arka – peshtoqli xotiraviy inshootlar Rim arxitekturasida keng tarqalgan bo‘lib, Tit arkasi va Konstantin arkasi bunga misol bo‘la oladi.

Rimdagi yana bir mashhur forum – Romanium forumi ham Troyan forumiga o‘xshash kompozitsiyaga ega.

Forumlardan tashqari, imperator qasri ham o‘zining arxitekturaviy-kompozitsion xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Masalan, imperatorning Palatin qasri ichki hovli atrofida qurilgan bir necha yirik binolardan tashkil topgan. Asosiy xona – Taxtli zal $29,3$ metrli silindrik gumbaz bilan yopilgan va uning balandligi 44 metrni tashkil qilgan.

Rim arxitekturasida amfiteatrlar qurilishi ham keng tarqaladi. Amfiteatrlar asosan teatrlashtirilgan tomoshalar va gladiatorlar janglari

o'tkaziladigan joy edi. Rimdag'i Kolizey amfiteatri eramizning 75 – 80-yillarida qurilgan bo'lib, 50 ming tomoshabin o'rinaliga ega. Kolizey ellips shakliga ega bo'lib, o'qlar bo'yicha o'lchamlari 156x188 metr va balandligi 48,5 metrni tashkil qildi. Kolizey asosan tabiiy tosh va betondan qurilib, besh qavatli orderli devor bilan o'ralgan. Kolizey ichki tuzilishi 80 ta radial (markazga yo'naltirilgan) ustunli devordan iborat.

Rim arxitekturasida Terma binolari shakllanishi alohida e'tiborga molik. Terma – shaxsiy gigiyena va sport bilan shug'ullanish uchun mo'ljallangan ko'p funksiyali murakkab kompleks. Terma kompleksning asosiy zallari cho'milish havzalari – basseynlarga ega. Basseynlar har xil haroratli: sovuq, iliq va issiq suv bilan ta'minlangan. Rim shahrining o'zida 11 ta yirik imperator termalari va 800 taga yaqin kichikroq termalar qurilgan. Ular orasida eng mashhurlari Karakalla termalari (206 – 216-yillarda qurilgan) va Diokletian termalari (306-yilda qurilgan)dir. Karakalla termalari 363x535 metr yer maydonida joylashgan bo'lib, asosiy zal o'lchamlari 216x120 metrdan iborat. Termalar zallari asosan beton gumbazlari bilan yopilgan. Termalar asosiy zallaridan biri albatta aylana shaklida qurilib, gumbaz bilan yopilgan. Karakalla termasining aylana zali diametri 34 metrga teng.

Rimdag'i Panteon ibodatxonasining asosiy zali ham aylana shaklida qurilib, diametri 43,2 metrli gumbaz bilan yopilgan. Rotonda turidagi bu ibodatxona arxitektor Apollodor Damasskiy loyihasi asosida qurilgan. Panteonning sferik shakl gumbazi pishiq g'isht va betondan monolit qilib qurilgan va qalinligi 6 metrli devorlar ustiga qo'yilgan. Panteon badiiy obrazi katta gumbazli markaziy kompozitsion tuzilishga ega yagona zal va uning oldida qurilgan korinf orderli kolonnalardan hosil qilingan. Kolonnalar balandligi 14 metrdandir.

Eramizning IV asrlaridan boshlab Rim arxitekturasida bazilika turidagi binolar qurila boshlandi. Bazilika to'g'ri burchakli bo'ylama o'q asosida rivojlanuvchi kompozitsion tuzilishga ega. Bazilikalar turli yig'ilishlar va tribunal majlislari o'tkaziladigan bino bo'lib, uning ichki tuzilishi ustunlar yordamida uch yoki besh qismga – neflarga bo'lingan. Rimdag'i Pyotr bazilikasi va Konstantin bazilikasi bunga misol bo'la oladi. Konstantin bazilikasi 312-yilda qurilgan bo'lib, uch nefdan tashkil topgan. Markaziy nef yon neflarga nisbatan kengroq, ya'ni $23,5\text{ m}$ kenglikda va balandroq – 35 metr balandlikka ega bo'lib, uzunligi 80 m . O'rtadagi nef o'zaro kesishuvchi ravoqli gumbazlar bilan, yon neflar esa silindrik gumbazlar bilan yopilgan.

Rim davlatida shaharlar ma'muriy-madaniy va savdo-hunarmandchilik qismlaridan tashkil topgan. Shaharlar asosan yunon shaharsozligi an'analari asosida loyihalanib, to'g'ri burchakli loyihalash asosida qurilgan.

Shahar asosini tashkil qiluvchi turarjoy binolari asosan atrium (ichki hovli) atrofida peristil (ustunli ayvonlar) bilan o'ralgan shaklga ega.

Turarjoyning oldingi qismida usti ochiq atrium joylashib, uning atrofida yashash xonalari joylashgan. Atriumdan keyin markazida suv havzasi bo'lgan ayvonli peristil joylashgan.

Rim davlati shaharlari markazida asosiy maydon forum joylashtirilib, forum atrofida turli jamoat binolari – ibodatxona, kutubxona, terma va boshqa binolar joylashtirilgan. Forumdan boshlangan asosiy ko'chalar kengligi 12 – 13 metrni, boshqa ko'chalar kengligi 2 – 3 metrni tashkil qilgan. Ko'chalar tabiiy toshlardan tayyorlangan plitalar bilan qoplangan.

Rim shahrda ko'p qavatli turarjoy binolari ham qurilib, 3 – 4 qavatdan tashkil topgan va balandligi 18 – 21 metr bo'lgan. Bunday binolarning birinchi qavatida odatda savdo do'konlari joylashtirilgan.

Rim davlati shaharlarini suv bilan ta'minlash uchun "akveduk"lar qurilgan. Akveduklar, asosan, tabiiy toshlardan ochiq lotoklar shaklida yasalgan. Daryo yoki boshqa pasqam joylarda akveduklar ravoqli qurilmalar ustidan o'tkazilgan. Masalan, Rim shahrini suv bilan ta'minlaydigan Marsiy akveduki e.a. 144-yili qurilgan.

Nim shahrda qurilgan akveduk texnik va arxitekturaviy jihatdan injenerlik qurilmalarining yaxshi namunalardan hisoblanadi. Eramizdan oldingi II asrda qurilgan bu akveduk Gard daryosini kesib o'tuvchi joyida uzunligi 275 metr bo'lgan ravoqli ko'priq orqali o'tadi. Ravoqlarning kengligi 24,5 m va balandligi 49 metrni tashkil qiladi. Akveduk ko'prigi ustunlari va ravoqlari tabiiy toshdan o'yib yasalgan.

III – IV asrlarga kelib Rim davlatining ijtimoiy va iqtisodiy tanazzuli boshlanadi. Buning natijasida savdo va hunarmandchilik, madaniyat va san'at sohalarida ham umumiy pasayish kuzatiladi. Qurilish to'xtab qolganligi sababli, arxitektura rivojlanishi ham to'xtaydi.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Rim arxitekturasi necha davrdan iborat?
2. Vitruviy qanday asar yozgan?
3. Qadimgi Rim order sistemasi qanday xususiyatlarga ega?
4. Qadimgi Rim arxitekturasida qanday yangi qurilish ashyolari va konstruksiyalari ishlataligan?
5. Forum ansamblarining shakllanish xususiyatlari.
6. Kolizey amfiteatri tuzilishi qanday?
7. Terma binolarining asosiy vazifalari nima?
8. Bazilika turidagi binolar qanday shakllangan?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.I – II (pod obshey redaksiyey B.P.Mixaylova). M., 1958 – 63 g.

2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M., “Izobrazitelnoye iskusstvo”. 1980 g.
4. Blavatskiy V. “Arxitektura Drevnego mira”. M., 1938 g.
5. Bunin A.V., Savarenskaya G.F. “Istoriya gradostroitelnogo iskusstva”. M., 1979 g.
6. Abdullayev N. San'at tarixi. 1, 2-j. Toshkent. 1979.
7. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

FEODALIZM DAVRI ARXITEKTURASI. VIZANTIYA ARXITEKTURASI

MA'RUZA REJASI:

1. Rim imperiyasi tarqalishi va feodal davri boshlanishi.
2. Feodal davri arxitekturasining asosiy xususiyatlari.
3. Vizantiya arxitekturasining shakllanishi va davrlari.
4. Vizantiya arxitekturasida gumbazli bazilika.
5. Konstantinopoldagi Ayya Sofiya ibodatxonasi arxitekturasi.
6. Markaziy kompozitsiya asosidagi ibodatxonalar.
7. Salb-gumbazli ibodatxonalar shakllanishi.

TAYANCH IBORALAR:

Feodal munosabatlar. Xristian dini. Mustahkamlangan qal'a va shaharlar. Monastir komplekslari. Ibodatxonalar. Gumbazli bazilika. Markaziy kompozitsiya. Salb-gumbazli sistema. Yelkanli konstruksiya.

MA'RUZA MATNI

IV asr oxirida, ya'ni 395-yilda Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linadi. Bu hodisa bilan feodal ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishiga asos solinadi. Rim imperiyasining tarqalishi bilan Qadimgi dunyo tarixiga xotima beriladi. Quldarlik jamiyatni tugatilishida xristian (nasroniy) dinining keng tarqalishi ham katta ahamiyatga ega. Xristian dini imperatorlik hokimiyati tomonidan 313-yilda tan olindi va 382-yildan boshlab davlat dini sifatida e'tirof etildi.

Insoniyat tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish sohalarida yangi davr boshlandi. Bu davr feodal munosabatlarining shakllanishi bilan bog'liqidir. Feodal munosabatlari imperianing sharqiy qismi – Vizantiyada tezroq shakllana boshladı. Imperiya poytaxtining 330-yilda

Rimdan Bosfor dengizi bo'yiga – Konstantinopol (hozirgi Istanbul) shahriga ko'chirilishi ham bu jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Vizantiya madaniyati va arxitekturasi antik madaniyat an'analarini va sharq davlatlari madaniyati ta'siri ostida shakllana bordi. Vizantiya arxitekturasida Rim arxitekturasi va Sharq arxitekturasi elementlari uyg'unlashadi.

Feodal davri arxitekturasida umuman olganda uch asosiy tipologik xususiyatni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Mustahkam devorlar bilan o'ralgan shahar va qal'alar qurilishi.
2. Monastir komplekslari qurilishi.
3. Asosiy diniy inshoot – ibodatxonalar qurilishi.

Feodal davri – o'rta asrlarda din tarqalishi bilan ibodatxona va boshqa diniy komplekslar qurilishi keng tarqaladi va bu turdag'i binolar jamoat binolari orasida yetakchi o'rin tutadi. Bunday binolar diniy marosimlar o'tkazilishi bilan bir qatorda jamoat yig'inlari o'tkazish uchun ham xizmat qiladi. Ibodatxonalar qoshida muktab va kutubxonalar, kasalxonalar va boshqa davolanish muassasalari tashkil qilinadi.

Rim imperiyasining G'arbiy qismida xristian dinining katolitsizm yo'nalishi, Vizantiyada esa pravoslaviye keng tarqaladi. Buning natijasida arxitekturada ham o'ziga xos badiiy xususiyatlar shakllanadi. Buning asosiy ifodasi sifatida G'arb madaniyatida bazilika tipidagi binolar, Sharqiy madaniyat – Vizantiya arxitekturasida esa gumbazli bazilika turidagi binolar keng tarqaladi.

IV asr oxirida Rim imperiyasi bo'linishi va imperator Konstantin tomonidan poytaxt qilib Vizantiyadagi Konstantinopol shahrining qurilishi natijasida yangi davlat va yangi madaniyatga asos solinadi.

Vizantiya arxitekturasi asosan uch davrdan iborat rivojlanish yo'lini bosib o'tgan:

1. Erta Vizantiya arxitekturasi davri (V– VIII asrlar).
2. O'rta Vizantiya arxitekturasi davri (VIII – XIII asrlar).
3. Kech Vizantiya arxitekturasi davri (XIII – XV asrlar).

Arxitektura rivojlanishi uchun eng qulay sharoit imperator Yustinian davri bo'lib, bu davrda, ya'ni VI asrning 20–60-yillarda Vizantiya buyuk davlatga aylanadi. Vizantiya davlati tarkibiga Gretsiya va Kichik Osiyo, Yaqin va O'rta Yer dengizi xalqlari kiradi.

Vizantiya arxitekturasida gumbazli kompozitsiyaga ega ibodatxonalar ishlab chiqiladi. Bu asosda gumbazli bazilika, 8 tayanchga ega markazlashgan kompozitsiyali ibodatxona va salb-gumbazli sistemaga ega ibodatxonalar turlari yaratiladi. Birinchi va ikkinchi turdag'i kompozitsiyalar Erta Vizantiya arxitekturasi davrida, uchinchisi esa O'rta Vizantiya arxitekturasi davrida yaratilgan.

Vizantiya arxitekturasida monastir komplekslari ham o'ziga xos arxitekturaviy ansambl sifatida shakllandi. Shahar tashqarisida qurilgan

bunday ansamblar baland joyda qurilib, devorlar bilan o'ralgan va ibodatxona, yashash xonalari va boshqa inshootlardan tashkil topgan.

Vizantiya arxitekturasi Rim arxitekturasidan ravoq va gumbaz konstruksiyalarni qurish an'analarini olgan. Ammo Vizantiyada beton texnikasi keng tarqamadi. Devorlar va gumbazlar asosan pishiq g'isht va tabiiy toshlardan yasalgan. Vizantiyaliklar kvadrat asosli binoning gumbaz yopilmasi uchun Sharq mamlakatlarida ishlab chiqilgan usul — tromplardan foydalanishgan.

Vizantiyalik arxitektorlarning eng katta yutug'i — bu gumbazli yelkanli konstruksiyalarning to'rt tayanchga qo'yilishi. Yelkanli gumbazlar sferik yuzaning to'rt tekislik bilan kesilishi va to'rt tayanch nuqtasiga tayanishi bilan hosil qilinadi. Yarim sferik yelkanlar ustiga gumbaz o'rnatiladi. Bu konstruksiya rivojlanishi bilan ustki gumbaz va yelkanlar orasida silindrik shakl doira (baraban) o'rnatiladi va doirada yoritish uchun teshiklar qoldiriladi.

Bunday konstruktiv sistemaning ishlatilishi bino ichki ko'rinishini kengaytirishga imkon yaratdi, chunki ichki devorlar o'rniga to'rt ustun ishlatiladi. Ravoqlarning o'zaro uyg'unlashtirilgan tizimi gumbaz ostida keng va baland ichki fazo yaratilishiga imkon yaratdi.

Vizantiyada gumbazlar pishiq g'ishtdan tez qotadigan semyanik qorishma yordamida qurilgan. Semyanik qorishma tayyorlash uchun g'isht sinqlari mayda qilib yanchilgan va ohak bilan aralashtirilgan.

Vizantiyada yaratilgan yangi konstruktiv sistemalarning badiiy jihatdan ifodalanishida qadimgi yunon an'analaridan keng foydalanildi. Qadimgi Yunon arxitekturasiga xos bo'lган bino kompozitsiyasida uning konstruktiv shaklini ifodalash usuli asosiy prinsipga aylandi. Badiiy ifodalashning asosiy vositalari sifatida konstruktiv elementlar — ravoqlar, ravoqli arkadalar xizmat qiladi.

Vizantiya arxitekturasida ustunli ravoqlardan ham keng foydalaniladi. Rim arxitekturasida ishlab chiqilgan bu konstruktiv sistema Vizantiya arxitekturasida yanada nafisroq qilib ishlanadi va yengil chiroyli nisbatlari bilan xarakterlanadi. Vizantiyada markazlashgan kompozitsiya tarqalishida gumbazli binolar qurish an'analarini ta'sir ko'rsatdi. Masalan, 510 — 515-yillari qurilgan Esrdagi cherkov, 569—586-yillari qurilgan Rusafdag'i cherkov. To'rt tayanchli gumbazli binolar paydo bo'lishi ham bu kompozitsion usul shakllanishida katta ahamiyatga ega. Masalan, Siriyaning Basra shahrida 513-yilda qurilgan cherkov.

Konstantinopolda 527-yilda qurilgan Sergiy va Vakx ibodatxonasi Markaziy kompozitsiya asosida qurilib, sakkiz ustunga tayangan gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz binoning asosiy kompozitsion elementi bo'lib, gumbaz osti fazoning tashkil etilishi diniy marosimlar o'tkazishning asosiy joyi sifatida tashkil qilingan.

Vizantiya arxitekturasining eng yuksak namunasi – Ayya Sofiya ibodatxonasi Konstantinopol shahrida 532–537-yillarda yunon arxitektorlari Trall shahridan bo‘lgan Anfimiy va Milet shahridan chiqqan Isidor loyihasi asosida qurilgan.

Ibodatxona planda 74,8x69,7 metr o‘lchamli to‘g‘ri burchak shaklida bo‘lib, diametri 31 metrlik gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz yelkanli ravoqlar ustiga qurilgan va ravoqlar balandligi 23 metr bo‘lgan ustunlar ustiga tayanadi. Gumbaz asosini pishiq g‘ishtdan terilgan 40 ta qovurg‘a tashkil qiladi va gumbaz uchidagi aylana tasmaga borib taqaladi. Qovurg‘alar oralig‘i yengil pemza toshdan tayyorlangan sirtlar bilan to‘ldirilgan. Yelkanli ravoqlar ham pishiq g‘ishtdan terilgan va tabiiy toshdan yasalgan 4 ustunga tayanadi. Radiusi 14 metrli bu ikki yarim gumbaz va asosiy gumbaz bo‘ylama o‘q bo‘yicha yuzasi 1970 kv metrni tashkil qilgan yagona fazo hosil qilingan. Asosiy zalning yon tomonlarida ikki qavatli yon zallar (neflar) ustunli ravoqlar – “arkada” bilan ajratilgan.

Ibodatxonaning ichki ko‘rinishi, shakli va bezaklari yuqori mahorat bilan ishlangan va badiiy jihatdan tektonik tuzilishining aniq va pishiqligi bilan ajralib turadi. Gumbaz osti fazo gumbaz asosida joylashtirilgan 40 deraza orqali yoritiladi. Ulkan o‘lchamlariga qaramasdan binoning gumbazi havoda muallaq turganga o‘xshaydi. Ibodatxona ichki sirtlari turli rangli mozaika va tilla suvi yuritilgan naqshlar bilan bezatilgan.

SALB-GUMBAZLI IBODATXONALAR

Vizantiya arxitekturasi rivojlanishining o‘rtta va so‘nggi davrlarida qurilish ko‘لامи pasayadi va mahobatli bino hamda inshootlar qurilishi to‘xtaydi. Vizantiya davlatining turli qismlarida mahalliy arxitekturaviy uslublar ishlatiladi. Ammo ibodatxonalar qurilishi uchun yagona salb-gumbazli struktura keng tarqaladi.

Bunday ibodatxonalarning plan tuzilishi salb shaklida bo‘lib, gumbaz salbning markaziga o‘rnatilgan. Gumbaz baland doira ustiga va yelkanli ravoqlar yordamida to‘rt alohida turgan ustunlarga tayanadi. Bunday ibodatxona tarh tuzilishida uchta nefdan (xonadan) tashkil topgan va asosiy gumbaz sharq tomonidan yarim aylana apsidaga ega. Asosiy gumbazdan tashqari, ba’zan yon neflar ustiga ham gumbazlar qo‘yilib, uch yoki besh gumbazli ibodatxonalar qurilgan.

Shunday ibodatxonalardan eng birinchisi IX asr o‘rtalarida Konstantinopolda qurilgan, hozirda u joyda Qalandar jome’ masjidi joylashgan. Salb-gumbazli ibodatxonalardan eng ulkani – bu IX asrda Venetsiya shahrida qurilgan San-Marko ibodatxonasidir. Bu ibodatxona yechimida 5 salb-gumbaz tizimi birlashtirilgan va bu bino ustida 5 ta gumbaz qurilgan.

Fesalonika shahrida qurilgan Apostol ibodatxonasi (XIII – XIV asrlar) ham 5 gumbazga ega va kompozitsion jihatdan asosiy gumbaz boshqalariga nisbatan balandroq qilib joylashtirilgan.

Salb-gumbazli ibodatxonalar qurilishi Kavkazorti davlatlari va Sharqiy Yevropa – slavyan xalqlari arxitekturasida VI asrdan boshlab keng tarqaladi.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Rim imperiyasi nima uchun yemirildi?
2. Feodal davri arxitekturasi nimaga asoslangan?
3. Vizantiya arxitekturasi qanday an'analar asosida shakllandi?
4. Vizantiya arxitekturasida badiiy ifodalanimish vositalari nimadan iborat?
5. Ayya Sofiya ibodatxonasining ahamiyati nimadan iborat?
6. Salb-gumbazli sistemaning asosiy xususiyatlari nimada?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.I – II (pod obshey redaksiyey B.P.Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M., "Izobrazitelnoye iskusstvo", 1980 g.
4. Arxitekturnoye nasledstvo. Sborniki 1 – 48. M., 1951 – 1990.
5. Gulyanskiy N.F. "Istoriya arxitekturi". M., SI 1984 g.
6. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

KAVKAZORTI VA QADIMGI RUS ARXITEKTURASI

MA'RUDA REJASI:

1. *Kavkazorti davlatlari arxitekturasining shakllanishi.*
2. *"Glxatun" va "Darbozi" turidagi imoratlar kompozitsion va konstruktiv tizimi.*
3. *Kavkazorti davlatlarida ibodatxonalar arxitekturasi.*
4. *Sharqiy slavyanlar arxitekturasi shakllanishi.*
5. *Kiyev Rusi arxitekturasi.*
6. *Novgorod arxitekturasi.*

TAYANCH IBORALAR:

Piramida shaklli gumbaz. O'zaro kesishuvchi ravoglar. Djvari ibodatxonasi. Ripsime ibodatxonasi. Anidagi kafedral sobori. Glxatun. Darbozi. Msxeta sobori. Yod'och qurilmalar. Kiyevdagi Sofiya sobori.

Novgoroddagi Sofiya sobori. Novgorod va Pskov arxitekturasi. Vladimir va Suzdal arxitekturasi. Dnepr bo‘yi va Golisk-Volinsk arxitekturasi.

MA’RUZA MATNI

Kavkazorti davlatlari – Armaniston va Gurjistonda IV asrdan boshlab feodal munosabatlari shakllangan va bu davlatlar Vizantiya imperiyasiga siyosiy jihatdan tobe bo‘lgan.

Armaniston va Gurjiston arxitekturasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlar Vizantiya arxitekturasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Armanistonda “Glxatun” va Gurjistonda “Darbozi” deb nomlangan xalq turarjoy imoratlari markaziy gumbazli turda qurilib, yog‘och yopilmasiga ega bo‘lgan.

Ibodatxonalar odatda tabiiy toshdan qurilib, ustki yopilmasi sakkiz qirrali doira va uning ustiga gumbaz shaklida qurilgan. Ravoq va gumbazlar konstruksiyalari V – VI asrlardan boshlab keng qo‘llanilgan.

IX – XI asrlardan salb-gumbazli ibodatxonalar qurilishi bilan yelkanli ravoqlardan ham keng foydalanilgan.

XI asrdan boshlab Armaniston va Gurjiston arxitekturasida gumbazosti konstruksiyasi sifatida o‘zaro kesishuvchi ravoqlar qo‘llanilgan. Kvadrat shaklidagi planda 4 o‘zaro kesishuvchi ravoq, aylana shaklidagi planda 6 o‘zaro kesishuvchi ravoqdan foydalanilgan.

Gurjistonning Msxeti shahridagi Djvari ibodatxonasi markaziy kompozitsiya asosida 590–604-yillarda qurilgan. Tepalikda joylashgan ibodatxona o‘zining ko‘p qirrali gumbazi bilan ajralib turadi.

Armanistonning Echmiadzin shahridagi Ripsime ibodatxonasi ham markaziy kompozitsiya asosida 618-yili qurilib tugallangan. Tekislikda joylashgan bu ibodatxona o‘zining mahobatli peshtoqi va baland 8 qirrali gumbazi bilan ajralib turadi.

Gurjistonning Sromi shahridagi ibodatxona 626–634-yillarda qurilib, salb-gumbazli kompozitsiyaga ega. Bu ibodatxona markaziy qismi 8 qirrali piramida shaklli gumbaz bilan, yon qislari esa kichik o‘zaro kesishuvchi gumbazlar bilan yopilgan.

Armaniston hududida IX – XI asrlarda Bagratiylar davlati shakllanadi va Ani shahri poytaxt qilib olinadi. Ani shahrida 989 – 1001-yillarda qurilgan ibodatxona gumbazli bazilika turida qurilgan.

Jamoa binolari qurilishi monastir komplekslari shakllanishi bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Monastir komplekslari maktab, kutubxona, mehmonxona va boshqa imoratlardan tashkil topgan. Masalan, XI – XIII asrlarda qurilgan Sanati monastiri va Axpat monastiri. Axpat monastiri ibodatxonasi o‘zaro kesishuvchi ravoqlar asosida qurilgan gumbazi bilan ajralib turadi.

XII asrda shoh David boshchiligidagi Gurjistonda mustaqil feodal davlatiga asos solindi. Shu davrda eng katta ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari qurilishi amalga oshirildi. Masalan, Kutaisi shahrida 1003-yilda qurilgan Bagrat ibodatxonasi, Milet shahrida 1010–1029-yillarda qurilgan Sveti ibodatxonasi, Kutaisi yaqinidagi Gelati monastiri (1106–1125-y. da qurilgan) va boshqalar. Ayniqsa, Msxetidagi Sveti ibodatxonasi badiiy jihatlari bilan ajralib turadi.

Gurjiston va Armaniston arxitekturasida ibodatxonalar asosan toshdan qurilgan. Ibodatxonalar gumbazlari ichki tomondan yarim sfera shaklida bo‘lib, sakkiz qirrali doira ustiga o‘rnatalgan. Devorlar va gumbazlar asosan yo‘nib ishlov berilgan toshlar – tufdan qurilgan.

Gurjiston va Armaniston arxitekturasida binolar zilzilabardoshligiga katta e’tibor berilgan. Binolar hajm-fazoviy yechimlari kompakt shaklga ega bo‘lib, binolar yuqori qismlari yengil konstruksiyalarda bajarilgan. Devorlar oralig‘i zilzilabardosh kamarlar bilan kuchaytirilgan.

Kompozitsion jihatdan Gurjiston va Armaniston arxitekturasida bino va inshootlar badiiy ifodalinish vositalarining tabiiyligi va konstruktiv qismlarning haqqoniy ko‘rsatilishi bilan ajralib turadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ibodatxonalar markaziy kompozitsiya asosida qurilgan.

Bu kompozitsiya asosida ibodatxonaning markaziy qismida gumbaz o‘rnatalgan va salb shaklida to‘rt ustun qurilgan. Bino tashqi ko‘rinishida gumbaz asosiy badiiy ifodalinish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Binolarning mutanosib shakllari konstruktiv jihatdan haqqoniy ifodalangan yirik toshlar bilan uyg‘unlashgan.

Gurjiston va Armaniston arxitekturasida salb-gumbazli kompozitsion tuzilishga ega ibodatxonalarning ikki turi keng tarqaladi. Birinchi turdagи binolarda gumbaz kvadrat shaklli asosga o‘rnataladi. Ikkinci turdagи binolarda gumbaz alohida turgan ustunlarga o‘rnataladi. Gurjistondagi Samsevrisi ibodatxonasi va Armanistondagi Kamravor ibodatxonasi birinchi turdagи binolarga taalluqli.

Gurjistonning Sromi shahrida 626 – 634-yillarda qurilgan ibodatxona ikkinchi turdagи binolarga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu ibodatxona tashqi ko‘rinishida bino salb shaklidagi tuzilishi va gumbazosti fazo yaqqol ifodalangan. Badiiy va konstruktiv elementlar uyg‘unlash-tirishi ustalik bilan bajarilgan bu bino tashqi tabiiy muhit bilan ham uyg‘unlashgan.

XII asr boshlarida David boshchiligidagi yagona Gurjiston davlati tashkil topadi va arxitekturaning rivojlanishi uchun yaxshi sharoit vujudga keladi. Bu davrda Kutaisi shahrida Bagrat cherkovi (1003-y.), Samtavisi shahrida cherkov (1030-y.), Gelati monastiri (1106–1125-y.y.) qurilgan.

IX – XI asrlarda Armaniston hududida Bagratiylar davlati tashkil topadi. Bu davrda qurilgan imoratlardan Ani shahridagi ibodatxona (989 – 1001-y.y.) va Axpat shahridagi monastir (1209-y.) alohida ajralib turadi.

QADIMGI RUS ARXITEKTURASI

X asrda Sharqiy Yevropada slavyanlar davlati – Qadimgi Rus tashkil topdi. Slavyanlarning pravoslav dinini qabul qilishi Vizantiya bilan bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning kengayishiga olib keldi. Qadimgi Rus madaniyati va arxitekturasi Vizantiya ta’siri ostida shakllandi.

X – XI asrlarda asosan daryolar bo‘ylarida yog‘och devorlar bilan o‘ralgan Rus shaharlari shakllandi. Shahar ichida turarjoy uylari, knyazlar palatalari va boshqa imoratlar yog‘ochdan quriladi. Yog‘och Qadimgi Rus arxitekturasi uchun asosiy qurilish materiali bo‘lgan.

Qadimgi Rus ibodatxonalar ham X asrgacha asosan yog‘ochdan qurilgan. X asrdan boshlab Vizantiya arxitekturasi ta’siri ostida salb-gumbazli ibodatxonalar qurilishi keng tarqaladi va ular pishiq g‘isht va tabiiy toshdan quriladi.

X – XI asrlar Kiyev Rusi madaniyati va arxitekturasining rivojlanish davriga aylandi. Bu rivojlanish asosan knyaz Yaroslav Mudriyning 1019 – 1054-yillarda davlatni oqilona boshqarishi bilan bog‘liq. Bu davrda, ya’ni 1037-yilda Kiyevda Sofiya sobori, 1036-yilda Chernigovda Spaso-Preobrajenskiy sobori va 1045 – 1052-yillarda Novgorodda Sofiya soborlari qurilgan. Bu ibodatxonalarining hammasi salb-gumbazli kompozitsion usulda qurilib, asosiy gumbaz yelkanli konstruksiya asosida, yon xonalar (neflar) silindrik gumbazlar bilan yopilgan. Gumbazlar asosan ustunlar va tashqi devorlarga qo‘yilgan. Tashqi devorlardagi pilyastralar gumbazlarni tutib turgan. Binoning sharqiy tomonida yarim aylana shaklida apsidalar qurilgan.

Kiyevdagi Sofiya ibodatxonasi eng mahobatli va yirik imorat bo‘lib, Konstantinopoldagi Sofiya ibodatxonasi ta’siri ostida qurilgan. Bu ibodatxona salb-gumbazli turda bo‘lib, besh nefdan tashkil topgan. Bino atrofi arkali galereyalar bilan o‘ralgan. Binoning tashqi ko‘rinishi zinali shaklga ega bo‘lib, markaziy gumbazga qarab ko‘tarilgan. Binoning ichki ko‘rinishlari freska va mozaika bilan bezatilgan.

Novgorod shahridagi Sofiya ibodatxonasi ham mahobatli va oddiy shakllardan tashkil topgan. Bu imorat ham salb-gumbazli kompozitsiyaga ega bo‘lib, planda 5 nefdan iborat. Bino asosan simmetrik tarzda baland doiralarga o‘rnatilgan besh gumbaz bilan yopilgan.

XII – XIII asrlarda Rus arxitekturasi asosan uch hududiy maktablar xususiyatlari bilan ajralib turadi: shimoliy-g‘arbiy mакtab (Novgorod va Pskov), janubiy-g‘arbiy (Dnepr bo‘yi va Golisk-Volinsk) va shimoliy-sharqiy (Vladimir va Suzdal).

Bu davrda arxitektura rivojlanishida 2 yo‘nalish ajralib turadi: birinchisi – yangi konstruktiv usullardan foydalanish natijasida binolarning hajm-fazoviy tuzilishiga o‘zgartirishlar kiritish; ikkinchisi – salb-gumbazli kompozitsiyani yanada rivojlantirish va alohida qismlarni o‘zgartirish. Birinchi yo‘nalish Dnepr bo‘yi mакtabiga xos bo‘lib, Chernigovda XII – XIII asrlarda qurilgan Pyatniskiy cherkovi bunga misol bo‘la oladi. Bu bino planda uch nefdan iborat bo‘lib, baland doira ustiga o‘rnatilgan bir gumbaz bilan yopilgan. Ibodatxona tashqi kompozitsiyasi vertikal o‘q bo‘yicha rivojlangan minora shaklida bajarilgan.

Ikkinchi yo‘nalish Vladimir – Suzdal mакtabiga xos bo‘lib, Nerli daryosi bo‘yidagi Pokrov ibodatxonasi (1165-yilda qurilgan), Vladimir shahridagi Dmitriy sobori (1194–1197-yillarda qurilgan) va Vladimir shahridagi Uspenskiy sobori (1158–1189- yillarda qurilgan) misol bo‘la oladi. Nerlidagi ibodatxona o‘zining yetuk kompozitsion tuzilishi, vertikal yo‘naltirilgan pilyastrlari va chiroyli gumbazi bilan ajralib turadi.

Vladimir shahridagi Dmitriy sobori ham baland doira ustiga o‘matilgan gumbaz va vertikal yo‘nalishda tuzilgan kompozitsiyaga ega. Dmitriy sobori tashqi ko‘rinishda tosh o‘ymakorligi va bezaklari bilan xarakterlanadi.

Umuman olganda, bu davrdagi rus arxitekturasi oq rangli tabiiy toshlardan qurilgan va gumbazlari tilla qoplangan kompozitsion tuzilishi bilan ajralib turadi. Ammo shaharlarning asosiy qismini tashkil qiluvchi turarjoy qadimgi an‘analar asosida yog‘ochdan qurilgan.

O‘tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:


1. Kavkazorti davlatlari arxitekturasi nimaga asoslangan?
2. Xalq me’morchilik an‘analari nimadan iborat?
3. Jamoat binolari qanday shakllangan?
4. Slavyan davlatlari arxitekturasining asosiy qurilish ashyolari.
5. Kiyev Rusi arxitekturasi qaysi mакtab ta’siri ostida shakllangan?
6. Qaysi hududiy mакtablar Qadimgi Rus arxitekturasidan ajralib turadi?

Adabiyotlar:


1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T. I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev A.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturix stiley. M., “Izobrazitelnoye iskusstvo”. 1980 g.
4. Arxitekturnoye nasledstvo. Sborniki 1 – 48. M., 1951 – 1990.
5. Gulyanskiy N.F. “Istoriya arxitekturi”. M., SI 1984 g.
6. Qadimgi dunyo va O‘rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma’ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.




1-rasm. Stounxendj kromlexi. Angliya. Miloddan oldingi XX asr.




2-rasm. Xefren ehromining pastki qismi. Giza. Misr.
Miloddan oldingi XXVII asr.



3-rasm. Xeops ehromi. Misr.
Miloddan oldingi XXVII asr.




4-rasm. Bobil (Vavilon) shahri.
Mesopotamiya. Miloddan oldingi VI asr.




5-rasm. Dur-Sharrukin shahri. Mesopotamiya. Milloddan oldingi VIII asr.




6-rasm. Parfenon ibodatxonasi. Qadimgi Yunon. Miloddan oldingi V asr.



7-rasm. Akropol ansamblı. Qadimgi Yunon. Miloddan oldingi V asr.




8-rasm. Kolizey. Rim. Milodiy 70–90-yillar.



9-rasm. Karakalla termalari (hammom). Rim. Milodiy 211–217-yillar.




10-rasm. Rim miniatyurasi. Milodiy III asr.




11-rasm. Antiox amfiteatri. Milodiy III asr.



12-rasm. Imperator Avgust maqbarasi. Rim. Milodiy III asr.



13-rasm. Bazilikali ibodatxona. Rim. Milodiy IV asr.




14-rasm. Ayya Sofiya ibodatxonasi. Konstantinopol (Istanbul). Vizantiya.
Milodiy 532–537-yillar.




15-rasm. Kiyevdagi Sofiya ibodatxonasi. XI asr.



16-rasm. Kiyev-Pechora lavrasi. XI—XIX asrlar.




17-rasm. Pragadagi Agnes monastiri. XI asr.




18-rasm. Gotik qasr. XII asr.




22-rasm. Beyxay parki. Pekin. Xitoy. XV asr.



23-rasm. Orzular qasri. Pekin. Xitoy. XV asr.




24-rasm. Oliy uyg'unlik qasri. Pekin. Xitoy. XX asr.



25-rasm. Buddaviy ibodatxona. Bangkok. Tailand. XVII asr.



26-rasm. Jome' masjidi. Karachi. Pokiston. XVI asr.



27-rasm. Jome' masjidi. Yazd. Eron. XVI asr.

G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARIDA V – XIV ASRLARDA ARXITEKTURA RIVOJLANISHI

MA'RUDA REJASI:

1. G'arbiy Yevropada feodal tuzumning shakllanishi.
2. O'rta asrlar arxitekturasining shakllanishi.
3. Roman arxitekturaviy uslubining asoslari.
4. Roman arxitekturaviy uslubining badiiy ifodalanish vositalari.
5. Roman arxitekturaviy uslubining konstruksiyalari va ashyolari.
6. Roman bazilikal soborining arxitekturasi.
7. Monastir komplekslarining shakllanishi.
8. Feodal kyoshklarining arxitekturasi.

TAYANCH IBORALAR:

Roman arxitekturaviy uslubi. Feodal kyoshklari (qal'alari). Monastir komplekslari. Ibodatxonalar – sobor va cherkovlar. Mudozaaviy inshootlar. Don-jon. Shahar devorlari.

MA'RUDA MATNI

ROMAN ARXITEKTURA USLUBI

Feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning shakllanishi bilan G'arbiy Yevropada yangi siyosiy vaziyat vujudga kelib, milliy davlatlar tashkil topdi. Fransiya, Germaniya, Italiya va boshqa davlatlar ko'p sonli feodal mulkidan iborat edi. Feodal munosabatlari krepostnoylik asosida dehqonlar mehnatining ekspluatatsiyasi bilan bog'liq edi.

O'rta asrlar arxitekturasi antik me'morchilikdan ko'p jihatlari bilan keskin farq qilib, bino va inshootlar turlari, qurilish uslublari va badiiy ifodalanish vositalarining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda asosan 2 arxitekturaviy uslub rivojlanadi va keng tarqaladi: roman uslubi (XI – XII asrlar) va gotika uslubi (XIII – XV asrlar).

Roman arxitektura uslubining shakllanishi mahalliy an'analar va Vizantiya arxitekturaviy shakllarining uyg'unlashishi natijasida rivojlandi. Bu uslubning rivojlanishi asosan feodal kyoshklari, muhofazalangan shaharlar qurilishi, yangi turdag'i turarjoy imoratlari, monastir komplekslari va diniy inshootlar qurilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Roman arxitektura uslubi antik me'morchilikka xos bo'lgan va uyg'unlashgan shakllar, bezak va badiiy ifodalanish vositalarini to'liq inkor etadi. Roman uslubi bino va inshootlar tuzilishining juda og'ir va hajm-fazoviy yechimining nomutanosibligi bilan ajralib turadi.

Roman uslubining asosiy qurilish materiali tabiiy tosh bo'lib, bu material asosida qurilgan bino va inshootlarning devor va boshqa konstruksiyalari o'zining qalinligi va og'irligi bilan ajralib turadi.

Roman uslubining arxitekturaviy-kompozitsion shakllari ibodatxonalar qurilishida yaqqol namoyon bo'ladi. IX asrdan boshlab yirik ibodatxonalar qurilishi boshlanadi. 800- yillarda Germaniyaning Aaxen shahrida Buyuk Karl kapellasi tabiiy toshdan qurilgan. Bu bino markaziy kompozitsion uslubda qurilib, planda 8 qirrali hajmga ega va 8 qirrali gumbaz bilan yopilgan.

Roman uslubida markaziy kompozitsiya bilan bir qatorda bazilika turidagi ibodatxonalar qurilishi ham keng tarqaladi. Bazilika bo'ylama o'q bo'yicha rivojlangan kompozitsiya asosida qurilib, ikki qator ustunlar bilan 3 nefga yoki 4 qator ustunlar bilan 5 nefga ajratilgan. O'rtadagi nef balandroq qilib qurilib, yon derazalar orqali yoritilgan. Neflarni ajratib turuvchi ustunlar ravoqli arkada shaklida bajarilgan. Bazilika yopilmasi asosan yog'och fermalardan bajarilgan. O'rtadagi nef sharqiy tomonga qarab tugallangan va mehrob (altar) joylashtirilgan. Mehrob oldida ruhoniylar uchun ko'ndalang nef – transept joylashtirilgan.

Binoning g'arbiy tomonida kirish peshtoqi joylashtirilgan va peshtoqning ikki tomonida ikkita minora qurilgan. Ba'zi ibodatxonalarda yon neflar 2 qavatlari qilib qurilgan va bino markazi gumbaz bilan yopilgan.

Ibodatxonalarning yog'och yopilmalari yong'in tufayli tez-tez buzilib turgan. Shuning uchun X asrdan boshlab yopilmalarning tosh va g'ishtdan qurilgan ravoqli va gumbazli turlari keng tarqaladi. Bino yopilmalari toshdan bajarilishi bilan devorlar qalinligi oshadi va devorlarda kontrforslar (devorga yopilgan tirkach) paydo bo'ladi.

Roman uslubida qurilgan ibodatxonalar tashqi ko'rinishi – devorga ishlov berish, devordagi kontrforslar va eshik-derazalarning ravoqli tuzilishi bilan xarakterlanadi. Ibodatxonalarning g'arbiy tarzida bir yoki uch kirish eshiklari peshtoqlar bilan bezatilgan.

Monastir komplekslari odatda to'g'ri burchakli ichki hovli atrofida imoratlarni joylashtirish asosida shakllangan. Hovli atrofi ravoqli ayvonlar bilan bezatilgan.

Roman uslubi, eng avvalo, Fransiyada yaxshi rivojlanadi. Ayniqsa, Burgundiyaning Klyuni shahri roman arxitektura uslubi rivojlanishiga katta hissa qo'shamdi. Bu yerda X – XI asrlarda Klyuni monastir kompleksi shakllanadi. Kompleks asosini 1088 – 1120-yillarda qurilgan o'sha paytdagi eng katta ibodatxona tashkil qiladi. Bazilika kompozitsion tuzilishiga ega bu ibodatxona 5 nefdan iborat bo'lib, markaziy nef balandligi 30 metrni tashkil qiladi. Asosiy tarzi 2 minora bilan bezatilgan, yana 2 minora ibodatxona transept qismi ustida joylashtirilgan. Bino markazi gumbaz yopilmaga ega. Klyuni ibodatxonasida birinchi marta uchlik ravoqlar

qo'llaniladi. Vezle shahrida XII asrda qurilgan Magdalena ibodatxonasi ham Burgundiya me'morchilik maktabi namunasidir. Bu bino 3 nefli bazilika tuzilishiga ega bo'lib, birinchi marta ham markaziy nef, ham yon neflar o'zaro kesishuvchi ravoqli yopilmaga ega bo'lgan.

Otene shahrida 1112 – 1132-yillarda qurilgan Sen-Lazar ibodatxonasi ham Burgundiya me'morchilik maktabiga qarashli bo'lib, bu bino yopilmasi ham uchlik ravoqlardan tashkil topgan.

Puatedagi Notr-Dam ibodatxonasining tashqi ko'rinishi mahobatli tosh ravoqlar va qalin devorlardan tuzilganligi bilan ajralib turadi. XII asr o'rtalarida qurilgan bu bino o'zining chirolyi bosh tarzi bilan ajralib turadi. Bu tarz uch qavatdan iborat bo'lib, birinchi qavatda ravoqli uch kirish peshtoqi, ikkinchi qavatda haykalchalar o'rnatilgan ravoqli tokchalar va uchinchi qavatda ham ravoqli tokchalar joylashtirilgan. Tarzning ikki tomonidan konus shaklli yopilmaga ega ikkita minora qurilgan. Binodagi barcha bezak va haykalchalar toshdan o'yib yasalgan.

Normandiya va boshqa shimoliy hududlar arxitekturasi oddiyroq bo'lib, shu bilan birga, vertikal o'q bo'yicha rivojlangan kompozitsion tuzilishga ega. Masalan, Kann shahrida XI – XII asrlarda qurilgan Sen-Trinite ibodatxonasi.

Fransiyaning janubiy hududlarida asosan markaziy kompozitsion tuzilishga ega ibodatxonalar ko'proq qurilgan va ular gumbaz bilan yopilgan. Masalan, Anglem shahrida XII asrda qurilgan ibodatxona va Perige shahrida 1120 – 1179-yillarda qurilgan Sen-Fron ibodatxonasi.

Jamoat binolaridan, shuningdek, bir necha feodal kyoshklari bizgacha yetib kelgan. Feodal kyoshklari baland va yaxshi himoyalangan joylarda qurilgan va atrofi suv to'ldirilgan ariqlar bilan o'ralgan. Feodal kyoshkining asosiy binosi "don -jon" nomini olgan. Don-jon – bu qalin devorlardan qurilgan va yaxshi muhofazalangan minora shaklli inshoot. Dushmanlar hujum qilgan paytda feodal oilasi va qo'shinlari bir necha haftalab don-jonda mudofaaviy harakatlar olib borgan va o'sha yerda yashagan. Masalan: Loshe shahridagi feodal kyoshki X asrda qurilgan bo'lib, 4 qavatli don-jondan tashkil topgan. Shuningdek, XI asrda qurilgan Gisor kyoshki, XII asrda qurilgan Sena daryosi bo'yidagi Gayar kyoshklari ham yaxshi muhofazalangan qal'alardan iborat bo'lgan. Gayar kyoshki baland tog' cho'qqisisida joylashgan va o'rtada baland don-jon qurilgan.

Fransiyaning shimoliy-g'arbiy hududi Bretan provinsiyasida Vitre va Fujere kyoshklari ham XI – XII asrlarda qurilgan bo'lib, keyinchalik qayta qurilgan va bizgacha yetib kelgan.

Fransiya shaharlari ham mudofaaviy devorlar bilan o'ralgan bo'lgan. Karkasson shahri qal'a devorlari hozirgacha saqlanib qolgan. Shahardagi turarjoy imoratlari ham odatda tosh va g'ishtdan qurilgan. Klyuni shahrida XII asrda qurilgan turarjoylar hozirgacha saqlanib qolgan.

Germaniyada roman uslubi bo'yicha Reyn va Saksoniya me'morchilik maktablari yaxshi yutuqlari bilan ajralib turadi. Reyn daryosi bo'yida Mayns, Vorms va Shpeyerdagi ibodatxonalar XII – XIII asrlarda qurilgan. Bu ibodatxonalar asosan tarh tuzilishida uch nefdan iborat bo'lib, bo'ylama o'q bo'yicha rivojlangan kompozitsiyaga ega. Bino burchaklarida aylana shaklli to'rt minora qurilgan, binoning markazi esa sakkiz qirrali piramida shaklidagi gumbaz bilan yopilgan. Ibodatxonalar tashqi tarzlari ravoqli deraza va eshiklar joylashtirilishi va ravoqli tokchalari bilan ajralib turadi. Ibodatxonalar yopilmalari o'zaro kesishuvchi ravoqli gumbazlardan iborat. Asosiy nefdagi bir gumbazga yon neflardagi ikki kichik gumbaz to'g'ri keladi. Germaniyadagi ibodatxonalar oddiy shakllardan tuzilib, mahobatli tashqi ko'rinishga ega.

Germaniyadagi jamoat binolaridan Vartburgdagagi Landgraf qasri hozirgacha saqlanib qolgan. 1190–1250-yillarda qurilgan bu bino 2 qavatdan iborat bo'lib, tashqi ko'rinishida ravoqli arkadalardan keng foydalangan.

Italiyada roman uslubi mamlakatning shimoliy hududlari – Lombardiyada shakllanib, boshqa hududlarga shu yerdan tarqaladi. Italiyada qurilgan ibodatxonalarining tashqi ko'rinishi kompozitsiyasi yengil va plastik jihatdan boy bezatilishi bilan ajralib turadi. Bino fasadlari va interyerlarida klassik shakllar – arkada, kolonnada, antik qismlardan keng foydalananilgan.

Milandagi Sant-Ambrodjo ibodatxonasi VI asrda qurilgan va XI – XII asrlarda qayta qurilgan. Bu binoning tashqi ko'rinishi 3 qavatli baland ravoqlardan tashkil topgan ya ularning orqasida lodjiyalar joylashtirilgan. Bino oldida arkalar bilan o'ralgan atrium (hovli) va g'ishtdan qurilgan baland minoralar – kampinilla joylashtirilgan.

Italiyada bazilika kompozitsion uslubida bir necha ibodatxonalar qurilgan. Masalan, 1013-yilda Florensiyada qurilgan San-Miniato ibodatxonasi, 1063-yilda Pizada qurilishi boshlangan ibodatxona. Pizadagi ansambl o'zining yiqilayotgan minorasi bilan mashhurdir. Bu ansambl XI – XII asrlarda arxitektorlar Busketto va Raynaldo loyihasi asosida qurilgan. Ansamblidagi asosiy ibodatxona besh nefli bazilika bo'lib, bino tashqi va ichki ko'rinishlari boy bezatilgan va marmar toshlardan keng foydalananilgan.

Italiyada markaziy kompozitsion tuzilishdan ham keng foydalananilgan. Masalan, Florensiyada 1059-yilda qurilgan San-Djovani baptisteriysi (cho'qintirish sajadogohi) va 1153-yilda qurilishi boshlangan Piza ansamblidagi baptisteriy.

Italiyada roman uslubida qurilgan shaharsozlik namunalaridan San-Djiminiano shahri XII – XIII asrlarda qurilgan. Bu shahar minorasimon baland imoratlar – feodallar turarjoy binolaridan tashkil topgan.

O‘tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Feodal tuzum shakllanishining arxitekturaga ta’siri nimadan iborat?
2. Roman arxitekturaviy uslubi nimaga asoslangan?
3. Roman arxitekturasi qanday maktablariga ega edi?
4. Klyuni monastiri arxitekturasining ahamiyati?
5. Bazilika turidagi ibodatxonalar qanday tuzilishga ega.
6. Don-jon degani nima?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M., “Izobrazitelnoye iskusstvo”, 1980 g.
4. Arxitekturnoye nasledstvo. Sborniki 1 – 48. M., 1951 – 1990.
5. Gulyanskiy N.F. “Istoriya arxitekturi”. M., SI 1984 g.
6. Qadimgi dunyo va O‘rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma’ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

GOTIKA ARXITEKTURA USLUBI

MA’RUZA REJASI:

1. Gotika arxitekturasi shakllanishi uchun vujudga kelgan sharoitlar.
2. Gotik ibodatxonalar tuzilishi.
3. Faxverkli turarjoy imoratlari.
4. Fransiyada gotika uslubi.
5. Parijdagi Notr-Dam sobori.
6. Angliya gotikasining xususiyatlari va davrlari.
7. Germaniya gotikasi.
8. G‘ishtli gotika xususiyatlari.

TAYANCH IBORALAR:

Gotika arxitekturaviy uslubi. Gotika karkasi. Nervyuralar. Arkbutanlar. Kontrforslar. Bazilika. Gumbazli ibodatxonalar. G‘ishtli gotika. Faxverk uylari.

MA’RUZA MATNI

XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa davlatlari shaharlarida savdo va hunarmandchilik tez rivojlanadi. Shaharlar iqtisodiy, ijtimoiy

va madaniy hayot markazlariga aylanadi. Buning natijasida arxitektura sohasida yangi uslub – gotika uslubi shakllanadi va rivojlanadi. Roman uslubining asosiy xususiyati og‘ir tosh konstruksiyalaridan iborat edi. Gotika uslubi esa yengil karkas konstruksiyalariga asoslangan.

Yevropa davlatlarida shaharlar asosan savdo yo‘llari kesishgan joylarda shakllanadi. Savdo yo‘llari kesishgan joyda bozor maydoni hosil bo‘ladi. Bozor maydoniga yaqin joyda shahar asosiy ibodatxonasi va shahar hokimiyati binosi – ratusha quriladi. Devorlar bilan o‘ralgan shahar hududining yeri juda qimmat va qadrli edi. Shuning uchun arxitektor va quruvchilar shaharda quriladigan imoratlarning tejamli va yengil qilib qurilishi usullari ustida ish olib borishadi va natijada gotika karkas uslubi shakllanadi. Gotika uslubi shakllanishi sharqiy mamlakatlar arxitekturasi ta’siri ostida amalga oshdi.

Gotika uslubini yaratgan arxitektorlarning texnik yutuqlari, birinchi navbatda, bazilika turidagi ibodatxonalar qurilishida qo‘llanildi.

Gotika karkas sistemasi nervyura, arkbutan va kontrforslardan iborat.

Nervyura – bu bino yopilmasi qobiqlaridagi toshdan terilgan ravoq shaklidagi qovurg‘alar. Nervyuralar – yopilma qobiqlaridagi asosiy yuk ko‘taruvchi konstruktiv qism. Nervyuralarning ishlatalishi yopilma og‘irligini kamaytirishga imkon yaratdi, chunki yopilma qobiqlarida avval nervyuralar ravoq shaklida terib chiqiladi va keyin havzalar yordamida qobiqning qolgan qismlari teriladi. Bino yopilmasi og‘irligi nervyuralardan arkbutanlarga uzatiladi. Arkbutan – og‘ma turgan yarim ravoq shaklli konstruktiv element bo‘lib, kuchlanishini nervyuralardan kontrforslarga uzatish uchun xizmat qiladi. Kontrforslar bino yopilmalaridan barcha kuchlanishni qabul qiluvchi ustunlardir. Kontrforslar qalinligi pastga qarab oshib boradi. Shunday qilib, gotika uslubida qurilgan binolarda nervyura, arkbutan va kontrforslardan tashkil topgan karkas bino mustahkamligi va turg‘unligini ta’minlaydi. Gotika uslubidagi binolar yopilmasini bajarishda yog‘och fermalardan keng foydalanilgan.

Gotika uslubining nazariy asoslari dominikanlik rohib Vinsent de Bovening “Buyuk oyna” deb nomlangan asarida o‘z tasvirini topgan. Muallifning 83 ta kitobi 3 jildlik asarlar to‘plamida jamlangan bo‘lib, arxitekturaviy va qurilish faoliyatining barcha sohalari yoritilgan.

Gotika arxitekturasida bino va inshootlar qurilishi uchun oldindan loyiha tayyorlangan va barcha konstruktiv qismlarning hisob-kitoblari bajarilgan.

Gotika arxitekturasida turarjoy imoratlari qurilishida yog‘och karkasdan iborat “faxverk uylari” keng tarqaladi. Faxverk uylarida ustunlar va boshqa yuk ko‘taruvchi qismlar yog‘ochdan tayyorlanib, ularning oralig‘i g‘isht va toshlar bilan to‘ldirilgan.

Gotika arxitekturasidagi karkas sistemasi o‘zining vertikal yo‘nalishida rivojlangan kompozitsion tuzilishi bilan ajralib turadi va bu konstruktiv sistema badiiy ifodalanish vositasiga aylanadi. Gotikadagi baziliqa turidagi ibodatxonalar konstruktiv tuzilishiga mos ravishda binoning ichki fazoviy tuzilishi va bezatilishida ham o‘ziga xos xususiyatlar hosil bo‘ladi. Masalan, markaziy nef uch qavatlari ravoqli arkadan, ikkinchi qavat triforiy bo‘limidan va uchinchi qavat markaziy nefga yorug‘lik beradigan derazalardan tashkil topgan. Asosiy ustunlardan ingichkaror ustunchalar ajraladi va ular yopilma qobiqning nervyuralariga o‘xshab ketadi. Karkas sistemasidan foydalanish devorlarni yengil qilib ishlash va ulardagi derazalar sonini ko‘paytirishga imkon yaratadi. Natijada ibodatxonalar ichki fazosi yaxshi yoritiladi. Derazalar baland ravoqli shaklda bajarilib, vitrajlar bilan to‘ldiriladi. Turli ranglarda bajarilgan vitrallardan o‘tadigan yorug‘lik nurlari bino interyerlarida sirli muhit yaratishga xizmat qiladi.

Binolarning tashqi ko‘rinishlarida ham ularning konstruktiv qismlari (neflar, transept, arkbutan, kontrfors ravoqli qobiqlar) kompozitsion elementlar sifatida badiiy ifodalanish vositalariga aylanadi.

GOTIKA USLUBIDAGI BINO VA ARXITEKTURAVIY ANSAMBLLAR

Gotika uslubidagi eng birinchi bino – bu Angliyaning Derxem shahrida 1093–1140-yillarda qurilgan ibodatxona. Uch nefdan iborat bu binoda birinchi marta gotika karkasi elementlari – uchli qobiqlardagi nervyuralar va ulardan kuchlanishni qabul qiluvchi arkbutan va kontforslar ishlatilgan.

Ammo gotika uslubining gullab-yashnashi birinchi navbatda Fransiya arxitekturasi bilan bog‘liq. Gotika uslubidagi eng mashhur binolardan biri – bu Parij shahridagi Notr-Dam ibodatxonasıdir. Bu bino qurilishi 1163-yilda boshlanib, XIV asrning o‘rtalarida tugallangan. Besh nefdan iborat ibodatxona uzunligi 129,0 metr, markaziy nef balandligi 69 metrni tashkil qiladi. Gotika uslubining xususiyatlari binoning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Binoning asosiy g‘arbiy tarzi uch qavatlari bo‘linishga ega: birinchi qavatda perspektiv turda ishlangan uch nefga kiruvchi uch kirish peshtoqi; ikkinchi qavatda ravoqli shaklda ishlangan derazalar va markaziy nefning aylana derazasi va uchinchi qavat ravoqli tokchalardan tashkil topgan. Undan yuqorida esa ikki simmetrik prizmashakl minoralar joylashgan. Binoning yon tarzida arkbutan va kontrforslar asosiy kompozitsion vosita sifatida ishlatilgan.

Notr-Dam ibodatxonasi nafaqat Parijda, balki butun Fransiyada eng katta ibodatxona bo‘lib, 9 ming kishiga mo‘ljallangan edi.

Fransiyaning Lana shahrida 1174 – 1226-yillarda qurilgan ibodatxona ham gotika uslubidagi birinchi binolardan edi. Ayniqsa, bu bino qurilishida

qo'llanilgan minoralar boshqa ibodatxonalar kompozitsion tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

XIII asr Fransiyada gotika uslubining eng rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda Reyms, Amen, Sharpr, Bove va boshqa shaharlarda ulkan ibodatxonalar quriladi.

Reymsdagi ibodatxona 1212 – 1311-yillar orasida qurilgan bo'lib, uzunligi 124 metr, markaziy nef balandligi 38 metrni tashkil qiladi. Ibodatxona kompozitsion tuzilishi gotika uslubining eng yaqqol namunasidir. Reymsdagi sobor Parijdagi Notr-Dam ibodatxonasiga nisbatan yanada yengil va yuqoriga yo'naltirilgan bo'lib, tashqi bezaklarining boyligi va turli haykalchalar bilan bezatilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Amen shahrida 1218–1268-yillarda qurilgan ibodatxona o'z o'lchamlari bilan Fransiyadagi eng yirik va baland bino hisoblanadi. Bu binoning uzunligi 145 metr bo'lib, markaziy nef balandligi esa 42,5 metrni tashkil qiladi.

Fransiyada gotika uslubidagi monastir komplekslaridan Bretan viloyatidagi Mon-Sen-Mishel abbatligi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Dengiz bo'yida baland qoyalar ustida qurilgan kompleks – ibodatxona va boshqa binolardan tashkil topgan va XIII – XV asrlar davomida shakllangan. Feodal kyoshklaridan 1220–1230-yillarda qurilgan Kuzi kyoshki gotika uslubida qurilgan. Bu kyoshk markazida balandligi 60 metr va diametri 30 metrni tashkil qiluvchi don-jon qurilgan. Bu inshoot devorlarining qalinligi 7 metrni tashkil qiladi.

Fransiyada XIV asrdan boshlab qirol hokimiyati kuchayishi bilan kyoshklar qurilishi to'xtatiladi. Bu davrdan boshlab kyoshklar faqatgina qirol ruxsati bilan qurilgan.

Germaniyada gotika uslubi asosan XIII asrdan boshlab rivojlanadi. Gotika uslubida Germaniyada qurilgan ibodatxonalar tarh tuzilishining oddiyligi, bosh tarz ko'rinishida ikki minora o'miga bitta o'tkir uchlik minora joylashtirilishi bilan ajralib turadi. Germaniyadagi eng yirik gotika uslubidagi ibodatxona – Kyoln sobori qurilishi 1248-yildan boshlab, to'liq tugallanishi XIX asrga to'g'ri keladi. Germaniyada gotika uslubidagi ibodatxonalar asosan pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, "G'ishtli gotika" nomini olgan.

Praga shahrida qurilgan Avliyo Vita ibodatxonasi ham o'z tuzilishi bilan Germaniya ibodatxonalariga o'xshaydi. Bu ibodatxona qurilishi XIV asrda tugallangan.

Angliyada gotika arxitekturasining rivojlanishi asosan XII – XV asrlarga to'g'ri keladi. Angliyada gotika uslubida qurilgan ibodatxonalar bo'ylama o'q bo'yicha uzun o'lchamlari va bosh fasadning kengligi bilan ajralib turadi. Linkoln shahrida XI – XIII asrlarda qurilgan ibodatxona to'liq gotika uslubi qonuniyatları asosida shakllangan.

Italiyada gotika uslubi alohida xususiyatlarga ega. Bu yerda asosiy qurilish materiali sifatida g‘ishtdan foydalanish natijasida gotika karkas tuzilishi keng ishlatilmagan. Karkas sistemasi ishlatilmaganligi sababli derazalar o‘lchamlari katta qilib olinmagan va vitrajlardan foydalanilgan. Italiyada ibodatxonalarning ichki ustunlari nafis va yengil qilib ishlanganligi sababli, neflarga bo‘linishi sezilmaydi va ichki muhit katta zalga o‘xshab ko‘rinadi. Florensiyada 1245–1278-yillarda qurilgan Santa Mariya Novella ibodatxonasi va Orviyeto shahrida 1290–1330-yillarda qurilgan ibodatxonalar shunday tuzilishga ega. Venetsiya shahrida 1246-yilda qurilishi boshlangan San Djovanni E-Paolo ibodatxonasi roman uslubida boshlanib, gotika uslubida 1430-yilda tugallangan.

Florensiya shahrida arxitektorlar Kambio va Talenti loyihasi asosida Santa Maria del Fore ibodatxonasi qurilishi boshlangan, bu bino o‘sha davrning eng yirik ibodatxonasi edi. Bazilika turidagi bu binoning loyiha asosidagi diametri 42 metrni tashkil qiluvchi gumbaz bilan yopilishi kerak edi. Gumbaz qurilishi 1471-yilda arxitektor Bruanaleski rahbarligida tugatildi. Gumbaz bilan birga binoning umumiy balandligi 114,7 metrni tashkil qiladi. Kompozitsion jihatdan gumbaz binoning asosiy elementiga aylanadi.

Italiya shaharlarida gotika uslubida shakllangan asosiy maydonlar ansamblari alohida e’tiborga molik. Masalan, Florensiyadagi Sinoriya maydoni, Venetsiyadagi San-Marko maydoni ansamblari. Maydon ansamblari kompozitsion jihatdan turli imoratlar, haykallar va ochiq favorrali hovuzlardan tashkil topgan.

Ayniqsa, Venetsiyadagi San-Marko ansamblı uyg‘unlashgan kompozitsiyasi va gotika uslubining yorqin namunasi bo‘lgan Dojlar saroyi tuzilishi bilan ajralib turadi. Bu binoning tashqi tuzilishida Vizantiya arxitekturasi va Sharq arxitekturasi elementlaridan keng foydalanilgan. Binoning tashqi ko‘rinishi bezatilishida turli rangdagi marmar toshlari va rangli koshinlardan keng foydalanilgan.

Boltiqbo‘yi davlatlarida ham gotika uslubi keng tarqaladi va rivojlanadi. Bu davlatlarda gotika uslubi asosan binolarning kompozitsion tuzilishida vertikal yo‘naltirilgan uchlilik minoralar qo‘llanilishi va gotika karkas elementlaridan ustalik bilan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Masalan, Riga shahrida XIV – XVI asrlarda qurilgan Avliyo Ioann cherkovi, XIII – XV asrlarda qurilgan Avliyo Yakov cherkovi va XIII – XVI asrlarda qurilgan Domskiy sobori. Vilnyus shahrida qurilishi 1584-yilda tugallangan Avliyo Anna kosteli o‘zining nafis qilib ishlangan bosh fasadidagi minoralari bilan ajralib turadi. Tallin shahrida XIII – XV asrlarda qurilgan Avliyo Olay ibodatxonasi Boltiqbo‘yi davlatlarida gotika uslubidagi eng baland bino bo‘lib, uning balandligi 123,7 metrni tashkil qiladi.

O‘tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nima uchun gotika uslubi yaratildi?
2. Gotika karkasi nimalardan iborat?
3. Gotika uslubining badiiy ifodalanish vositalari qanday?
4. Fransiyada gotika uslubida qaysi ibodatxonalar qurilgan?
5. Angliyada gotika uslubining xususiyatlari nimadan iborat?
6. Germaniyadagi gotika uslubining xususiyatlari nimadan iborat?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M., “Izobrazitelnoye iskusstvo”. 1980 g.
4. Arxitekturnoye nasledstvo. Sborniki I – 48. M., 1951 – 1990.
5. Gulyanskiy N.F. “Istoriya arxitekturi”. M., SI 1984 g.
6. Qadimgi dunyo va O‘rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma’ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

UYG‘ONISH DAVRI ARXITEKTURASI

MA’RUZA REJASI:

1. XIII asr oxirida Italiyada burjuaziya ishlab chiqarish munosabatlарining yujudga kelishi.
2. Insonparvarlik g‘oyalarining shakllanishi.
3. Uyg‘onish davri arxitekturasi nazariyasi.
4. Uyg‘onish arxitekturasining ilk davri.
5. Florensiyada XV asr arxitekturasi.
6. Pallasso tipidagi binolarning shakllanishi.
7. Uyg‘onish arxitekturasining yuksalgan davri.
8. Yuksak Uyg‘onish davri asoschilari.
9. Rimda yangi shaharsozlik ishlarining boshlanishi.
10. Venetsiya arxitektura maktabining shakllanishi.
11. Uyg‘onish arxitekturasining so‘nggi davri.
12. Mikelanjelo ijodi va Avliyo Pyotr sobori.
13. Palladio ijodi va uning ahamiyati.
14. Vinola ijodi va uning ahamiyati.
15. Vinola ijodi va saroy-bog‘ arxitekturasi.

TAYANCH IBORALAR:

Renessans arxitekturasi. Ma'rifatparvarlik harakati. Pallasso shakllanishi. Vinola va Palladio nazariyalari. Arxitekturada shakl va mazmun. Arxitektura haqida o'n kitob. Vatikan ansamblı. Avliyo Pyotr ibodatxonasi. Avliyo Mark maydoni. Dojlar saroyi. Mikelanjelo faoliyati. Arxitekturada san'atlar uyg'unlashishi (sintezi). Palladio faoliyati. Rotonda villasi. Vinola faoliyati. Saroy-bog' san'ati. Egrisimon va murakkab shakllar.

MA'RUZA MATNI

XV asrdan boshlab Yevropa davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tezlashadi. Ayniqsa, shaharlarda hunarmandchilik rivojlanib, turli ishlab chiqarish korxonalari tashkil topadi. Savdo-sotiq rivojlanib, dengizlar orqali xalqaro savdo aloqalari yo'lga qo'yiladi.

Ayniqsa, Italiyaning shimoliy hududlaridagi shahrlar – Florensiya, Venetsiya, Genuya, Milan va boshqalarda kapitalistik ishlab chiqarish kurtaklari XIV asr oxirlari – XV asr boshlarida va u bilan bog'liq madaniyat rivojlanishi, asosan, hunarmandchilik ishlab chiqarishining yuqori darajada rivojlanganligi va shaharlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq edi. Burjuazianing siyosiy hayotga kirib kelishi yangi mafkura – gumanizm harakatining paydo bo'lishiga olib keldi. Gumanizm mafkurasi o'rta asrlarga xos diniy mafkura va dunyoqarashga qarama-qarshi bo'lib, ma'rifatparvarlik va fuqarolik huquqlarini himoya qilish g'oyalari bilan bog'liq edi. Jamiyatda mavjud dunyoqarashning bu tarzda o'zgarishi madaniyat, adabiyot va ilmu fan sohalarida ham o'zgarish yasadi. Gumanistik harakat birinchi navbatda antik jamiyatda mavjud bo'lgan g'oya va aqidalarni qayta tiklashga qaratilgan bo'lib, shuning uchun bu davr madaniyati "Renessans" yoki "Uyg'onish" nomini olgan.

Uyg'onish davri madaniyati bir qator ulug' arxitektorlar, haykaltaroshlar va rassomlar hayoti va faoliyati bilan bog'liq. Ular jumlasiga Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo, Bramante, Brunellesko, Palladio, Vinola va boshqalar kiradi.

Uyg'onish davrida arxitektura nazariyasi nihoyatda rivojlanadi. Birinchi navbatda bu Qadimgi Rim arxitektura nazariyotchisi Vitruviy asarlarining topilishi bilan bog'liq edi. Bir qator olimlar Vitruviy asarlarini o'rganib chiqib, shu asosda o'zları arxitektura nazariyasini yanada rivojlantirishdi. Ular orasida Leon Battista Albertining "Me'morchilik to'g'risida o'nta kitob" nomli asarlari, Andrea Palladioning "Arxitektura to'g'risidagi to'rt kitob" nomli va Djakomo Vinolaning "Besh arxitektura orderlarini yasash

qoidalari” nomli asarlari shaharsozlik va arxitekturaning barcha sohalarini qamrab olib, amaliy ko‘rsatmalarga boy edi. Leonardo da Vinchingin bir qator asarlari qurilish mexanikasi muammolariga bag‘ishlangan edi. Leonardo da Vinci va Filaretning bir qator asarlari shaharsozlik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular markaziy kompozitsiya asosida shaharning yangicha tuzilishini taklif qilishgan. Palma-de-Nuova deb nomlangan Italiyadagi yangi shahar shu asosda bunyod etilgan.

Uyg‘onish davri arxitekturasi kompozitsion jihatdan va qurilish konstruksiyalari bilan gotika arxitekturasidan keskin farq qiladi. Uyg‘onish davri arxitekturasida order sistemalari va badiiy ifodalanish vositalarining antik arxitekturasiga xos an‘analari qayta tiklanadi va arxitekturada san‘atlar uyg‘unlashishi, ya’ni haykaltaroshlik va rassomchilik asarlarini arxitektura bilan uyg‘unlashirish vositalaridan keng foydalaniladi. Roman va gotika uslublarining rivojlanishi asosan ibodatxonalar qurilishi bilan bog‘liq. Uyg‘onish davri arxitekturasi rivojlanishi ko‘proq fuqarolik va jamoat binolari qurilishi bilan bog‘liq. Uyg‘onish davri arxitekturasida bino va inshootlar mutanosibligi, ularning kompozitsion jihatdan yuqori saviyada bajarilishi va dekorativ bezak elementlaridan keng foydalanishi bilan ajralib turadi. Uyg‘onish davri arxitekturasida gotika karkas tuzilishidan to‘liq voz kechilib, uning o‘rniga oddiy va tejamli bino va inshootlar tuzilishiga o‘tiladi. Bu davrda binolar devorlari asosan g‘ishtdan yasalib, ustki yopilmasi gumbaz va qobiqlardan bajarilgan. G‘isht devorlar suvoqlangan yoki marmar va boshqa toshlar bilan qoplangan. Uyg‘onish davri arxitekturasining badiiy ifodalanish vositalari asosan quyidagilardan iborat: orderli ustunlardan tashkil topgan arkada; imoratlarda pilyastr va derazalar atroflarini o‘simlik va geometrik shakldagi bezaklar bilan bezatilishi; bino tashqi devorlarining “rust” shaklida bo‘linishi va bezatilishi; tom yopilmasining oldinga chiqib turgan karniz bilan bezatilishi va boshqalar.

Italiyada Uyg‘onish davri arxitekturasi uch bosqichdan tashkil topgan; erta bosqich – XV asr: yuqori bosqich – 1500–1530-yillar; so‘nggi bosqich – 1530–1580 yillar.

Birinchi bosqich rivojlanishi asosan Toskana viloyati va uning asosiy shahri bo‘lgan Florensiyadagi qurilishlar bilan bog‘liq. Florensiya shahrida XV asr boshlarida boy-badavlat oilalar tomonidan yangi turdag'i turarjoy imoratlari – “pallasso” qurilishi keng tarqaladi. Qasr turidagi bu imoratlari 2–3 qavatdan iborat bo‘lib, to‘g‘ri burchakli reja asosida qurilgan. Bu binolar simmetrik kompozitsiyaga ega bo‘lib, qavatlar orasidagi bo‘linish tashqi ko‘rinishda yaqqol ifodalangan. Derazalar bir xil o‘lchamda bajarilib, aniq metrik qator asosida joylashtirilgan. Arxitektor Mikelachcho loyihasi bo‘yicha XV asr o‘rtalarida qurilgan Medichi pallassosi

Florensiyada Uyg'onish uslubining ilk namunalaridan sanaladi. Bu pallasso ichki hovlisi atrofi ustunlari galereya bilan o'ralgan. Galereya ustida 2 va 3-qavatlarda ham ochiq ayvonlar joylashtirilib, ular orqali turli xonalarga kirilgan. Pallassoning ichki tuzilishi o'zining yengil kompozitsiyasi bilan ajralib turadi, tashqi ko'rinishi esa biroz og'ir va mahobatli kompozitsiyaga ega.

L.B.Alberti loyihasi bo'yicha 1404 – 1472-yillarda Florensiyada qurilgan Ruchellai pallassosi kompozitsion jihatdan boshqa pallassolardan keskin farq qiladi. Bu bino 3 qavatdan iborat bo'lib, binoning tashqi ko'rinishida orderlardan foydalanilgan. Pilyastralarga order shakli berilib, har qaysi qavatda turli orderlardan foydalanilgan.

Florensiyada pallassolardan tashqari boshqa turdag'i jamoat binolari qurilishi ham keng ko'lamma olib borilgan. Uyg'onish davri arxitekturasi asoschilaridan biri Filippo Brunelleski loyihasi asosida qurilgan Ospedale Innochenti – bolalarni tarbiyalash saroyi bu davrning eng yuksak arxitekturaviy yodgorligidir. Ikki qavatlari bu binoning tashqi ko'rinishi yengil va chiroyli ustunli ayvondan tashkil topgan. 1444 – 1479-yillarda qurilgan bu bino Uyg'onish davri arxitekturasi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Uyg'onish davri arxitekturasida markaziy kompozitsion tuzilishga ega ibodatxonalar keng tarqaladi. Florensiyadagi Santa Mariya del Fore ibodatxonasi qurilishi 1296-yilda arxitektorlar Kambio va Talenti loyihasi bo'yicha boshlangan, ammo XV asrgacha tugallanmagan edi. Binoni tugallash uchun tanlov o'tkaziladi va bu tanlovda F.Brunelleski loyihasi g'olib deb topiladi. Bu loyiha bo'yicha diametri 42 metrni tashkil qiluvchi gumbaz yopilmasini qurish kerak edi. Gumbaz uchlik shaklda bo'lib, balandligi 31,3 metr va yoy radiusi 36,2 metrni tashkil qiladi. Gumbaz 2 ta qatlamdan iborat bo'lib, tashqi qatlam qalinligi 2,4 – 2,1 metrni tashkil qiladi (qatlamlar qalinligi yuqoriga qarab kamayadi). Ikki qatlam orasida bo'shilq bo'lib, qatlamlar sakkizta asosiy va 16 ta oraliq devorchalar bilan bog'langan. Gumbaz qurilishi 1420-yilda boshlanib, 1471-yilda tugallangan. Gumbaz bilan birga binoning umumiy balandligi 114,1 metrni tashkil qiladi. Bu gumbaz qurilishida qadimgi Eron gumbazlari tuzilishi (Sultoniyadagi maqbara), Qadimgi Rim va Vizantiya tajribasidan keng foydalanishdi. Bu gumbaz qurilishi arxitekturaning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

F.Brunelleski ijodining yana bir namunasi Passi kapellasi 1430 – 1443-yillarda Florensiyada qurilgan. Markaziy kompozitsiya asosida qurilgan bu ibodatxona qurilishida order sistemalaridan keng foydalanilgan. Binoning bosh tarzi kolonnalar bilan bezatilgan galereyadan tashkil topgan. Kirish peshtoqida 6 ta korinf orderli ustunlar ishlataligan.

Venetsiya shahrida XV asrning II yarmida qurilgan San-Marko saroyi arxitektor Petro Lombardo loyihasi mahsulidir. Shahar savdogarlari buyurtmasi asosida qurilgan bu bino 3 qavatdan tashkil topgan. Birinchi qavatda orderlar asosida ustunli ayvon tashkil qilingan. 2 va 3-qavatlarda orderlar pilyastraga shaklida bajarilgan.

Uyg'onish davri arxitekturasi yuqori bosqichi juda qisqa vaqt – hammasi bo'lib 30 yildan iborat. 1500–1530-yillarda Rim shahri madaniyat markaziga aylanadi va bu yerda katta qurilish ishlari olib boriladi. Rim shahrida katolizm markazi Vatikan joylashgan bo'lib, bosh rohib – "papa" shu yerda yashaydi. Papa Yuliy II va Lev X davrlarida Rim shahrida buyuk me'morlar – Rafael, Mikelanjelo, Bramante, Sangallo va boshqalar ish olib borgan.

Uyg'onish davri arxitekturasi bu bosqichda mukammal shakl va kompozitsiyaga ega bo'lib, bino va inshootlar ichki va tashqi ko'rinishida mukammallikka erishiladi. Pallazzo jamoat binosi sifatida to'liq shakllanadi va uning ichki hovli ko'rinishi bilan tashqi ko'rinishi orasidagi tafovut yo'qotiladi. Orderli kompozitsiyalar aniq bir tizimga tushiriladi va mahobatli ifodalanish xususiyati kasb etadi. Shaharlarda aniq reja asosida muntazam ansamblar barpo etiladi. Shahar tashqarisida villa – tashqi saroylar boshlanadi va ular to'liq me'moriy kompleks sifatida shakllanadi.

Uyg'onish davri arxitekturasi yuqori bosqichiga arxitektor Anjelo Bramante (1444–1514) tomonidan asos solinadi. Rim papasi Bramanteni 1499-yilda Milandan Rimga taklif qiladi va Vatikan saroyini kengaytirish va qayta qurish loyihasini ishlab chiqishni unga topshiradi. Bramante loyihasi bo'yicha qurilgan Kanchelleria (Devonxona) binosi saroy qurilishidagi eng yuksak namunalardan hisoblanadi. Bu inshoot tarh tuzilishida 2 ta ichki hovli atrofida ustunli arka bilan o'ralgan mahobatli va ulug'vor binolardan iborat. Keng ichki hovli, katta va qulay o'tish zinapoyalari va order ustunlari inshoot tashqi ko'rinishi va hovli ko'rinishlariga o'ziga xos ulug'vorlik bergen.

Bramante loyihasi bo'yicha 1502-yilda Rim shahrida qurilgan Tempetto ibodatxonasi gumbazli rotonda shaklida bo'lib, doriy orderi ustunlari bilan ayvon qilib o'ralgan. Orderli ustunlar mutanosibligi, plastikaga boy kompozitsion yechim va badiiy ifodalanish vositalarining tektonik jihatdan aniq xususiyatlari bu binoga o'ziga xos husn bergen.

Bramante o'z loyihasi bilan Avliyo Pyotr sobori uchun o'tkazilgan tanlovda g'olib chiqdi. Papa Yuliy II buyurtmasi asosida quriladigan bu ibodatxona Uyg'onish davrining eng katta va eng mukammal inshooti bo'lishi kerak edi. Qurilish ishlari ko'lami keng bo'lganligi sababli Bramante hayotligida binoning faqat devorlari va gumbazosti ustunlari tugatildi. Planda Bramante loyihasi bo'yicha ibodatxona to'rtburchak va

uning ustiga joylashtirilgan salb shakllaridan iborat edi. Binoning markaziy qismi ulkan gumbaz bilan yopilishi kerak edi. Bramante o'limidan keyin Avliyo Pyotr ibodatxonasi qurilishi Mikelanjeloga topshirildi. Mikelanjelo Bramante loyihasiga ozroq o'zgarishlar kiritadi va gumbaz qurilishini asosan oxirigacha etkazadi.

Mikelanjelo loyihasi bo'yicha tugallangan Avliyo Pyotr ibodatxonasi gumbazli markaziy kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, bosh fasad qismi korinf orderi ustunlari bilan bezatilgan peshtoqqa ega. Binoning tashqi ko'rinishlari va ichki tuzilishi plastik jihatdan yaxshi ishlab chiqilgan va turli dekorativ elementlar— karniz, har xil tasmashakl detallar va haykallar bilan bezatilgan. Ibodatxona ichki rangtasviri va Vatikan lodjiyalarini rangtasvir asarlari bilan bezatish buyuk rassom Rafael Santiga topshirildi.

Mikelanjelo Florensiya shahridagi San-Lorenso cherkovi qurilishini ham oxiriga yetkazadi. Bu cherkov qurilishi Brunelleski loyihasi asosida boshlangan edi. Bu cherkov kompleksiga kiruvchi Medichi kappellasi (maqbarasi) Mikelanjelo tomonidan qayta qurilib, binoning ichki tuzilishida haykaltaroshlik asarlardan keng foydalanilgan. Plastik jihatdan ordenli ustunlar va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan Medichi kappellasi qurilishi 1520-yilda tugatilgan.

Bu bosqichda Venetsiya shahrida qurilgan binolardan shahar markazidagi Avliyo Mark maydonida qad ko'targan kutubxona alohida e'tiborga loyiq. Yakopo Sansovino loyihasi bo'yicha qurilgan kutubxona Dojlar qasri qarshisida joylashtirilib, maydon umumiy ansambliga uyg'unlashtirilgan. Ikki qavatli kutubxona binosining bosh tarzi orderli arkada bilan bezatilgan. Kompozitsion jihatdan kutubxona binosi yengil ochiq qilib ishlangan va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan.

Bu davrda qurilgan pallassolardan Rim shahridagi Farneze pallassosi ajralib turadi. Antonio Sangallo loyihasi bo'yicha 1589-yilda qurilishi tugallangan bu bino mahobatli orderli galereya bilan bezatilgan va umuman binoning tashqi kompozitsiyasi tantanali va ulug'vor ko'rinishga ega.

Kechki Uyg'onish davri arxitekturasi (1530—1580) ikki yo'nalish rivoljanishi bilan bog'liq: birinchi yo'nalish orderli arxitektura, ya'ni klassik an'analar rivojlanishi bo'lsa, ikkinchi yo'nalish bino va inshootlarning boy qilib bezatilishi, ya'ni dekorativizmdan iborat edi. Bu davrning eng yirik arxitektorlari Djakomo Vinola va Andrea Palladiolar edi. Ular birinchi navbatda o'zlarining nazariy asarlari bilan mashhur edilar. Vinolaning "Besh order qoidalari" va Palladioning "Arxitektura to'g'risida to'rt kitob" asarlardan to XX asrgacha foydalanib kelindi.

Vinolaning amaliy ishlardan 1559-yilda Rim shahrida qurilgan Papa Yuliy III villasi o'ziga xos kompozitsion tuzilishi bilan ajralib turadi.

Papa Yuliy III ning shahar tashqarisidagi hovlisi Vinola tomonidan bo'ylama o'q bo'yicha rivojlangan kompozitsiya asosida loyihalanib, asosan ikkita ichki hovli, bog' va imoratlardan tashkil topgan.

Vinolaning yana bir mashhur loyihasi bu Rim shahridagi II-Djezu cherkovidir. Bu bino Vinola o'limidan keyin uning shogirdi Djakomo della Porto tomonidan qurib bitkaziladi. Bu bino kompozitsion jihatdan bazilika va markaziy gumbazli ibodatxonalar tuzilishini o'z ichiga qamrab olgan. Bu cherkovda ishlatalig'an badiiy ifodalananish vositalari ko'proq dekorativizm yo'nalishiga asoslanganligi uchun, II-Djezu cherkovi barokko arxitekturaviy uslubining ilk namunalaridan sanaladi.

Andrea Palladioning amaliy arxitekturaviy faoliyati ko'proq Vichensa shahri bilan bog'liq bo'lgan. Andrea Palladio loyihalari bo'yicha Vichensada bir necha pallasso binolari va shahar tashqarisida villa binolari qurilgan. 1576-yilda qurilgan pallasso Kapitaniato katta kompozit orderli ustunlari bilan ajralib turadi. Binoning birinchi qavati katta lodjiyadan iborat bo'lsa, ikkinchi qavatda asosiy xonalar joylashgan. Orderli ustunlar pilyastraga shaklida ikki qavatga ko'tarilgan.

Palladio villalaridan Vichensa yaqinidagi Rotonda villasi butun dunyoga mashhur asarlardan sanaladi. Markaziy kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan bino tarhi kvadrat shaklida bo'lib, uning to'rt tomonidan orderli kolonnalardan tuzilgan galereya (ayvon) bilan bezatilgan. Binoning markaziy qismi gumbaz yopilmaga ega. Bu villa o'zining yuksak kompozitsion tuzilishi, mutanosibligi va shaklining uyg'unligi bilan kuzatuvchini mahliyo etadi.

Andrea Palladioning ijodiyoti keyinchalik klassitsizm arxitekturaviy uslubining shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Fransiyada Uyg'onish davri uslubi Italiyaga nisbatan qariyb 100 yil keyinroq, XVI asrdan boshlab rivojlangan. Fransiyada bu uslub asosan qiroq qasrlari va kyoshklar qurilishi bilan bog'liq.

Bunday binolardan 1526—1559-yillarda qurilgan Shambor qiroq kyoshki va Shantobrian kyoshki ajralib turadi. Parijdagi Luvr qiroq qasri XVI asrda arxitektor P.Lesko va haykaltarosh J.Gujon loyihasi asosida Sena daryosi bo'yida qurilgan. P.Lesko rahbarligida Luvr qasrinining janubiy va g'arbiy tomonlari qurib bitkaziladi. Luvr qasrinining tashqi ko'rinishi arxitekturaviy orderlarning mutanosib shakli va turli diniy syujetlarga asoslangan relefli tasvir bilan bezatilgan.

Angliyada Uyg'onish davri arxitekturaviy uslubi XVI asr boshlarida boshlanib, XVII asr — sanoat revolyutsiyasi boshlangunga qadar davom etadi. Bu uslubda qurilgan binolardan Uollaton-xoll kyoshki XVI asr oxirlarida qurilgan. London shahrida XVII asrning birinchi yarmida qurilgan qiroqning Uayt-xoll qasri arxitektor Inigo Dions loyihasi

bo'yicha qad ko'tardi. Bu bino tashqi ko'rinishlari kompozitsiyasi order sistemasiga asoslangan. I.Djonsning yana bir ma'lum loyihasi qirolicha uchun qurilgan Grinvichdagi Villa qurilishi bilan bog'liq.

Niderlandiyada Uyg'onish davri uslubi shaharlarda qurilgan turli ishlab chiqarish sexlari, turarjoy binolari va jamoat binolari bilan bog'liq. Jamoat binolari orasida ratusha yoki Fransiyada otel-de-vill nomini olgan shahar boshqaruv organlari binolari keng tarqaladi. Antverpen shahrida XVI asr o'rtalarida qurilgan ratusha binosi arxitektor Kornelis Floris loyihasiga asoslangan.

Ispaniyada Uyg'onish davti arxitekturaviy uslubi asosan XVI asrda keng tarqaladi. Ispaniyada bu uslub Mavritaniya musulmon arxitekturasi va gotika uslubining uyg'unlashib rivojlanishiga asoslangan. Ispaniyada Uyg'onish davri arxitekturaviy uslubi plateresco (zargarlik mahorati) nomini qabul qiladi, chunki ispaniyalik me'mor va ustalar binolarning dekorativ bezatilishini zargarona mahorat bilan bajarishgan. Bunday binolarga XV asr oxirlarida qurilgan Gvadalaxaradagi gersog Infantado va Sevilya shahrida 1527–1534-yillarda qurilgan ratusha binolari misol bo'la oladi.

1563 – 1584-yillarda qirol Filiipp II uchun qurilgan Eskorial qasri arxitektor Xuan Battista Erreraning eng yaxshi asari sanaladi.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. XIV – XV asrlarda Yevropa ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qanday o'zgarishlar amalga oshdi?
2. Uyg'onish davri arxitekturasi nimaga asoslangan?
3. F.Brunellesko Florensiyada qanday binolarni loyihaladi?
4. Pallasso degani nima?
5. Arxitekturada shakl va mazmun muammolari nima?
6. Rim Papasi arxitekturaga ko'rsatgan ta'siri nimada ifodalanadi?
7. Yuksak Uyg'onish davri asoschilari kim?
8. Venetsiyada Avliyo Mark maydoni qanday shakllanadi?
9. Avliyo Pyotr ibodatxonasi arxitektori kim?
10. Mikelanjelo ijodida arxitekturaviy shakllar qanday talqin etilgan?
11. Saroy-bog' arxitekturasiga kim tomonidan asos solingan?
12. A.Palladio ijodi qaysi uslub shakllanishiga olib keldi?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T. I – II (pod obshey redaksiyey B.P.Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M., "Izobrazitelnoye iskusstvo". 1980 g.

4. Arxitekturoye nasledstvo. Sborniki 1 – 48. M., 1951 – 1990.
5. Gulyanskiy N.F. "Istoriya arxitekturi". M., SI 1984 g.
6. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI XVII – XIX ASRLAR ARXITEKTURASI

MA'RUZA REJASI:

1. Barokko uslubi shakllanishidagi sharoit va omillar.
2. Rim shahri Del-Popola va Avliyo Pyotr sobori oldidagi maydonlarning shakllanishi.
3. Barokko davrida saroy-bog' san'ati.
4. Vinola ijodining barokko uslubiga ta'siri.
5. Arxitektorlar K.Fontana va Raynaldi ijodi.
6. Bernini va uning "kolonnadasi".
7. Barromini va uning "Chorrahadagi to'rt favvora" ansamбли.
8. Fransiyada barokko uslubi.

TAYANCH IBORALAR:

Barokko arxitekturasi. II-Djezu ibodatxonasi. Del Popola maydoni. Avliyo Pyotr maydoni. "Chorrahadagi to'rt favvora" ansamбли. Interyerda rokoko uslubi. Plataresko uslubi. Otel-de-vill. Ratusha. Dvinger ansamбли.

MA'RUZA MATNI

XVII – XIX asrlarda Yevropa davlatlarida feodalizm o'zining so'nggi bosqichini bosib o'tadi. Bu davrda kapitalistik munosabatlar shakllanadi. Ammo kapitalistik tuzum jamiyatda hukmron vaziyatni egallashi uchun qariyb 200 yil va uch burjua-demokratik revolyutsiyalari amalga oshirildi: Niderlandiyadagi 1566-yil revolyutsiyasi, 1642-yildagi Angliya va 1789-yildagi Fransiya revolyutsiyalari.

Bu davr arxitekturasida 2 asosiy uslub – barokko va klassitsizm uslublari shakllanib rivojlandi. Barokko uslubi Italiyada shakllandи va rivojlandi. Klassitsizm uslubi esa Angliya, Niderlandiya va Fransiyada shakllandи va rivojlandi.

Bu davrda arxitektura rivojlanishi uchun qurilish muhandisligi fanining shakllanishi katta ta'sir ko'rsatdi va bino-inshootlarning muhandislik hisob-kitoblarining zamonaviy nazariyasiga asos solinadi. Belidor nomli olimning 1729-yilda chop etilgan "Muhandislik fani" nomli asari qurilishning

nazariy uslublari to‘g‘risidagi ilk kitoblardan edi. Injener Rondole “Panteon gumbazining qurilish tarixi” va “Qurilish san’ati” nomli kitoblarida arxitektura va qurilishning turli sohalarini yoritgan.

Ammo ilmiy-texnik fikr rivojlanishi XVII—XIX asrlar arxitekturasida keskin burilish yasagani yo‘q. Hattoki XVIII asrdan boshlab metall konstruksiyalarining ishlatalishi ham arxitekturaviy shakl hosil bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatgani yo‘q. Yangi konstruktiv yutuqlar arxitektura imkoniyatlarini kengaytiradi, ammo bu ta’sir kompozitsion jihatdan an’anaviy shakllarning o‘zgarishiga olib kelgani yo‘q.

G‘ARBIY YEVROPA DAVLATLARIDA BAROKKO USLUBI

Barokko arxitekturaviy uslubi Uyg‘onish davri arxitekturasi rivojlanishidan kelib chiqadi. Barokko uslubi XVI asr oxirlaridan boshlab rivojlanadi va XVII—XVIII asrlarda barcha Yevropa davlatlarida tarqaladi.

Barokko uslubining vatani Italiya bo‘lib, Mikelanjelo bu uslub asoschilaridan sanaladi. Barokko uslubining asosiy xususiyatlari bino va inshootlarning mahobatli shakllarda yechilishi va buning uchun ichki va tashqi ko‘rinishlarining plastik jihatdan boy qilib ishlatalishi, shakllarning dinamik shiddatligi, murakkab va egri chiziqli shakllardan hamda arxitekturaviy dekorativ va haykaltaroshlik asarlaridan keng ko‘lamda foydalanishdan iborat.

Barokko arxitekturasida plastik jihatlar bino va inshootlar tektonik jihatlaridan yuqori qo‘yiladi. Bino va inshootlar arxitekturaviy ko‘rinishlari yuqori emotsiyal hissiyot hosil qilishi uchun ularning ichki strukturaviy tuzilishi tashqi hajmlarga mos tushmaydi. Barokko uslubida bino va inshootlarning konstruktiv tuzilishi dekorativ qismlar yordamida tuzilib, bino va inshootlarda badiiy ifodalanish vositalari yasama xarakterga ega. Barokko arxitekturaviy uslubida turli san’atlar, ya’ni haykaltaroshlik va rassomchilikni arxitekturaga uyg‘unlashtirish o‘rniga, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish keng tarqaladi.

Italiyada barokko uslubining eng yaxshi namunalari XVII asr arxitektorlari— Lorenso Bernini, Gvarino Gvarini, Franchesko Barromini, Karlo Reynaldi, Valdasarre Longena va boshqalar tomonidan yaratilgan. Karlo Maderna nomli arxitektor barokko uslubida Rimdag‘i Avliyo Pyotr sobori qurilishini tugatadi. Mikelanjelo loyihasi bo‘yicha qurilgan markaziy kompozitsiyali ibodatxonaga asosiy fasad qismi tomonidan Narteks quriladi. Madernadan keyin bu ibodatxona qurilishi arxitektor Lorenso Bernini qo‘liga o‘tadi. Bernini ibodatxona oldida ulkan maydon hosil qilib, doriy orderi asosida kolonnada qurdiradi. Balandligi 20 metrli kolonnada simmetrik kompozitsiya asosida tashkil qilinib,

maydonda asosiy o'q bo'yicha ulkan ibodatxona joylashgan. Bu maydon o'sha paytdagi Italiyaning eng yirik ansambl edi.

Franchesko Barromini loyihasi bo'yicha qurilgan Rim shahridagi San-Andrea cherkovi (1658) tarh tuzilishida ellips shaklli asosiy bino va uning oldida yarim ellipsshakl peshtoqdan tashkil topgan.

Pallasso qurilishiga Turin shahrida Gvarini loyihasi bo'yicha qurilgan Karanyano pallassosi misol bo'la oladi. Pallasso markaziy qismi egri shakl bino bo'lib, zinapoyalar ham egri elliptik shaklda bajarilgan. Binoning tashqi ko'rinishi pilyastralari va boshqa dekorativ qismlar bilan bezatilgan.

Arxitektor B.Longena loyihasi bo'yicha Venetsiya shahrida qurilgan Pezaro pallassosi tashqi ko'rinishi haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilganligi bilan ajralib turadi.

Bu davrdagi Italiya villalari kompozitsion tuzilishi bo'yicha o'ziga xos san'at namunalarini bo'lib xizmat qilishi mumkin. Villa asosiy binosi balandlikda joylashtirilib, uning bog' tarzi tomonidan haykallar bilan bezatilgan suv havzasi va grot (g'or shakl) galereyalari joylashtirilgan.

Aldobrandini villasi yuqoridagi tuzilishi bo'yicha qurilgan binolarga misol bo'la oladi. Binoning old tomonida zinali pandus joylashtirilib, o'ng va chap qanotlari bo'yicha kirish qismga ko'tarilish mumkin. Binoning orqa, bog' tomonida yarim aylana maydoncha va uning atrofida galereya joylashtirilgan.

Aldobrandini villasi yuqoridagi tuzilishi bo'yicha qurilgan binolarga misol bo'la oladi. Binoning old tomonida zinali pandus joylashtirilib, o'ng va chap qanotlari bo'yicha kirish qismga ko'tarilish mumkin. Binoning orqa, bog' tomonida yarim aylana maydoncha va uning atrofida galereya joylashtirilgan. Suv havzalari kaskad qilib joylashtirilgan va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan.

Fransiyada barokko uslubi XVII asr boshlarida, qiroq Lyudovik XIII hukmdorligi davrida boshlanadi. Arxitektorlar Jak Lemerse va Fransua Mansar qiroq buyurtmasiga binoan ish olib borishgan. Jak Lemerse Luvr qasrini kengaytirish loyihasini bajardi va amalga oshirdi. Bu loyiha bo'yicha qasr g'arbiy qismi ikki martaga uzaytirildi va shimoliy korpuslar qurilishi amalga oshirildi.

Jak Lomarsening yana bir katta loyihasi qiroqlining Parij yaqinidagi Versal bog'-saroy kompleksi qurilishi boshlanishi bilan bog'liq edi. Versalda 1620–1630-yillarda uncha katta bo'limgan va tarixda II-shakl tuzilishiga ega saroy qurildi.

Fransua Mansar loyihasi bo'yicha XVII asr o'rtalarida Mezon-Lafott kyoshki qiroq buyurtmasiga binoan quriladi. Bu kyoshk ichki ko'rinishlari barokko uslubida ishlangan eng birinchi binolardan sanaladi.

XVII asr o'rtalarida arxitektor Lui Levo Luvr qasr qurilishini davom ettirdi. Levo arxitektor Lenotr va rassom Lebren bilan birgalikda Veo-le Vikont bog'-saroy kompleksi qurilishini amalga oshiradi. Bu yerda davlat arboblari uchun rasmiy rezidensiya va muntazam bog' ansambl yaratildi. Bu ansambl fransuz bog'-saroy ansambl yuksak namunalaridan hisoblanib, keyingi davr bog'-saroy qurilishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Versal bog'-saroy ansamblini qayta qurish va kengaytirish loyihasi XVII asrdagi eng ulug'vor ishlardan sanaladi. Qirol Lyudovik XIV buyurtmasiga binoan arxitektorlar Levo, Lebren va Lenotrlar ulkan tantanali marosimlar saroyi va muntazam bog' ansambl yaratdilar.

XVII asr oxirlarida barokko uslubining oxirgi davri – "rokoko" nomini olgan davri Fransiyada keng tarqaladi. Rokoko uslubi asosan bino va inshootlar interyerlarining bezatilishida keng ishlatilgan. Arxitektor Kurton loyihasi bo'yicha qurilgan Parijdagi Matinon oteli interyer bezaklari rokoko uslubida bajarilgan. Bu uslubda interyerlar juda katta mahorat bilan o'simlikshakl girihsalar bilan bezatilgan va aksariyat hollarda oltin va kumush bilan qoplangan.

Ispaniyada barokko uslubi asosan XVII asrda keng tarqaladi. Arxitektor Xose Churriger va uning shogirdlari bino va inshootlar loyihalarini bajarish bilan bir qatorda barokko uslubiga xos bezatuvchilik amaliy ishlarini ham bajarishadi. Salamanka shahridagi Iyeziuitlar kollegiyasi binosi, Granadagi Chertoza monastiri va Toledo shahridagi El-Transparente sobori barokko uslubida bajarilgan. Valensiyada 1740-yili qurilgan Markiz Dos Aguas saroyi interyerlari bezatilishi rokoko uslubida bajarilgan. Gollandiya va Belgiyada barokko uslubi rivojlanishida mashhur rassom P. Rubensning xizmatlari kattadir. Italiyada o'z mahorati va malakasini oshirgan P. Rubens vataniga qaytishi bilan barokko uslubiga xos xususiyatlarni arxitektura sohasida keng tarqalishi uchun katta xizmat qiladi. Birinchi navbatda P. Rubens o'zi uchun qurdirgan Antverpen shahridagi uy barokko uslubining namunalaridan hisoblanadi. Rubens shogirdi arxitektor Luka Faydberg Luven shahridagi Mixail cherkovini barokko uslubida loyihalaydi va qurdiradi.

Germaniyada barokko uslubining keng tarqalishi shu yerga kelib ishlagan fransiyalik va italiyalik arxitektorlar faoliyati bilan bog'liq. XVIII asr birinchi yarmida qurilgan Vyurtburg bog'-saroy ansambl shakllariga Versal ansambl ta'siri seziladi. Saksoniya viloyati markazi Drezden shahri XVII va XVIII asrlarda arxitektura va san'at markaziga aylandi. Drezden shahrida 1711–1722-yillarda arxitektor Metteus Pappelman loyihasi bo'yicha Svinger saroyi barokko uslubida quriladi. Ikki qavatli Svinger saroyining tashqi ko'rinishi va interyerlari plastik jihatdan katta ustalik va mahorat bilan bezatilgan.

Berlin shahrida barokko uslubida ishlagan arxitektor Andreas Shlyuger 1698-yilda qiroq saroyini qayta qurish va kengaytirish loyihasini tayyorladi va amalga oshirdi.

Avstriyada barokko uslubida qurilgan imoratlar ichida Vena shahridagi Belveder qasri ajralib turadi. Bu bino arxitektor Iogann Gildebrandt loyihasi bo'yicha 1721–1723- yillarda qurilgan bo'lib, ichki va tashqi ko'rinishlari boy bezatilishi bilan xarakterlanadi.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Barokko uslubining badiiy ifodalanish vositalari nimaga asoslangan?
2. Sotsial xayolparast (utopist) Kampanella qanday shahar loyihasini tuzadi?
3. Italiyada "villa" tipidagi binolar qanday tuzilishga ega?
4. Luvr qasri qurilishida barokko uslubi ishlataliganmi?
5. Versal saroy-bog' ansambl qurilishi qachon boshlangan?
6. Ispaniyada barokko uslubi qanday xususiyatlarga ega?
7. Barokko uslubi Yevropaning yana qaysi davlatlarida tarqalgan?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M. "Izobrazitelnoye iskusstvo". 1980 g.
4. Arxitekturnoye nasledstvo. Sborniki 1 – 48. M., 1951 – 1990.
5. Gulyanskiy N.F. "Istoriya arxitekturi" M., SI 1984 g.
6. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARIDA KLASSITSIZM USLUBI

MA'RUDA REJASI:

1. Klassitsizm uslubi shakllanishi shart-sharoitlari.
2. Inigo Djons va Angliyada klassitsizm uslubi.
3. F.Monsar va Fransiyada klassitsizm uslubi.
4. Parijdagi Luvr qasri qurilishi.
5. Saroy-bog' ansamblari yaratilishi.
6. Fransiyada Arxitektura akademiyasining ochilishi.
7. Parij va Versaldagi ulkan shaharsozlik qurilishlari.
8. Rokoko uslubining kelib chiqishi.
9. XVIII asr klassitsizm uslubining inqirozi.
10. Ampir usulining asoslari.
11. XIX asr Yevropa va AQSH arxitekturasi rivojlanishi.

TAYANCH IBORALAR:

Klassitsizm uslubi. Burjua falsafasi. Jan-Jak Russo. Inigo Djons faoliyati. Grinvichdagagi Kvin-xauz. Londondagi Banketing-xauz. Kovent-Garden maydoni. Avliyo Pavel ibodatxonasi. Fransua Mansar faoliyati. Mansarda uylari. Luvr qasri. Luvr qasrining Sharqiy tarzi. Versal ansambl. Versal qasri. Tyuilri bog'lari. Yelisey maydonlari. Kelishuv maydoni. Vandom maydoni. Royyal ko'chasi. Arxitektura akademiyasi. Blondel nazariyasi. M.A. Loje nazariyasi. Grand-pri mukofoti. Parijdagi Panteon (Avliyo Jenevyeva cherkovi). Ampir uslubi. Yulduz arkasi. Xotiraviy Vandom minorasi. La Madlen cherkovi. Tomas Djeferson faoliyati. Vashingtondagagi Kapitoliy.

MA'RUZA MATNI

Klassitsizm arxitekturaviy uslubining paydo bo'lishi asosan Italiya va uning poytaxti Rim shahriga borib taqaladi. Arxitektura san'atidagi g'oyaviy va nazariy izlanishlar Italiyadan boshlanadi, chunki antik madaniyat yodgorliklari xuddi shu yerda jamlangan edi.

Antik madaniyati va san'atlarini qayta tiklash Uyg'onish davrida boshlanib, XVIII asrda esa bu an'analar yanada yuqoriq darajada tadqiq etiladi va mazmun jihatidan chuqurroq ma'no kasb etadi. Falsafiy jihatdan klassitsizm uslubi shakllanishida J.J. Russoning 1750-yilda chop etilgan "San'at haqida so'zlar" va Vinkelman tomonidan 1750-yilda chop etilgan "Qadimgi san'at tarixi" asarlari katta ahamiyatga ega.

Amaliy jihatdan klassitsizm arxitekturaviy uslubi shakllanishi A.Palladio va uning shogirdlari faoliyati bilan bog'liq edi. A.Palladio loyihasi bo'yicha XVI asr oxirlarida Vichensiya shahrida qurilgan Rotonda villasi klassitsizm uslubining ilk namunalaridan hisoblanadi. Italiyaning Milan shahrida arxitektor Djuzeppe Permarini loyihasi asosida qurilgan La-Skala teatri binosi klassitsizmning eng mashhur binolaridan biridir.

Klassitsizm uslubi, ayniqsa, Angliya, Gollandiya va Fransiya davlatlarida tez rivojlanadi. Bu davlatlarda klassitsizm uslubining shakllanishi, asosan, kapitalistik ishlab chiqarish usulining rivojlanishi va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq edi.

Klassitsizm arxitekturaviy uslubi jamiyatda paydo bo'lgan yangi sinf – burjuaziyaning mafkuraviy qarashlari va markazlashgan milliy davlatlar siyosatining ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

Angliyada klassitsizm uslubi mashhur arxitektor Inigo Djons faoliyati bilan bog'liq edi. Bu uslubda qurilgan binolardan I.Djons tomonidan loyihalangan va 1616 – 1635 yillarda Londonda qurilgan Banketing-xauz alohida ahamiyatga ega. Bu binolar o'zining hajm-fazoviy yechimidagi ratsional tuzilishi va order sistemalari ishlatalishidagi mutanosiblik bilan ajralib turadi. Binolar umumiy kompozitsiyasi osoyishtalik va geometrik

jihatdan aniqligi bilan xarakterlanadi. Grinvichda 1698–1729-yillarda qurilgan gospital binosi ham xuddi shu uslubda qurilgan. Bu binoning loyihasi I.Djons shogirdi Kristofer Ren tomonidan ishlangan.

I.Djons London shahrini qayta qurish ishlarini boshlab, bir necha yirik shahar maydonlari ansamblari loyihasini bajaradi. 1630-yilda bajarilgan Kovent-Garden maydoni ansambli shular jumlasiga kiradi. Bu ishlarning davomchisi Ren bo‘lib, u 1666-yilda London shahrini to‘liq rekonstruksiyalash loyihasini bajardi. Bu loyiha asosida London markazida 1675–1717-yillarda ulkan Avliyo Pavel sobori quriladi. Bu bino keyinchalik London shahri umumiy kompozitsiyasida asosiy dominantaga aylanadi.

Nazariy jihatdan Angliyada klassitsizm arxitekturaviy uslubi rivojlanishida arxitektor Vilyam Kentning ta’siri katta hisoblanadi. Kent klassitsizm asoschisi A.Palladio asarlari bilan yaxshi tanish bo‘lib, uning nazariy qarashlarini amalga tadbiq qilishda o‘z hissasini qo‘shadi. V.Kent loyihasi bo‘yicha XVIII asr boshlarida qurilgan Xolkxon kyoshki tuzilishi va kompozitsiyasi Palladio loyihalagan Rotonda villasiga o‘xshaydi.

XVIII asr ikkinchi yarmida Angliyada klassitsizm uslubi aka-uka Robert va Djeyms Adamlar arxitekturaviy faoliyatida rivojlantirildi. Ular loyihalagan binolardan 1759 – 1785-yillarda qurilgan Kedlston-xoll qasri qurilishini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu bino bosh fasadi antik an’analarga ko‘ra tantanali peshtoq va order sistemalari bilan bezatilgan.

Fransiyada klassitsizm uslubining asoschilaridan Fransua Mansar xizmatlari, ayniqsa, katta e’tiborga loyiqidir. F.Mansar shaharlarda qurilish uchun mo‘ljallangan ko‘p qavatli binolar loyihasini ishlab chiqadi. Bu turdagи uy-joy binolari “otel” nomi bilan mashhur bo‘lib, qulay va shinam qilib loyihalangan. “Otel” turidagi binolar tom yopilmalari baland qilib ishlanib, ular ostida “mansarda” deb nomlanuvchi qo‘shimcha xonalar joylashtirilgan.

Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmida klassitsizm uslubi keng tarqaladi. Buning asosiy sabablaridan biri qirol Lyudovik XVI tomonidan burjua mafkurasi va ratsionalizmning mutlaq davlat siyosati sifatida tan olinishi bo‘ldi. Arxitektura sohasida bunday siyosat ratsional tuzilgan orderli va mahobatli kompozitsion shakllar ishlatilishiga olib keldi.

Luvr qasri sharqiy qismi qurilishi shu davrning eng muhtasham binolardan hisoblanadi. Sharqiy tarz 170,5 metr uzunlikka ega bo‘lib, simmetrik kompozitsiyaga ega. Binoning birinchi qavati stilobat sifatida yechilgan bo‘lib, ikkinchi va uchinchi qavatlar katta ayvondan iborat. Ayvon ikki qavatlari, balandligi 12,32 metrga teng korinf orderi bilan bezatilgan. Balandligi 27,7 metrga teng bino o‘zining ratsional va sokin kompozitsion tuzilishi bilan bir qatorda mahobatli va geometrik jihatdan aniq shakllari bilan ham ajralib turadi.

Bu davrning yana bir yirik loyihasi Versal bog'-saroy ansamblida yangi qasr binosi qurilishidir. Shahar tomonidan qasr oldida uch asosiy ko'cha kesishadi va ularning o'rta sidagi Versalni Luvr ansamblini bilan bog'laydi. Bog' tomonidan qasr uzunligi 580 metrni tashkil qilib, simmetrik tuzilishga ega. Markaziy o'q asosida tashkil qilingan kompozitsiyada korinf va ioniy order sistemalari keng ishlataligani. Versal qasri qurilishi 1661–1708-yillarda Jyul Mansar loyihasi asosida amalga oshirildi. Versal bog'-saroy ansamblini umumiy loyihasi oldinroq Andre Lenort tomonidan ishlab chiqilgan edi.

Andre Lenort Luvr-Versal o'qi bo'yicha Parij shahri markaziy maydonlarini joylashtirish g'oyasini ishlab chiqdi. Bu loyiha bo'yicha Tyuilri maydoni va Yelisey maydonlari tashkil qilinib, XVIII asr o'rtalarida arxitektor Gabriel loyihasi bo'yicha Kelishuv maydoni shakllandi.

Klassitsizm uslubi rivojlanishi Fransiyada 1671-yilda tashkil qilingan Arxitektura akademiyasi faoliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Fransuz klassitsizmi nazariyotchisi M.A. Loje asosiy e'tiborni klassik orderlar va ularning kompozitsion tuzilishiga qaratadi. Shuningdek, bino va inshootlar hajm-fazoviy yechimi shahar asosiy maydonlari kompozitsiyasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqilishi kerakligini uqtirib o'tadi.

1750–1780-yillarda Parij shahrida qurilgan Panteon ibodatxonasi shu davrning eng yuksak arxitekturaviy yodgorliklaridan hisoblanadi. Arxitektor Jak Suflo loyihasi bo'yicha qurilgan bu bino markaziy kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, diametri 21,5 metr bo'lgan gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz uchta qobiqdan tashkil topgan bo'lib, pishiq g'isht va toshdan terilgan.

XIX asr boshlarida Fransiyada Napoleon imperiyasi davri boshlanadi. Bu davrda arxitekturada klassitsizm uslubining so'nggi bosqichi rivojlanadi. Bu bosqichdagi klassitsizm arxitekturasi "ampir" nomini olgan. Ampir uslubi arxitektorlari Sharl Perse va Per Foten Napoleon imperiyasini ulug'laydigan bino va inshootlar qurilishini amalga oshirdilar. Jumladan, Parijdagi Yelisey maydonida qurilgan Yulduz tantanali arkasi, Vandom maydonidagi Vandom tantanali kolonnasi va boshqalar.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Klassitsizm uslubi qanday sharoitda shakllandi?
2. Angliyada klassitsizm uslubi asoschisi kim?
3. "Mansarda" degani nima?
4. Qirol Lyudovik XIV arxitektura sohasiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
5. Luvr qasri sharqiy qanoti muallifi kim?
6. Versaldagi qasr qanday tuzilishga ega?

7. Arxitektura akademiyasida nazariy qarashlar qaysi usul va uslublarini rivojlantirishga qaratilgan?
8. Parijdag'i Panteon ibodatxonasi arxitekturasi xususiyatlari?
9. Rokoko uslubi nimaga asoslangan?
10. Nima sababdan ampir usuli paydo bo'ldi?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M., "Izobrazitelnoye iskusstvo", 1980 g.
4. Arxitekturnoye nasledstvo. Sborniki 1 – 48. M. 1951 – 1990.
5. Gulyanskiy N.F. "Istoriya arxitekturi". M., SI 1984 g.
6. Qadimgi dunyo va O'rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma'ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

ROSSIYADA XVIII – XIX ASRLARDA ARXITEKTURA RIVOJLANISHI

MA'RUDA REJASI:

1. *Rossiyada XVIII–XIX asrlarda arxitektura rivojlanishi.*
2. *Pyotr I davridagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar.*
3. *Pyotr I davridagi arxitektura va qurilishdagi o'zgarishlar.*
4. *Peterburg shahri qurilishi.*
5. *Rossiyada klassitsizm uslubining o'ziga xos xususiyatlari.*
6. *Klassitsizm uslubining boshlang'ich davri.*
7. *Klassitsizm uslubining to'liq rivojlanish davri.*
8. *Klassitsizm uslubining so'nggi davri.*

MA'RUDA MATNI

Rossiyada XVIII – XIX asrlar feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining so'nggi davrlaridir. Bu davrda kapitalistik munosabatlar rivojlanib, ishlab chiqarish manufakturalari tashkil topadi. Bu davrga kelib Rossianing G'arbiy Yevropa davlatlariga nisbatan iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qoloqligi yaqqol namoyon bo'ladi. XVIII asr boshlarida Pyotr I Yevropa davlatlari bilan aloqalarini kengaytirish, ilg'or tajribani o'rganish va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'tkazishga katta e'tibor beradi.

Arxitektura sohasida bu o'zgarishlar G'arbiy Yevropada tarqalgan barokko va klassitsizm uslubining keng tarqalishi bilan bog'liq edi. Bu uslublarning keng tarqalishi birinchi navbatda Peterburg shahrining yangi poytaxt sifatida

qurilishi bilan bog'liq edi. Peterburg shahrining qurilishi 1703-yilda boshlanadi va bu yerda aniq loyiha bo'yicha yirik arxitekturaviy ansamblar barpo etiladi. Shahar qurilishida ma'muriy va jamoat binolari, ishlab chiqarish va savdoga mo'ljallangan inshootlar aksariyatni tashkil qiladi.

Bu davrda Rossiyada asosan ikki uslub keng tarqaladi: XVIII asr boshlari va o'rtalarida barokko uslubi va XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida klassitsizm uslubi rivojlanadi.

ROSSIYADA BAROKKO USLUBI

Rossiyada barokko uslubi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar rus arxitekturasi an'analarining barokko uslubi qonuniyatlar bilan uyg'unlashib ketishi natijasida hosil bo'ladi. Rus barokkosi haqiqiy milliy xususiyatlari bilan G'arbiy Yevropa davlatlaridagi barokko uslubidan keskin farq qilib turadi. Rus barokkosida binolar tarh yechimi va hajm-fazoviy kompozitsiyalari oddiy shakllardan tashkil topgan va tarkibiy jihatdan ichki va tashqi tuzilishning mosligi bilan xarakterlanadi. Binolar tashqi devorlari suvoqlanib, turli ranglar bilan bo'yalgan va har xil ganchkor bezaklar bilan boyitilgan.

Rus barokkosi XVIII asrning 40–50-yillarida to'liq shakllanadi va bu uslubga xos binolar va arxitekturaviy ansamblar keng tarqaladi. Bu uslub shakllanishida G'arbiy Yevropa davlatlaridan taklif qilingan arxitektorlar va Yevropa davlatlarida tahsil olgan rus arxitektorlarining xizmati kattadir. Xuddi shu paytda Rossiyada Fanlar akademiyasi va universitetlar tashkil qilinadi. Badiiy akademiya tashkil qilinib, uning qoshida arxitektura bo'linmasi ham shakllanadi.

XVIII asr boshlarida Peterburg shahri qurilishi boshlanishi bilan Pyotr I ning farmoni bilan boshqa shaharlardagi qurilishlar to'xtatilib, barcha moddiy zaxiralar yangi poytaxt qurilishiga yo'naltiriladi. Peterburg shahri qurilishi uchun muntazam shaharsozlik loyihasi tuziladi va imoratlarni faqat tosh va g'ishtdan qurish to'g'risida ko'rsatma beriladi.

Arxitektor Domeniko Trezini boshchiligidagi namunaviy loyihalari ishlab chiqiladi. Turarjoy uylari asosan uch turga bo'linadi: birinchisi – "mehnatkashlar" uchun, ikkinchisi – "xizmatchilar" uchun va uchinchisi – "zodagonlar" uchun mo'ljallangan. Pyotr I uchun 1710 – 1714-yillarda qurilgan Yozgi saroy "zodagonlar" uchun tuzilgan loyiha bo'yicha qurilgan. D.Trezini loyihalari bo'yicha bir necha yirik jamoat binolari qurilishi ham amalga oshiriladi. 1712 – 1733-yillarda qurilgan Petropavlovsk sobori va 1722 – 1742- yillarda qurilgan o'n ikki kollegiya binolari shular jumlasidandir.

1740–1750-yillarda buyuk arxitektorlar F.B. Rastrelli, S.Chevakinskiy, D.Uxtomskiy o'z arxitekturaviy maktablarini tashkil qilishadi. Bu

maktablarda arxitektura nazariyasi chuqur o'rganiladi. Ayniqsa, klassik orderlar nazariyasiga katta e'tibor beriladi. Vinola va Palladio asarlari rus tiliga tarjima qilinib, chop etiladi.

F.B. Rastrelli o'zining amaliy ishlari bilan mashhur bo'ladi. Uning loyihalari bo'yicha Peterburgda Qishki saroy, Sarskoye Seloda Yekaterina saroylari qurilishi amalga oshirilgan. Petergofdag'i Katta saroy qurilishi ham Rastrelli loyihasi bo'yicha amalga oshirilgan. Bu binolar tarh tuzilishida to'rtburchak shaklda bo'lib, hajm-fazoviy kompozitsiyasi oddiy prizmatik shakldan iborat. Rastrelli binolari o'zining mahorat bilan bajarilgan mutanosibliklari, qismlarning aniq ishlanishi va plastik jihatdan boy qilib ishlangan tashqi va ichki ko'rinishlari bilan ajralib turadi.

Peterburgdag'i Qishki saroy 1754–1764-yillarda qurilib, davlat boshliqlari qarorgohi vazifasi uchun mo'ljallangan. Bu bino Neva daryosi bo'yida qurilgan bo'lib, shahar markaziy maydonlari shakllanishiga asos soladi. Keyinchalik Qishki saroy asosiy o'qi bo'yicha Dvorsovaya maydoni tashkil qilinadi.

Sarskoye Selodagi Katta saroy 1752–1757-yillarda shahar tashqarisidagi bog'-saroy ansambli sifatida barpo qilinadi. Imperator farmoniga binoan bu joyda "Rus Versali" tashkil qilinishiga asos solinadi. Uzunligi 300 metrdan iborat saroyning sharqiy tomonida esa bog' va g'arbiy tomonida asosiy Yangi bog' joylashgan. Katta saroy tashqi ko'rinishi boy bezatilishi va plastik jihatdan mahobatlari order sistemalari ishlatilishi bilan kuzatuvchini hayratga soladi. Binoning ichki tuzilishida, ayniqsa, Taxtlik zali oltin suvi yuritilgan bezaklari bilan ajralib turadi.

D.V.Uxtomskiyning amaliy faoliyati asosan Moskva va uning atrofidagi qurilishlar bilan bog'liq edi. Ular ichida Troisk-Sergiyev monastiridagi qo'ng'iroqxona minorasi alohida e'tiborga loyiq. Bu binoda Qadimgi Rus an'analari barokko uslubiga xos kompozitsion vositalar bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Minoraning umumiy balandligi 87,33 metrni tashkil qilib, vertikal yo'nalishda besh qismdan tashkil topgan.

Moskvadagi Qizil darvoza (1753 – 1757) va Gospital binosi (1759) loyihasi ham D.V.Uxtomskiy boshchiligidagi bajarilgan.

S.I.Chevakinskiy amaliy ishlaridan 1753 – 1762-yillarda Peterburgda qurilgan Nikolskiy sobori binosini ko'rsatib o'tish mumkin.

ROSSIYADA KLASSITSIZM USLUBI

Rossiyada klassitsizm uslubi – rus milliy arxitekturasining eng rivojlangan davri va dunyo arxitekturasining yorqin namunalaridan biridir. Rossiyada klassitsizm uslubi uch bosqichdan iborat: boshlang'ich davr, to'liq rivojlanish davri va so'nggi davr.

Boshlang‘ich davr 1760—1770-yillarga to‘g‘ri kelib, bu davrda barokko uslubidan klassitsizm uslubiga o‘tish amalga oshadi. Bu paytda orderli kompozitsiyalar va binolar mutanosib tuzilishiga bo‘lgan qiziqish kuchayib, shu bilan birga barokko uslubiga xos plastik-dekorativ vositalar ham ishlatalishi kuzatiladi. Klassitsizm uslubining rivojlanishi Rossiyada ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq edi. Shaharlarda yirik ishlab chiqarish tashkil qilinib, savdo aloqalari rivojlanadi. Shahar hududlari kengayib, aholi soni tez o‘sma boshlaydi. Buning natijasida yangi turdag'i binolarga ehtiyoj kuchayadi. Shaharlarda savdo, ishlab chiqarish, o‘quv yurtlari va boshqa jamoat binolari qurilishi ko‘paydi. Xuddi shu paytda shaharlarni qayta qurish loyihalari ishlab chiqildi. 400 dan ortiq shaharlar uchun qayta qurish loyihalari zamonaviy tavsiyalar asosida tuzildi. Turli xil binolar “namunaviy” loyihalari ishlab chiqildi. Shaharlar markaziy maydonlari turli jamoat va ma’muriy binolar asosida ansambl sifatida shakllandi.

Peterburg shahrida 1760—1784-yillarda qurilgan Badiiy akademiya binosi klassitsizm uslubining ilk namunalaridan hisoblanadi. Bu binoning arxitektori A.F.Kokorinov bo‘lib, unga arxitektor Villen-Delamot hammulliflik qiladi.

Bu davrda qurilgan imoratlardan Peterburgdagi Marmar qasr va Gatchinsk qasrlari o‘zining bosh tarz yechimi bilan ajralib turadi. Binoning tashqi ko‘rinishida korinf orderi shaklidagi pilyastralar asosiy badiiy ifodalananish vositasi sifatida ishlatalgan. Bu binolar arxitektor Antonio Rinaldi loyihasi asosida qurilgan.

Klassitsizm uslubining to‘liq rivojlanish davri 1780—1790-yillarga to‘g‘ri kelib, arxitektorlar V.P.Bajenov, M.F.Kazakov va I.Ye.Starovlar ijodiy faoliyati bilan bog‘liq.

V.I.Bajenov mahorati uning eng mashhur loyihasi sanalgan Moskvadagi Katta Kreml saroyi binosida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu ulkan saroy tarixiy shakllangan Kreml hududida 1767—1775-yillar oralig‘ida qurildi. Moskva Kreml ansamblining qayta qurish ishlarini Bajenovning shogirdi M.F.Kazakov davom ettiradi. Kremlagi Senat binosi M.F.Kazakov loyihasi bo‘yicha 1776—1787-yillarda qurilgan. Katta gumbaz bilan yopilgan Senat binosi Qizil maydonga qaratilgan bo‘lib, Kreml ansamblidagi asosiy kompozitsion markazga aylandi.

M.F.Kazakov loyihasi bo‘yicha 1796—1801-yillarda Moskvada qurilgan Golisin shifoxonasi binosi klassitsizm uslubining yaqqol namunalaridan hisoblanadi. M.F.Kazakov loyihasi bo‘yicha qurilgan Ittifoq uyi ham o‘zining ulkan ustunli zali bilan ajralib turadi. Tantanali marosimlar uchun mo‘ljallangan zal ulkan marmardan yasalgan korinf orderi bilan bezatilgan.

Bu davrda Rossiyada saroy-bog' arxitekturasi nihoyat darajada rivojlanadi. Bu turdag'i binolar ansambl bo'ylama o'q bo'yicha rivojlangan kompozitsiya asosida shakllanadi. Bu kompozitsiyaga asoslangan ansambllar tashqi tantanali kirish hovlisi, markaziy saroy va uning ortidagi bog' qismalaridan tashkil topgan.

Peterburgdagi Tavricheskiy saroyi arxitektor I.Ye.Starov loyihasi bo'yicha 1783–1789-yillarda xuddi shu kompozitsiya asosida shakllangan. Tavricheskiy saroyi tarh tuzilishida uch asosiy hajmdan tashkil topib, markaziy qismida tantanali marosimlar zali va xonalari joylashgan.

V.I.Bajenov loyihasi bo'yicha 1784–1786-yillarda Moskva shahrida qurilgan Pashkov uyi shahar sharoitida qurilgan qasrga misol bo'la oladi. Bu bino markaziy kompozitsiya asosida qurilgan bo'lib, uning tuzilishida asosiy o'q bo'yicha joylashgan bosh bino ajralib turadi.

Markaziy kompozitsiya asosida shakllangan binolardan I.Kameron loyihasi bo'yicha qurilgan Pavlovskdagi "Do'stlik" rotondasi (1780 – 1782) alohida e'tiborga loyiqdir.

Rossiyada klassitsizm uslubining so'nggi davri XIX asrning boshlariga to'g'ri kelib, bu davr yirik shaharsozlik ansamblari shakllanishi bilan ajralib turadi. Bu davr arxitekturasi Peterburgda ishlagan A.N.Voronixin, A.D.Zaxarov, K.P.Rosse, V.P.Stasov va Moskvada ishlagan O.P.Bovs, D.P.Jilyardi, A.G.Grigoryev ijodiy faoliyatları bilan chambarchas bog'liq.

Peterburg shahrida 1801–1811-yillarda A.N.Voronixin loyihasi bo'yicha qurilgan Qozon sobori ulkan va tantanali kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Nevskiy prospektida joylashgan Qozon sobori balandligi 15 metrli korinf orderidan tashkil topgan ulkan yarim aylana kollonada va baland gumbaz bilan yopilgan markaziy cherkov binosidan iborat.

Peterburg markazidagi maydonlar ansambl shakllanishida Admiralteystvo binosi katta ahamiyatga ega. Admiralteystvo binosi arxitektor A.Zaxarov loyihasi bo'yicha 1806–1823-yillarda qurib bitkazildi. Admiralteystvo binosining bosh fasadi uzunligi 407 metr, yon fasad uzunligi 163 metr bo'lib, balandligi 72 metrni tashkil qiluvchi shpil bilan bezatilgan.

Arxitektor Toma de Tomon loyihasi bo'yicha 1804–1810-yillarda Peterburgda qurilgan Birja binosi klassitsizm uslubidagi eng mahobatli va mutanosib shaklga ega binolardan hisoblanadi.

Peterburg markaziy maydonlarining shakllanishi 1820–1850-yillarda to'liq tugallanadi. Buyuk arxitektor K.I.Rossi loyihasi bo'yicha Dvorsovaya maydonida 1819–1829-yillarda Bosh Shtab binosi quriladi. Bu bino yarim aylana shaklida bo'lib, markaziy qismida ulkan tantanali peshtoq qurilgan. Peshtoq Qishki saroy o'qida joylashgan bo'lib, shon-sharaflı g'alabalarga oq'ishlangan haykaltaroshlik asari bilan bezatilgan.

K.P.Rossi loyihasi bo'yicha Senat maydonida 1829–1834-yillarda Senat va Sinod binolari quriladi. Maydon markazida Pyotr I haykali o'rnatiladi va uning orqa tomonida Isakiyevskiy sobori qurilishi 1818–1858-yillarda amalga oshiriladi. Isakiyevskiy sobori arxitektor A.A. Monferran loyihasi bo'yicha qurilib, diametri 21,83 metrli gumbaz bilan yopilgan. Bu ulkan binoning umumiy balandligi 101,52 metrni tashkil qiladi.

Peterburgda Teatralniy ko'chasingning ansambl shaklidagi loyiha asosida qurilishi K.P.Rossining eng mashhur shaharsozlik ishlaridan hisoblanadi. 1828–1834-yillarda shakllangan bu ansambl – Aleksandrinskiy teatri, Anichkov qasri, ommaviy kutubxona va boshqa binolar yagona loyiha asosida bunyod qilingan.

1812-yildagi Vatan urushi davomida fransuz qo'shinlari Moskvada katta yong'in uyuştirgan edi. 1813-yilda Moskva shahrini qayta qurish komissiyasi tuziladi va yangi loyiha tayyorlanadi. Turli binolar namunaviy loyihalari ishlab chiqiladi. Loyihalar klassitsizm uslubiga xos orderli kompozitsiyalarga asoslangan edi. Qadimgi Kreml atrofida bir necha yirik ansambllar tashkil qilish ko'zda tutilgan edi. Shunday ansambllardan biri – Bolshoy teatr va Teatralniy maydoni hisoblanadi. Bu ansambl 1821–1824-yillarda arxitektorlar A.A.Mixaylov va O.I.Bove loyihasi bo'yicha quriladi. Katta teatr binosi o'sha paytlarda eng yirik binolardan edi.

Moskvada yana bir necha yirik binolar O.I.Bove loyihasi asosida quriladi – Tverskaya zastavadagi Tantanali darvoza (1827–1834), Novin bulvaridagi N.G.Gagarinlar qasri, Manej binosi (1824–1825) va boshqalar.

D.I.Jilyardi ham o'sha paytda Moskvada klassitsizm uslubida bir necha binolarni loyihalaydi – Opekunlar saroyi (1823–1826), Luninlar qasri (1823), Naydenovlar qasri (1829–1831). Bu loyihalar ichida, ayniqsa, Naydenovlar qasri o'zining aniq va mutanosib orderli kompozitsiyalari bilan ajralib turadi.

O'tilgan darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. Rossiyada barokko uslubi qachon shakllana boshladidi?
2. Rus barokkosining milliy xususiyatlari nima bilan bog'liq?
3. Peterburg shahri qurilishi uchun qanday loyihalar ishlab chiqildi?
4. F.B.Rastrelli loyihalari asosida qaysi binolar qurildi?
5. D.V.Uxtomskiy qaysi shaharda qurilishlarni boshqardi?
6. Shaharsozlik bo'yicha qanday ishlar amalga oshirildi?
7. Moskvadagi Kreml ansamblini qayta qurish loyihasi kim tomonidan bajarildi?
8. Klassitsizm uslubining so'nggi davrida qaysi loyihalar amalga oshirildi?

Adabiyotlar:

1. Vseobshaya istoriya arxitekturi. T.I – II (pod obshey redaksiyey B.P. Mixaylova). M., 1958 – 63 g.
2. Vseobshaya istoriya arxitekturi v 12 tomax. M., 1966 – 77 g.
3. Bartenev P.A., Batajkova V.N. Ocherki istorii arxitekturnix stiley. M., “Izobrazitelnoye iskusstvo”. 1980 g.
4. Arxitekturnoye nasledstvo. Sborniki 1 – 48. M., 1951 – 1990.
5. Gulyanskiy N.F. “Istoriya arxitekturi”. M., SI 1984 g.
6. Qadimgi dunyo va O’rta asrlar arxitekturasi tarixi. Ma’ruzalar matni. SamDAQI. 2000-y.

O’RTA VA YAQIN SHARQ DAVLATLARI ARXITEKTURASI

MA’RUZA REJASI:

1. *Yaqin va O’rta Sharq davlatlari rivojlanishidagi umumiylilik.*
2. *Musulmon davlatlari arxitekturasi asoslari.*
3. *Musulmon arxitekturasida binolar turlari.*
4. *Musulmon shaharlari strukturası.*
5. *Arab davlatlari arxitekturasi xususiyatlari.*
6. *Eron arxitekturasi.*
7. *Ozarbayjon arxitekturasi.*
8. *Afg'oniston arxitekturasi.*

TAYANCH IBORALAR:

Arab xalifaligi arxitekturasi. Islom arxitekturasi. Masjid, madrasa va maqbaralar. Shaharlар strukturası. Qal'a, shahriston va rabot. Eron arxitekturasi. Ozarbayjon arxitekturasi. Afg'oniston arxitekturasi.

MA’RUZA MATNI

O’rta va Yaqin Sharq davlatlari O’rta asrlardagi arxitekturasi feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum rivojlanishi va yagona din – islom dinining keng tarqalishi bilan bog’liq edi.

VII asrda Arabiston yarim orolida kuchli musulmon davlati – Arab xalifaligi tashkil topadi. Arab xalifaligi yirik bosqinchilik urushlari o’tkazib, VII – VIII asrlar davomida Falastin, Siriya, Mesopotamiya, Misr, Shimoliy Afrika, Piriney yarim orolining janubiy qismi, Eron va O’rta Osiyo davlatlarini zabit etadi. Zabit etilgan barcha davatlarda islom dini keng tarqaladi. Arab xalifaligi poytaxti oldin Madina, keyinroq Makka shahri edi. Zabit etilgan joylarda islom dini bilan bir qatorda árab tili va

yozuvi ham keng tarqatildi. Buning natijasida bir qator arab davlatlari hosil bo'ldi: Siriya, Falastin, Iroq, Misr, Tunis, Jazoir, Marokko va boshqalar. Bir qator davlatlar – Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston va O'rta Osiyo davlatlari islom dinini qabul qilishadi, ammo til jihatidan bu davlatlar o'z madaniyatini saqlab qoladi.

Eron va O'rta Osiyo davlatlari qadimdan yuksak madaniyati va o'ziga xos arxitekturasi bilan ajralib kelgan. Arablar bu davlatlarni zabit etib, shu joyda mavjud madaniyat va arxitektura yutuqlaridan bahramand bo'lishadi. Natijada yagona xususiyatlarga ega yangi madaniyat va arxitektura shakllanadi. Islom arxitekturasi bino va inshootlar turlari, kompozitsion va konstruktiv yechimining o'ziga xos ko'rinishlari bilan boshqa arxitekturaviy yo'nalishlaridan keskin farq qiladi. Diniy inshootlar – masjid, maqbara, minora va madrasalar bilan bir qatorda, jamoat binolari ham keng tarqaladi. Jamoat binolaridan yopiq bozorlar, yirik karvonsaroylar, hammom va sardobalar keng ko'lama quriladi. Musulmon shaharlari ma'muriy, savdo va madaniyat markazlariga aylanadi. Shaharlarda madrasa, maktab, kutubxona, observatoriya va ilmu fan rivojlanishiga xizmat qiladigan boshqa binolar quriladi. Shaharlar baland mudofaa devorlari bilan o'ralgan uch qismidan iborat edi: Ark – hukmdorlar qasri va saroylari hamda ma'muriy binolar joylashgan shahar markazi; Shahriston – savdo markazlari va bozorlar, masjidlar hamda oddiy xalq yashaydigan uy-joylar joylashgan shahar asosiy qismi; Rabot – hunarmandchilik ustaxonalari va dehqonchilik bilan shug'ullanadigan aholi yashaydigan shaharning atrof qismlari.

ARAB DAVLATLARI ARXITEKTURASI

Siriya va Falastin davlatlarida Arab xalifaligi tashkil bo'lishidan oldin tabiiy toshdan turli xil binolar qurilishi keng tarqalgan edi. Rim va Vizantiya davlatlari tomonidan bu joylarda xristian bazilikalari va boshqa binolar qurilgan. Arab xalifaligi tashkil topishi bilan yirik masjidlar qurilishi keng tarqaladi. Shunday masjidlardan eng yirik va mahobatligi 708-yilda Damashq shahrida qurilib, Katta Masjid nomini oladi. Bu masjid xalifa Al-Vomid boshchiligidagi qurilgan, o'lchamlari 157x100 metrni tashkil qiladi. Masjid ustunlar bilan bo'lingan uch qismidan: yopiq bino va atrofi o'ralgan keng hovlidan iborat. Binoning asosiy o'q yo'nalishi bo'yicha gumbaz o'rnatilgan va mehrob joylashtirilgan. Bino ustunlari ikki qavatli qilib ishlangan va umumiy balandligi 15 metrni tashkil qiladi. Ustunlar ustiga tekis tom yopilmasi o'rnatilgan. Binoning hovliga qaratilgan tarzi ochiq ravvoqlar bilan bezatilgan.

Ustunlar asosida qurilgan masjidlar arab davlatlarida keng tarqaladi. Masalan: 876-yilda qurilgan Qohiradagi Ibn Tulun masjidi, Jazoirdagi

Katta masjid (1096) Marokashdagi Qutbiyya masjidi (1153) va Qurdoba (Ispaniya) Katta masjidi. Qurdobadagi Katta masjid qurilishi 786 yilda boshlanib, 600 dan ko'proq ustunga ega. Ustunlar bir-biri bilan 2 qator ravvoqlar orqali birlashtirilgan.

Ko'pchilik masjidlar qoshida baland minoralar ham qurilgan. Minoralardan odatda aholini namozga chaqirish uchun foydalanilgan. Masjid xizmatchisi — muazzin minora ustidan har kuni besh mahal namoz vaqtiga yaqinlashganini xabar qilgan. Bunday minoralardan Qohiradagi Ibn Tulun masjidi minorasi juda mashhurdir.

Arab xalifalari shahar ichkarisida turli qasr va saroylar bilan bir qatorda shahar tashqarisida baland devorlar bilan o'ralgan qal'alar ham qurdirgan. Bunday qal'alardan biri VIII asrda Iyerixon shahri yaqinida qurilgan Xirbat al-Marfjor qal'asidir. Bu joyda qal'a bilan bir qatorda masjid, hammom va boshqa binolar ham qurilgan. Bu imoratlar ichki hovli atrofida 2 qavatli qilib qurilgan.

Arab davlatlarida XII – XV asrlarda ravoqli va gumbazli qurilmalar keng tarqaladi. Qohiradagi Hasan masjidi va maqbarasi qurilishida (1472 – 1474) yirik ravoqli va gumbazli shakllar ishlatilgan. Bunday shakllar shakllanishining eng yaxshi namunalardan Granadagi (Ispaniya) Al-Gambra qasri va Sherlar qasrlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Arab davlatlarida muhandislik inshootlari qurilishi ham keng tarqaladi. Sug'orish tizimi inshootlari va karvon yo'llaridagi sardobalar shular jumlasidandir. Masalan, Kayruan shahri yaqinidagi sardoba IX asrda qurilgan bo'lib, uning diametri 128 metrni tashkil qiladi.

ERON, OZARBAYJON VA AFG'ONISTON ARXITEKTURASI

Eron, Ozarbayjon, Afg'oniston va O'rta Osiyo davlatlari arxitekturasi sohasida qadimdan boy an'analar va o'ziga xos xususiyatlarga ega edilar. IX asrdan boshlab bu davlatlar Arab xalifaligi ta'sir doirasidan chiqib, mustaqillikni qo'lga kirtdilar.

Bu davlatlarda islam dinining qabul qilinishi bilan islomgacha bo'lgan davrdagi turli diniy sajdagohlar masjidlar sifatida qayta quriladi. Ilk musulmon masjidlari gumbaz bilan yopilgan kvadrat shaklidagi ochiq ayvonlardan iborat edi. Bunday inshootlarning bir tomoni devor bilan yopilib, mehrob joylashtirilgan. Keyinchalik bunday inshootlar bo'ylama o'qi bo'yicha ustunli keng ayvon va xonalar qurilgan. Shunday qilib, gumbazli inshoot va ustunli xonalar uyg'unlashib birlashgan va yangi turdag'i diniy bino hosil bo'lgan.

Isfaxon shahrida IX asrda qurilgan Juma masjid shu turdag'i binolar ichida eng yaxshi namunalaridan hisoblanadi. Umumiy o'lchamlari 170x140 metrn tashkil qiluvchi masjid kompleksi to'g'ri burchakli ichki hovli atrofida qurilgan gumbazli masjid, masjid atrofidagi ayvon, madrasa va boshqa binolardan tashkil topgan. Asosiy masjid kompozitsion jihatdan bosh simmetriya o'qi bo'yicha joylashib, katta mehrob tokchasi bilan bezatilgan. Kompleks tarkibida XI asrda qurilgan Gumbedi-Xoki kichik masjid o'z tuzilishi bilan Eron arxitekturasining durdonalaridan hisoblanadi. Bu bino tektonik aniq tuzilishi, uyg'unlashgan mutanosibliklar va ravoqli shakllar nafisligi bilan ajralib turadi. Uch qator qilib ishlangan ravoqli tokchalar konstruktiv jihatdan gumbaz aylanasidagi kuchlanishlarni to'rtburchak asosga o'tkazish uchun xizmat qilib, kompozitsion jihatdan binoning asosiy badiiy ifodalanish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ichki hovli atrofini ayvonlar bilan o'rallan kompozitsion usul masjidlardan tashqari madrasa va karvonsaroy binolarida hamda boshqa turdag'i imoratlarda keng qo'llaniladi.

Maqbaralar kompozitsion tuzilishi esa asosan markaziy-gumbazli kompozitsion usul asosida shakllanadi. 1305-yilda Sultoniya shahrida qurilgan Uljayt Xodabendi maqbarasi shu turdag'i eng mashhur binolardan hisoblanadi. Bu maqbara pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, tarh tuzilishi sakkizburchak shaklga ega va diametri 24,5 metrli gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz ikki qobiqdan tashkil topgan va ravoqlar orqali asosiy sakkizburchak ustiga o'rnatilgan.

Temuriylar davri yodgorliklaridan Mashhad shahrida 1419-yilda qurilgan Gavharshod masjidi o'zining maftunkor koshinli bezaklari bilan ajralib turadi.

Isfaxon shahrida 1612–1637-yillarda Shoh Abbos tomonidan qurilgan Masjidi Shoh Erondagi eng yirik va mashhur yodgorliklardan hisoblanadi.

Eronda joylashgan jamoat binolaridan Raboti Sharaf karvonsaroyi eng mashhur yodgorliklardan hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bu bino 1114–1154-yillarda qurilgan bo'lib, ikkita to'rt ayvonli ichki hovli atrofida joylashtirilgan xonalardan iborat.

Jamoat binolaridan, shuningdek, Shoh Abbos davrida bunyod qilingan Isfaxon yaqinidagi Ali Qopi saroyi va Chihil Sutun saroyini ko'rsatib o'tish joizdir. XVII asrda qurilgan bu saroylar chorborg' o'rtasida qurilgan bo'lib, ularning shakli va andozalari Temuriylar bog'-saroy ansambliga o'xshatilgan.

Ozarbayjon arxitekturasi asosan Eron an'analari asosida shakllanadi. Baku shahrida joylashgan Shirvon Shoh kompleksi XV asr o'rtalarida qurilgan bo'lib, shoh saroyi, masjid, minora va maqbaradan tashkil

topgan. Kompleks tarkibidagi Devonxona alohida e'tiborga loyiqdir. Ochiq ayvonlardan iborat bo'lgan sakkizburchakli imorat baland gumbaz va chiroyli peshtoq bilan bezatilgan.

Baku shahrida joylashgan yodgorliklardan yana balandligi 26 metr bo'lgan Qizlar minorasini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu minora XII asrda qurilgan bo'lib, o'ziga xos tuzilihsiga ega.

Tarixiy va geografik jihatdan Afg'oniston butun tarixi bo'yicha O'rta Osiyoda tashkil topgan davlatlar bilan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun Afg'oniston arxitekturasi O'rta Osiyo davlatlari arxitekturasiga xos bo'lgan bino va inshootlar turlaridan tashkil topgan va arxitekturaviy kompozitsion shakllar umumiyligi bilan baholanadi.

Afg'onistonda bunyod etilgan arxitekturaviy yodgorliklardan quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Balx shahrida IX asrda qurilgan No'h Gumbaz masjidi, Temuriylar davrida, ya'ni 1460-yilda qurilgan Abu Nasr Porso masjidi. Hirot shahrida qurilgan Gavharshod madrasasi 1437-yilda qurib bitkazilgan. Jom shahrida XII asr oxirlarida qurilgan minora balandligi 65 metrni tashkil qiladi.

O'TILGAN DARSNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Yaqin va O'rta Sharq davlatlarini birlashtiruvchi asosiy omil nimadan iborat?
2. Musulmon dunyosi falsafasining arxitekturaga ta'siri nimadan iborat?
3. Ilk masjidlar qayerda qurilgan?
4. Madrasa va maqbaralar nima uchun xizmat qilgan?
5. Ko'p ustunli masjidlar qayerda qurilgan?
6. Yaqin va O'rta Sharq arxitekturasida bezaklar ahamiyati nimadan iborat?
7. Gumbazli va ravoqli konstruksiylar nima uchun keng tarqalgan.

ERON, AFG'ONISTON VA HINDISTONDA TEMURIYLAR DAVRI ARXITEKTURASI

MA'RUDA REJASI:

1. Temuriylar davri arxitekturasi xususiyatlari.
2. Arxitekturaviy-kompozitson shakllar va binolarning bezaklari.
3. Bino va inshootlar turlari.
4. Arxitekturaviy ansamblar va bog'lari.

TAYANCH IBORALAR:

Temuriylar madaniyati va arxitekturasi. Paxsa qurilmalar. Cho'bkori qurilmalar. Koshin burish usuli. Gulganch va kundal texnikasi. Balxiy gumbaz. Linga zarba usuli. Markaziy-gumbazli tur. Hovlili imoratlar. Ustunli-ayvonli tur. Qo'sh ansambl. Maydon ansambl. Chor bog'.

MA'RUZA MATNI

Eron va Afg'onistonda XIV–XV asrlar Temuriylar madaniyati va arxitekturasi davri hisoblanadi. Bu davr madaniyati va arxitekturasi o'z ahamiyati va xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Siyosiy jihatdan ushbu davrda Amir Temur 1370-yilda Mavarounnahr mutloq hokimligini egallab, keyinchalik boshqa davlatlarni zabit etib, Kichik Osiyodan to Hind daryosi bo'ylarigacha cho'zilgan imperiyaga asos solingan edi. Iqtisodiy jihatdan ushbu davlat juda keng savdo aloqalari va hunarmandchilikning rivojlanishi, shaharlar qayta qurilishi va kengaytirilishi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida arxitekturada misli ko'rilmagan yutuqlarni qo'lga kiritish bilan xarakterlanadi.

Temuriylar davrida yirik me'morlar va qurilish ustalari asosan markaziy shaharlarda jamlanib, turli turdag'i bino va inshootlar qurilishini amalga oshirdilar. Arxitekturaviy yodgorliklarda saqlanib qolgan yozuvlar ularning nomlarini bizgacha yetkazishdi. Masalan, Mashhad shahridagi Masjidi Shoh me'mor Ahmad ibn Shamsiddin tomonidan, Imam Rizo maqbarasi me'morlar Abdullo va Shams Baysunqori tomonidan qurilganligi va bezatilganligi ma'lumdir.

Temuriylar davri arxitekturaviy kompozitsion shakllari birinchi navbatda ishlatiladigan qurilish ashyolari va usullariga bog'liq edi. Ommaviy qurilishda paxsa devorlar bilan bir qatorda yog'och sinchli, ya'ni "cho'bkori" dan ham keng foydalanilgan. Mahobatli arxitekturada esa pishiq g'isht, marmar va boshqa qimmatbaho toshlardan foydalanilgan. Bog'lovchi sifatida loy bilan bir qatorda ganchdan ham keng foydalanilgan. Turli xildagi bezaklar uchun esa tabiiy bo'yoqlardan tayyorlangan turli ranglardagi koshinlardan foydalanilgan. Bezaklar ichida o'zining sifati bilan "koshin-burish" turidagi usul alohida ahamiyat kasb etadi.

Bino va inshootlar ichki bezatilishida "gulganch" va "kundal" texnikasidagi ishlar keng tarqaladi.

Arxitekturaviy kompozitsion shakllar tarixiy an'analar asosida gumbazli va ravvoqli qurilmalar bilan bog'liq edi. Gumbazlar va ravvoqlar orasidan esa asosan uch yoki to'rt markazdan yasaluvchi nayzashakl turlari keng tarqaladi. Bundan tashqari, "balxiy" va o'zaro kesishuvchi ravvoqlarga asoslangan gumbazlardan ham foydalanilgan.

Temuriylar davri me'morlari binolar yopilmasini bajarishda bir qancha yangiliklar kiritishadi. Shulardan biri "linga-zarba" bo'lib, u o'zaro kesishuvchi ravoqli qurilmaga asoslangan. Bu qurilmaning ishlatalishi gumbazlar diametrini (xonalar o'lchami bir xil bo'lgan holda) qariyb ikki martaga qisqartirish imkoniyatini yaratdi. Buning natijasida esa mahobatli imoratlar sahnini yanada kengaytirish va bino ichki fazosidan unumli foydalanish imkoniyati yaratildi. Bu qurilmaning yaratilishi me'mor Qiyomiddin Sheroy nomi bilan bog'liq bo'lib, birinchi marta usto bu qurilmani Hirodag'i Gavharshod maqbarasida qo'llagan.

Umuman olganda, bu davrda oldindan qo'llanib kelingan bir qancha arxitekturaviy kompozitsion shakllar ishlatalib, ammo ularga yangicha badiiy obrazlar va sifatlar berilgan.

Masalan, bu davr peshtoqlari oddiy kirish darvozasidan farqli ravishda, ko'pchilik imoratlarda asosiy kompozitsion urg'u, kirish ayvonining badiiy ifodalanish vositasiga aylanadi.

Peshtoqlariga ikki yon burj – minoralar qo'shilib, tepe qismi esa ravoqli tokchalar bilan to'ldirilgan. Peshtoqlar yuzasi turli ranglardagi koshinlardan bajarilgan o'simlikshakl va geometrik girihlar bilan bezatilgan.

Gumbazlar ham asosiy arxitekturaviy kompozitsion shakllardan bo'lib, Temuriylar davrida ularning ahamiyati yanada ortadi. Gumbazlar shakli va o'lchamlari nafislashib, ularning uyg'unlashtirish darajasi yanada rivojlanadi.

Bu davrning to'sinli-ustunli qurilma va shakllari ham alohida e'tiborga molikdir. Yog'ochdan bajarilgan ushbu arxitekturaviy shakllar mahobatli imoratlar bilan bir qatorda ommaviy xalq arxitekturasida ham keng tarqalgan.

Yuqorida keltirilgan arxitekturaviy kompozitsion shakllarning turli tarkiblari birgalikda ishlatalishi bino va inshootlarning quyidagi turlarini hosil qilgan:

Markaziy-gumbazli imoratlarda gumbazli xona asosiy bino bo'lib, bu turda asosan maqbara, masjid va xonaqohlar hamda chorus va toqilar bunyod etilgan.

Hovlili imoratlar turi asosan madrasa va karvonsaroylar qurilishida qo'llanilgan.

Ustunli, ayvonli tur asosan mahalla masjidlari va bozor timlari qurilishida foydalanilgan.

Hovlili-gumbazli tur asosan juma masjidlari va qasrlar qurilishida ishlataligan.

Ko'p gumbazli majmualar turi esa asosan maqbaralar ansambl va rabotlar, ba'zi hollarda masjidlar ansamblida qo'llanilgan.

Masjidlar musulmon davlatlarida alohida ahamiyatga molikdir. Mahalla va guzar masjidlari asosan turarjoy mavzelerida qurilgan. Juma va jome'

masjidlari butun shahar aholisi uchun qurilgan bo'lib, namozgoh va musallah masjidlari esa Ramazon va Qurbon hayitlari uchun mo'ljallangan.

Mashhad shahridagi Gavharshod masjidi 1405–1406-yillarda qurilgan bo'lib, mahobatli hovlili-gumbazli imorat turidir. To'g'ri burchakli to'rtburchak bo'ylama o'q bo'yicha kirish peshtoqi va uning ro'parasidagi gumbazli va yirik peshtoqli maqsura joylashgan.

Mashhad shahridagi Masjidi Shoh ham o'zining mahobatli shakli va kompozitsion tuzilishi bilan ajralib turadi. Bu masjid 1451-yilda qurilgan bo'lib, shu nomli maqbara bilan majmuani tashkil qiladi.

Tabriz shahrida 1465-yilda qurilgan Masjidi Kabud o'zining kompozitsion tuzilishi va bezaklarining boyligi bilan xarakterlanadi.

Temuriylar davrida oliy diniy va dunyoviy bilimlar markazi – madrasalar qurilishiga ham katta e'tibor beriladi. Bu davrda madrasalar arxitekturasi to'liq shakllanib, uyg'unlashgan imorat turini hosil qiladi. Madrasalar darsxona va hujralari to'g'ri burchaki ichki hovli atrofida bir yoki ikki qavatli qilib qurilgan.

Hirot shahrida 1410–1411-yillarda qurilgan Shohruk madrasasi o'z davrining eng yirik va hashamatli imoratlardan sanalgan.

Hirot shahrida buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy tomonidan ham bir necha madrasa va boshqa imoratlar qurilgan. Jumladan, nihoyatda ziynatli "Ixlosiya" madrasasi va xonaqohi, "Shifoysi" va "Safiya" nomli shifoxona hamda hammom binolari Alisher Navoiy boshchiligidagi qurilgan.

Temuriylar davrida maqbaralar qurilishi ham nihoyatda rivojlanadi. Bu davrda asosan bir necha xonadan iborat bo'lgan, murakkab kompozitsiyali maqbaralar shakllanadi. Hirot shahrida XV asrning II yarmida qurilgan Shahzoda Abdullo maqbarasi shular jumlasiga kiradi. Hirotdagi Gavharshod maqbarasi ham murakkab hajm-fazoviy tuzilishi va bezaklarining bejirimligi bilan ajralib turadi.

Arxitekturaviy ansamblar yaratish san'ati Temuriylar davrining yirik yutuqlaridan hisoblanadi. Hirot va Isfaxonda, Sheroz va Tabrizda muhtasham imoratlardan iborat arxitekturaviy ansamblar yaratilgan edi. Arxitekturaviy ansamblar orasida eng ko'p tarqalgani bu "qo'sh" turidagi ansambl bo'lib, unda mahobatli imoratlar peshtoqlari bilan biri ikkinchisining ro'parasida joylashtirilgan.

Ansamblning yana bir turi ikki alohida turuvchi imoratlarni ochiq hovli yordamida birlashtirish bo'lib, Hirotdagi Gavharshod madrasasi va musallosi bunga misol bo'la oladi.

Ansamblning yana bir turi bo'ylama o'q bo'yicha yo'naltirilgan kompozitsiya asosida shakllangan. Hirotdagi Xiyobon ansamбли va savdo rastalarining joylashtirilishi bunga misol bo'ladi.

Mir Alisher Navoiy tomonidan Hirotdagi Injil nahri bo'yida bunyod qilingan ansambl Gavharshod ansambli bilan uyg'unlashib, nihoyat darajada go'zal makonga aylangan.

Hirotdagi ushbu qismida bog'lar bilan o'ralgan qasrlar ham joylashgan. Hirotdagi bog'lardan, ayniqsa, Navoiyga qarashli Bog'i Puli Sangkashon va Bog'chai Shavqiya, Shohrux tomonidan kengaytirilgan Bog'i Baland va Bog'i Safed hamda Husayn Boyqaro asos solgan Bog'i Naqshi Jahonoro va Bog'i Chamanoro ajralib turadi.

Bog'lar odatda baland devorlar bilan o'ralib, "chorbog'" shaklida yaratilgan. Chorbog' to'rt qismdan iborat bo'lib, asosiy xiyobon oxirida imorat qurilgan. Imorat oldida sufali peshgoh va favvorali hovuz qurilgan.

Alisher Navoiy boshchiligidagi bog'larning tuzilishiga bag'ishlangan "Irshod va Zira" asari Hirotda nashr qilinib, unda XV asr bog' san'atiga oid ma'lumotlar berilgan.

Osiyoning janubiy qismida — Hindiston yarim orolida qadim zamonlardan boshlab o'ziga xos madaniyat va arxitektura shakllangan. Hindistonda feudal munosabatlari milodiy IV—V asrlarda to'liq shakllanadi. Bu munosabatlar shakllanishi buddizm dini tarqalishi bilan ham bevosita bog'liq edi.

XII—XIII asrlarda Hindistonning shimoliy hududlari turkiy xalqlar tomonidan zabt etiladi va islom dini keng tarqaladi. XV—XVI asrlarga kelib Temuriylar tomonidan yarim orolning qariyb barcha hududlarida (janubiy qismdan tashqari) islom feudal davlatlari tashkil topadi. Ayniqsa, bu borada Dehli sultonligining tashkil topishi katta ahamiyatga ega edi. Shu davrda Eron va O'rta Osiyo arxitekturasi ta'siri ostida Hindistonda peshtoqlarga ega gumbazli binolar, ravoqli qurilmalar va baland minoralar keng tarqaladi. Masjidlar, madrasalar va maqbaralar qurilishi bilan bog'liq holda gumbazli va baland peshtoqli bino turlari qurilishi avj oladi.

Feodal hukmronlar yaxshi himoyalangan qal'alar qurilishiga katta e'tibor berishadi. Bu borada Siri, Juhonobod, Firuzobod kabi Dehli sultonligi davrida qurilgan qal'alarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

1479-yilda Qutb va Din Oybak tomonidan islom dini o'rnatilishi ramzi sifatida qurilgan Qutb minor o'zining 72,5 metrlik balandligi bilan Hindistondagi eng baland imoratlardan hisoblangan. Qutb minor bilan birgalikda qurilgan Quvvat al-Islom masjidi ham eng birinchi islom yodgorliklaridan edi. Keyinchalik ushbu majmua kengaytirilib, Imtutlish maqbarasi (1235), Ali Darvoza va yana boshqa imoratlar qurilishi amalga oshirildi.

1526-yildan boshlab Hindistonda Boburiylar hukmronligi boshlanib, qariyb 250 yil davom etadi. Boburiylar davri arxitekturasi asosan O'rta Osiyo arxitekturasi an'analarini asosida rivojlanib, shu bilan birga, bir qancha o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Humoyun maqbarasi Boburiylar

tomonidan qurilgan ilk imoratlardan hisoblanadi. 1556-yilda qurilgan maqbara tarhi kvadrat shaklida bo'lib, baland gumbaz bilan yopilgan. Binoning to'rt tarzi ham bir xil shaklida bo'lib, ravoqli peshtoqlardan iborat. Maqbara atrofida "chorbog'" usulida bog' tashkil qilingan. Umuman olganda, Bobur bog'lari Hindistonda Movarounnahr bog' san'ati tarqalishiga asos soldi. Bu borada Sikandradagi Akbarshoh maqbarasi atrofida bunyod qilingan chorbog' (1604–1613), Lahor shahrida tashkil qilingan Shalimor (1633–1642) bog'i va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Boburiylar davrida qurilgan qal'alarga misol qilib Dehlidagi 1638-yilda qurilgan va hozirda Qizil Fort nomi bilan mashhur qal'ani ko'rsatish mumkin. Bu qal'a Shoh Jahon tomonidan o'z poytaxtini Agra shahridan Dehliga ko'chirishi munosabati bilan qurilgan edi.

Haydarobod shahrida 1591-yilda qurilgan Chorminor darvozasi eng muhtasham imoratlardan hisoblanadi. Imorat to'rt tarzi peshtoqlar bilan bezatilib, to'rt burchakda baland minoralar qurilgan. Peshtoqlar ostidan shaharning to'rt asosiy ko'chasini birlashtiruvchi ravoqli yo'laklar joylashgan.

Shoh Jahon sevimli xotini Mumtozbegim vafotidan keyin Movarounnahr, Eron va Hindistondagi barcha mashhur me'mor va ustalarni yig'ib, ulkan maqbara qurishga qaror qiladi. 1632–1654-yillarda qurilgan Toj Mahal maqbarasi Boburiylar davri arxitekturasining eng yuksak namunasi hisoblanadi. Agra shahrida ushbu markaziy-gumbazli imorat atrofida "chorbog'" uslubida ulkan ansambl ham tashkil qilinadi. Ansambl tarkibida, shuningdek, alohida turgan to'rt minora ham qurilgan.

MUNDARIJA

Kirish	3
Arxitektura tarixi va fani predmeti, maqsadi va vazifalari.	
Arxitekturaning vujudga kelishi	4
Ibtidoiy jamoa arxitekturasi	7
Qadimgi Misr arxitekturasi tarixi	9
Qadimgi Mesopotamiya va Eron arxitekturasi	13
Antik arxitektura. Qadimgi Yunon arxitekturasi	17
Qadimgi Rim arxitekturasi	22
Feodalizm davri arxitekturasi. Vizantiya arxitekturasi	28
Kavkazorti va Qadimgi Rus arxitekturasi	32
G'arbiy Yevropa davlatlarida V—XIV asrlarda arxitekturaning rivojlanishi	57
Gotika arxitektura uslubi	61
Uyg'onish davri arxitekturasi	66
G'arbiy Yevropa davlatlari XVIII—XIX asrlar arxitekturasi	74
G'arbiy Yevropa davlatlarida klassitsizm uslubi	78
Rossiyada XVIII—XIX asrlarda arxitektura rivojlanishi	82
O'rta va Yaqin Sharq davlatlari arxitekturasi	88
Eron, Afg'oniston va Hindiston Temuriylar davri arxitekturasi	92

Muhsin Xidirov

ARXITEKTURA TARIXI

*O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni
qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha
Respublika muvosiqqlashtirish komissiyasi tomonidan
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*
Musavvir *Anatoliy Bobrov*
Badiiy muharrir *Yulay Gabzalilov*
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*
Musahhih *Mavjudha Nasriddinova*
Kompyuterda sahifalovchi *Zuhra Ahmedova*

IB № 4210

Bosishga 10.09.04-y. da ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$ Tip tayms garniturasi. Ofset bosma. 6,25 shartli bosma toboq. 7,0 nashr tobog'i. Jami 500 nusxa. 218-raqamli buyurtma. 38-2004 raqamli shartnoma. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30. // 700128. Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.

6-090.1

Xidirov M.

Arxitektura tarixi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. — T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2004. — 100 b. Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, M.Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat arxitektura-qurilish instituti

Mazkur o'quv qo'llanma eng qadim zamonlarda arxitekturaning kelib chiqishidan boshlab to zamonaviy arxitektura shakllanishigacha bo'lgan davr arxitektura taraqqiyoti haqida tushuncha beradi.

BBK85. 11я 73 85.11я73

6-090.1

Xidirov M.

Arxitektura tarixi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. — T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2004. — 100 b. Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, M.Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat arxitektura-qurilish instituti

Mazkur o'quv qo'llanma eng qadim zamonlarda arxitekturaning kelib chiqishidan boshlab to zamonaviy arxitektura shakllanishigacha bo'lgan davr arxitektura taraqqiyoti haqida tushuncha beradi.

BBK85. 11я 73 85.11я73



UNIVERSITY OF
MANITOBA